доцент Государственного института искусств и культуры Узбекистана**

Аннотация: В статье речь идет о развитии эстрадного и концертного творчества, постановке концертных программ, жанровом разнообразии.

Ключевые слова: эстрада, жанр, искусство, культура, концерт, актёр, режиссёр.

**Farruh Egamberdiyev,
Associate Professor of the State Institute of Arts and Culture of
Uzbekistan**

Annotation: The article deals with the development of variety and concert creativity, the staging of concert programs, genre diversity.

Keywords: stage, genre, art, culture, concert, actor, director.

Bugungi kunda hukumatimiz insonning voyaga yetishi va kamol topishi uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib bermoqda. Jamiyatda o‘z o‘rniga, ish joyiga ega bo‘lgan inson ishdan bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazishi va hordiq chiqarishi uchun imkoniyat izlashi tabiiy. Shu xususda har kim, har xil yo‘l tutadi. Kimdir tabiat qo‘ynida hordiq chiqarsa, yana birov sport bilan shug‘ullanadi, boshqasi teatr, kino, konsert zallariga tashrif buyuradi. Bo‘sh vaqtni ahamiyatsiz va keraksiz ikir-chikirlar bilan to‘ldirishdan ko‘ra, shu o‘tgan vaqt davomida insonning ma’naviy dunyosi boyisa, bu nur ustiga nur bo‘lishi tayin. Bo‘sh paytida teatr va konsertlarga

tashrif buyurayotgan tomoshabinning qalbiga ezgo'lik ulashish, ma'naviy ozuqa berish, kerak bo'lsa tarbiyalash sahna san'atining yetakchi vazifasi hisoblanadi.

Mazkur masalada estrada san'atining vazifasi san'atning boshqa tur va janrlaridan kam emas. Estrada konsertlarini asosan yoshlar sevib tomosha qilishlarini e'tiborga olsak, estrada san'ati oldida turgan vazifalar yana ikki hissa oshadi, deyish mumkin. Haqiqatdan ham asosan yoshlar estrada san'atning chinakkam muxlislari hisoblanishadi. Estradaning biz yuqorida aytgan ochiqligi, fikrni qisqa va lo'nda bayon etishi, nomerlar ritmining sho'xligi va yumorga boyligi uni yosh tomoshabin qalbiga yaqin qiladi. Chunki yoshlar estrada san'ati singari yangilikka intiluvchan bo'lishadi. Estrada aktyori o'z nomerini ma'naviy jihatdan boyita olsa va ijrosiga ma'suliyat bilan yondashsagina nomerni tomosha qilayotgan murg'ak qalb egasini ezgo'lik va yaxshilikka yo'naltira oladi.

Afsuski estrada sahnasida namoyish etilayotgan ayrim nomerlarda sahna ma'naviyati va estetikasi yetishmasligiga guvoh bo'layapmiz. Shuning uchun adabiyotning shu qismida bizni qiynagan mazkur masala yuzasidan mulohaza yuritishni lozim deb bildik.

Estrada konserti o'zining shakli-shamoyili jihatidan bugungi zamonaviy kunimizda eng ko'p tarqalgan va tomoshabinlar tomonidan yengil hazm qilinadigan turlardan biri sifatida o'rin egallab bo'ldi. U o'zining ko'p qirradorligi bilan ham farqlanib bormoqda. Estrada ansambllari va qo'shiqchilarining konsertlari, felyetonchilar va taqlidchilarning chiqishlari, qiziqchilar va askiyachilar tomoshalari, turli janrlarga mansub yig'ma konsert dasturlari va estrada janriga xos spektakllar shular jumlasidandir. Hattoki, bugungi kunda radio va televideniye dasturlari va ommaviy axborot vositalari yordamida chet elda tashkil etilayotgan estrada konsertlarini tomosha qilish imkoniyatiga ham ega bo'lmoqdamiz. Mazkur san'at turi teatr va kino san'ati bilan barobarida bellasha olayapdi.

Yurtimizda milliy askiya, payrov, qiziqchilik, muqallidchilik singari so'z janrlari negizida vujudga kelgan o'zbek milliy estradasi zamon bilan ham nafas rivojlanib borayotganligi bejizga emasdir. Yevropa sahnalarida o'zbek estrada xonandalari va qiziqchilarining chiqishlarini ko'p bor kuzatib ularning ajnabiy

tomoshabinlarni ham lol qoldirayotganligiga guvoh bo‘lmoqdamiz. Farrux Zokirov, Yulduz Usmonova, Ozodbek Nazarbekov, Oksana Nichetaylo, Shaxzoda, Sevara Nazarxon singari estrada xonandalarimiz, Hojiboy Tojiboyev, Obid Asomov, Mirzabek Xolmedov, Valijon Shamsiyev singari so‘z ustalarimizning chet davlatlardagi konsert dasturlari so‘zimizning dalilidir.

Albatta, milliy estradamizning rivoji yo‘lida hukumatimiz tomonidan olib borilayotgan maqbul siyosat mazkur san‘at turi rivojiga ulkan xissa qo‘shayotganligiga hech shubhamiz yo‘q. Prezidentimizning quyidagi fikrlari estrada san‘atining yurtimizdagi keyingi rivoji uchun dasturil amal bo‘lmoqligi zarurdir. “Aytish mumkinki, o‘tgan asrning boshlarida ilk namunalari paydo bo‘lgan o‘zbek estradasi istiqloq yillarida sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarildi. Bunday natijalarga erishishda milliy va umumbashariy musiqa san‘ati yutuqlarini, jahon estradasining eng yaxshi namunalarini o‘rganish bo‘yicha katta imkoniyatlar ochilgani, bu soha rivojiga ko‘rsatilayotgan doimiy e‘tibor, yosh iste‘dodlarning o‘zini namoyon etishi uchun yaratilayotgan qulay shart-sharoitlar muhim rol o‘ynamoqda.”

Haqiqatdan ham istiqloq yillarida estrada xonandalari, qiziqchilar va so‘z ustalari tomonidan tomoshabinlar uchun taqdim etilayotgan konsert va tomoshalarning soni ortib ketdi. Ularning shaharlarimizdagi madaniyat saroylarida mustaqil ravishda konsert berishlari, uni televideniye, radio va boshqa OAVda istalgancha reklama qilishlariga imkon tug‘ildi. Estrada san‘ati xalqimizning keng qamrovli olqishini qozona boshladi.

Shu bilan birga, estradachilarning hukumatimiz tomoni qo‘llab-quvvatlanishi, “Nihol mukofoti”, “E‘tirof” singari tanlovlarning tashkil etilib, estrada ijodkorlari mukofotlanayotganligi va bu bilan ularning ijodiy izlanishlariga o‘z samarasini beratgani fikrimizning yaqqol dalilidir.

Estrada san‘atining qo‘shiqchilik ijodiga hamal toshini qo‘ygan K. Jalilova, B.Mavlonov, R.Qurbonovalar, Botir Zokirov, Luiza Zokirovalar bo‘lishsa, ularning maktabini davom ettirgan, Farrux Zokirov va “Yalla” ansambli, Kumush Razzoqova, Kozim Qayumov, Yulduz Usmonovalar bo‘lishdi. Qiziqchilik janrida

Yusufjon qiziq Shakarjonov maktabini egallagan va uni o‘zbek estrada qiziqchiligida qo‘llay olgan, Ibrohim Tojiboyev, G‘afurjon Yusupov, marg‘ilonlik Oxunjon qiziq Huzurjonov va yangi qiziqchilik maktabiga asos solgan, halqimiz orasida so‘z ustasi sifatida tanilgan Rustam Hamroqulov, Hojiboy Tojiboyev, Obid Asomov, Mirzabek Holmedovlar va ularning izdoshlari ham bugungi kunda konsert saroylarimizda o‘z ijodlari bilan o‘rtoqlashmoqdalar.

Shunday ekan, o‘zbek estradasi milliy an’anaviy tomosha teatrining negizidagi so‘z janrlari bo‘lmish askiyachilik, muqallidchilik, taqlidchilik, qiziqchilik, shuningdek, masxarabozlik, qo‘g‘irchoqbozlik, dorbozlik va hokazo yo‘nalishlarni mantiqiy davomi bo‘lib, uni yangi unsurlar bilan boyitilgan holda, estrada aktyorining zamonaviy qarashlari ostida o‘zgartirilishi va shu bilan birgalikda milliy tomosha xususiyatlarini saqlab qolayotgani ko‘zga tashlanmoqda.

Bugungi kunda estrada qo‘shiqchilari, estrada so‘z ustalari va estrada artistlari (tomoshada ishtirok etuvchi konferansye, boshlovchilar, aktyorlar) tomonidan namoyish etilayotgan tomoshalarda o‘zbek an’anaviy teatriga xos bo‘lgan qirralarni mavjud.

Bu qirralar nimalarni tashkil etmoqda?

O‘zbek an’anaviy teatri aktyorlari o‘z tomoshalarini tashkil etishda og‘zaki dramaturgiyadan foydalanishgan;

“Bu teatrdan asosan ikki tanqid va muqallid janr mavjud bo‘lgan. Tanqidda bosh vazifa hayotda insonlar tabiatida mavjud kamchiliklari tanqid, hajv, shuningdek hazil, kulgi ostiga olish bo‘lsa, muqallidda inson – erkak va ayol, katta, yoki bola, jonzod qiyofasi, hatti-harakatlarini o‘rniga qo‘yish birlamchi shart sanaladi.”

Masxaraboz va qiziqchilar teatri tomoshalarini ijro etishning shartlaridan biri unda foydalaniladigan ust-bosh va grim elementlari bo‘lib, ularning masxaraboz va qiziqchi ekanini ko‘rsatadigan birinchi belgi uning tepasi uchli uzun qalpog‘idir. Masxaraboz va qiziqchi tomosha ijrosiga kirishgach asar voqeasi va obrazlarga mos ust-bosh kiyadi va grim qiladi. Yasama soqol-mo‘ylov singari unsurlardan foydalanadi.

O‘zbek an’anaviy teatrida ayollar rolini erkaklar ijro etgani sababli ayollarga taqlid muammolari – hatti-harakati, tovushi, ust-boshlari, pardozini o‘rniga qo‘yishga alohida ahamiyat berilgan, maxsus ayollar parigi, oyoq kiyimi singari ashyolardan foydalanilgan. Voqea o‘rni, muhit va vaqtni ko‘rsatish o‘ta shartli usullar bilan ifodalangan.

Repertuarda xalq kundalik hayotining turli tomoni- adliya idoralari, qozi va qozixonona faoliyati, bozor, savdo-sotiq, boy va kambag‘allarning yeriga suv taqsimlash ishlaridagi nopoklik, o‘g‘irlik, sutxo‘rlik, madrasa, maktab, ta‘lim va tarbiya ishlaridagi nuqson, ayrim din axillari orasidagi firibgarlik, sodda xalqni aldash, xon saroyi bilan xalqning muloqoti singari mavzular o‘z ifodasini topgan.

An’anaviy teatrdan ildiz olgan o‘zbek estradasining bugungi holatini kuzatadigan bo‘lsak, yuqorida ta’kidlangan tomosha unsurlarining aksariyati o‘zida mujassam etayotganligiga guvoh bo‘lamiz. Ammo ish bor joyda kamchilik yuzaga kelganidek, estrada ustalari tomonidan sahnalashtirilayotgan asarlarda ayrim nuqsonlar ham ko‘rinib qoladi.

So‘ngi yillarda “O‘zbekiston” telekanalida efir yuzini ko‘rayotgan va bir necha bor “Istiqlol” san’at saroyida o‘z tomoshasini namoyish etgan “Qalpoq” hajvchilarining ishlarini ko‘rib chiqish mumkin. “Qalpoq” hajvchilarining ilk sahifalari 2003 yilda teleekranlarga uzatilib, uning birinchi ishtirokchilar Orif Sultonov va Rahmonali Suropov bo‘lgan. Keyinchalik guruh tarkibi va repertuarini kengaytirish maqsadida Iskandar Hamroqulov, Shirmon Abdullayeva, Muxtor Xalilov, Barno Teshaboyeva guruhga taklif etiladilar. “Qalpoq” ijodkorlari milliy va MDH telekanallarida efirga uzatilayotgan mashhur teleseriallarga ishlangan parodiyalari bilan avvalo televideniye orqali keyinchalik esa “san’at saroylarida” 2006 yildan buyon mazkur yilgacha bir necha bor o‘z konsert dasturlarini namoyish etib kelishmoqda. “Qalpoqchilar o‘z tomoshalarida har hil mavzulardagi “qo‘lbola” intermediyalar, miniatyuralar, qatra handalar va hangomalarni o‘ziga xos usulda sahnalashtirishga urinishgan. Har bir chiqishda obrazlar va qahramonlar xarakterlarida bir hillikning kuzatilishi tomoshabinni biroz zeriktirib qo‘ysa,

notabiiy tatar kampir obrazi biroz odamning asabiga o‘ynaydi. Qalpoqchilarning eng ommabop mavzulari:

- Seriallarga parodiyalar
- Issiq-sovuq va folbinlik bilan bog‘liq voqealar
- Oilaviy va maishiy masalalar

“Qalpoq”chilar bu mavzularini tanlaganliklarining asosiy sababi mashhur teleseriallarning muxlislarini ham e’tiborini o‘zlariga qaratish desak, yanglishmagan bo‘lar edik. Chunki, ma’lum va mashhur teleseriallar va ularning qahramonlarini tomoshalar doirasida kuzatish albatta tomoshabin qiziqishini uyg‘otmay qolmaydi. Ammo bunday parodiyanamo sahna ko‘rinishlari bilan ijodkorlar tomoshabinga nima demoqchi bo‘lganliklari biz uchun qorong‘u. Chunki har qanday asar ostida tomoshabin ma’naviy dunyosini boyitish, estetik zavq ulashish bilan bir qatorda uning didini o‘stirishdek tarbiyaviy maqsad yotadi. Tayyor serial syujetidan foydalanib, hajviy asar yaratish ijodkordan yuksak badiiy mahorat talab etmaydi. Shunday ekan “Qalpoq”chilar tomonidan yaratilgan bu singari asarlarni badiiy qiymatga ega emas deb ko‘rsatish o‘rinli bo‘lar edi.

So‘ngi yillarda Toshkent shahri markazidagi “Zarafshon” konsert zalida sahna yuzini ko‘rib kelgan va sobiq NTT nodavlat telekanalida efirga uzatilgan “Comedy.uz” 2012-yil 29-yanvarda ilk soni namoyish etiladi. Tomoshada aynan bir sondagi ishtirokchilar qatnashishmaydi. Har sonda namoyish etiladigan mavzuga qarab, ishtirokchilarning soni ham o‘zgarib turadi. Telekanal muxlislari asosan yoshlar ekanligini inobatga olsak, ushbu ko‘rsatuv aynan ularga xos va mos ravishda tuzilayotganligini guvohi bo‘lamiz. Ko‘rsatuv Rossiya telekanallarida efirga uzatilayotgan va hatto o‘sha yerning o‘zida ham keng jamoatchilik tomonidan sayyoz va bachkana yumorni targ‘ib qilishda ayblanayotgan “Comedy.club” va “Comedy.woman” ko‘rsatuvlaridan andoza ravishda olinganligi barchagamizga sir emas. Shunday bo‘lsada, dastlabki sonlari katta olqishlar bilan qarshi olingan mazkur tomosha keyingi vaqtlarda shunchaki, nomiga sahnalashtirilayotganday taasurot uyg‘otib bordi. Ishtirokchilar kulgu emas, balki shunchaki sahna ko‘rinishi ijro etishayotgandek, nazarimizda. Ssenariylar o‘ta sust, aksariyat ishtirokchilarda

professionallik yetishmasligi bilan bir qatorda sahna qonun qoidalarini tushunishmaydiganga ham o‘xshab qolayapti. Balki bu kamchiliklar tomoshalarning tashkil etilishiga kam fursat bo‘lganligi bilan balki oqlanishi mumkindir, lekin tomoshani yaratishda tajribali kulgu ustalaridan ko‘mak so‘rash, ayrim sonlarda ulardan foydalanish, malakali hajvchi mualliflar bilan ishlash ijobiy natija berishi mumkin deb o‘ylaymiz.

“Taqlid shou” guruhi 2010-yil 26-noyabrda ilk marotaba o‘z tomoshasi bilan chiqqan. Unga qadar ishtirokchilar alohida-alohida ijod qilib kelishgan. Shuni ta’kidlash o‘rinliki, ushbu guruh o‘zbek kulgu san’atiga yangicha uslubni kashf etdi desak, mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz. Sa’dulla Abdullayev boshchilik qilayotgan guruhda Nurbek Mamatov, Sayfiddin Fayziyev, Dilmurod Qosimov, Barot Orzimatov, va Farhod Zokirovlar ijod qilib kelishmoqda. Ular Erkin Komilov, Afzal Rafiqov, G‘iyos Boytoyev, Ravshan Komilov, Ozodbek Nazarbekov, Dilnoza Ismiyaminova, O‘tkir Siddiqov singari bir necha o‘nlab san’atkorlarning ovozi va tashqi ko‘rinishlarini professional tarzda o‘xshatish imkoniyatiga ega bo‘lgan iqtidorli, yosh ijodkorlar ekanligi yurtimizda hajv san’atining umri boqiy ekanligining isboti deyish mumkin. O‘z chiqishlarida ijodkorlar ko‘p bora tashqi ko‘rinish va ovozlarga parodiyalarni ijro qilishadi. Ammo shuni aytib o‘tish lozimki, ijrochilar asl qiyofalarini saqlash imkoniyatlarini chetga surib qo‘ymoqdalar. YA’ni ular o‘zlari parodiya qilayotgan san’atkor qolipidan chiqa olishmayapti. Ayrim parodiyalar qaytalanib qolganligi, bir-biriga o‘xshash ijroning tobora ko‘p kuzatilayotganligi, yangi-yangi san’atkorlarni parodiya qilish imkoniyatining sustligi vaqt o‘tgani sayin tomoshabinni zeriktirib qo‘yishi turgan gap. Mana shu o‘xshashliklardan o‘zoqlashib, original nomerlarni yaratishga e’tibor qaratilsa, ijobiy natijaga erishish mumkin bo‘lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Анастасьев А. Эстрадное искусство и его специфика // Русская советская эстрада. 1917-1929 М., 1976.
2. КЛИТИН С.С. Эстрада. Л.: Искусство, 1989.
3. Товстоногов Г. Зеркало сцены. Л.: Искусство, 1984.

**Isoqtoy Djumanov,
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti dotsenti**

ESTRADA SAN’ATIDA SO‘Z VA UNING INNOVATSION

IFODA TIZIMLARI

Annotatsiya: Maqolada estrada san’atida muhim ijodiy jarayonlaridan biri bo‘lgan so‘z va uning innovatsion ifoda tizimlari, hayotiy va badiiy talqin sifatida ayrim jihatlari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Estrada, istyedod, muloqot, talqin, jarayon, ifoda,, kashfkor, mushtarak, muntazam, ulug‘vor, hazina, yondosh, jondosh, tasavvur maqsad, harakat.

**Исақтой Джуманов,
доцент Государственного института искусств и культуры
Узбекистана**

СЛОВО В ЭСТРАДНОМ ИСКУССТВЕ И ЕГО ИННОВАЦИОННЫЕ СИСТЕМЫ ВЫРАЖЕНИЯ

Аннотация: В статье обсуждаются слово, являющееся одним из важнейших элементов в актёрском искусстве эстрады и некоторые его аспекты в контексте инновационных систем выражения, жизненная и художественная интерпретация.

Ключевые слова: Эстрада, талант, общение, интерпретация, процесс, выражение, исследователь, обычный, регулярный, славный, сокровище, товарищ, компаньон, воображение, цель, действие.

**Isaqtay Djumanov,
Associate professor of the State Institute of Arts and culture of
Uzbekistan**

THE WORD IN THE ART OF VARIETY AND ITS INNOVATION EXPRESSION SYSTEMS

Annotation: The article discusses the word, which is one of the most important creative processes in pop art, and some aspects of it as innovative expression systems, vital and artistic interpretation.

Keywords: Variety, talent, communication, interpretation, process, expression,, explorer, common, regular, glorious, treasure, companion, companion, imaginary goal, action.

Estrada san'atida so'z hamisha o'z zamonining ruhi, dardu, dunyosi, muammolarini aks ettirishi va fikrning teran ma'nolik hususiyati bilan ijrochidan qanchalik ko'p vazifalarning ijodiy yechimini topishni talab etadi. O'z o'rnida estrada san'atida o'zining nufuzi, ijodiy salohiyati, topqirligi, hozirjavobligi ko'p ming sonli muxlislar nigoxida tezkor fikrlashi, so'z boyligi va uning rangbarang ifoda ta'sirchanligi bilan yorqin ta'surotlar bilan yuzma yuz qiladigan, zavq-shavq uyg'ota oladigan janrlardan biridir. Estrada san'atida ijod qilayotgan so'z ustalari o'z zamonasining tagdor fikrli, jo'shqin, va rang-barang talqin, ifodaviylik mahoratini mukammal egallashni taqozo etadi.

Katta konsert saroylarimizda ko'p ming sonli tomoshabinlar oldida o'zlarining betakror ijod namunalarini taqdim qilib kelayotgan estrada aktyorlarimizning o'z davri, muhiti, o'zi yashayotgan jamiyatni hamma tomonlama teran anglagan, uning yutuqlaridan chin insoniy qalb his qila oladigan, umuminsoniy qadriyatlarga yot sarqitlar, salbiy oqibatlar keltirib chiqaruvchi inson tabiatiga yot nuqsonlarga o'tkir so'zi, hazilga moyil tanqidiy, murosasiz munosabati bilan ta'sir qila oladigan ijodkorlar, so'z ustalari san'atini maroq va zavq bilan kuzatamiz.

120 dan ortiq o'zbek masxaraboz va qiziqchilar ijodini chuqur o'rgangan taniqli olim, professor Muhsin Qodirov o'zining monografiyasida, estrada va so'z san'atimizning ibtidosi, ilk qadamlari XVIII asr oxiri - XIX asrning birinchi yarmidagi masxaraboz va qiziqchilar teatrining faoliyatini chuqur o'rganib "Farg'ona vodiysida kulki va hajv san'atini mukammal egallab, bor umrini unga hadya etgan, zo'r istedod va ulkan maxoratga ega bo'lgan o'nlab professional va yuzlab havaskor qiziqchilar yashab ijod qilgan. Ular xalq san'atini boshqa vakillari qatorida imkoniyatlari boricha mexnatkashlar ommasining estetik ehtiyojini qondirishga hizmat qilib kelganlar. Ularning jo'shqin faoliyati sevimli va jonajon xalqi orasida o'tgan [1.120].

Taniqli olimimiz o‘z tadqiqotlaridan keldib chiqib “Masxarabozlik va qiziqchilik bamisoli katta qilib ko‘rsatuvchi ko‘zgu singari xonlik davrining barcha tomonlarini xajviy bo‘yoqlarda haqqoniy aks etdirgan” degan fikrni bildirgan [2. 2-19]. Rossiya televideniyasining eng ommabop shou dasturlaridan biri Yevgeniy Petrosyan yetakchiligidagi “Krivoye zerkalo” ko‘rsatuvi va unda o‘zbek xalqining sevimli so‘z ustasi Obid Asomovning “ichak uzdi” hajviy monologlari millionlab ko‘p millatli tomoshabinlarning e‘tiboriga sazovor bo‘lganligi, shuningdek xalqimiz ardog‘i, hurmatiga sazovor bo‘lgan so‘z ustalari Xojiboy Torjiboyev, Mirzabek Xolmedov, Botir Muxammadxo‘jayev, Boltavoy Toshmatov, Abdulla Akbarov, Shukrullo Isroilov, Valijon Shamsiyev, Zokir Ochildiyev, Ortiq Sultonov, Avaz Oxunlarning katta konsert zallarida ko‘p ming sonli tomoshabinlar muxlislari ko‘z o‘ngida ijro etiladigan turli mavzulardagi chiqishlarining mazmun mohiyati, g‘oyasi, tarbiyaviy qimmatida ham so‘z san‘atining o‘zining yaratuvchilik, uyg‘otuvchilik kabi buyuk quratli kuchini namoyon etib kelmoqda. Muhsin Qodirov “Yusufjon qiziq Qo‘qon masxaraboz va qiziqchilik maktabining butun boyligi. Fazilatini chufur egallagan yirik sana‘atkordir. U o‘zidan avval o‘tgan mashhur katta masxarabozlar singari serqirra ijodga ega. Teatr, raqs, pantomima, imitatsiya, usul, askiya, korfarmonlik va tashkilotchilikda tengi yo‘q, ulug‘ va va yorqin siymo u” [1.121] deb yozadi.

Jamiyatimizdagi yutuq va kamchiliklari muammolarini chuqur anglash, ogohlik, adolat, halollik kabi fazilatlarga ega bo‘lishi, va uni bor vujudi, aqli, tafakkuri, qalbi bilan ifoda etishi, ijtimoiy fikr, uning buyuk yaratuvchilikning madh etuvchi, istiqlol mafkurasi, milliy g‘oyalar bilan mustahkamlangan professional estrada aktyori bo‘lishni taqozo etadi. Bu hayot tarzimiz, umrimizning mazmuni, e‘tiqodimiz, sadoqatimiz timsoliga aylanish kerak. Har bir estrada aktyorida ijroviy matn tanlash, tahlil qilish va talqin jarayoni o‘rganilish va tahlili qilinishi zarur bo‘lgan tadqiqot ma‘nbaidir. Estrada aktyori tanlangan asarning pishiqligi, katta iste‘dod va mahorat bilan yozilganligi, mantiqining kuchliligi, tasvirlarining mukammalligi, voqealarning qiziqarliligi, tasvirlarining pishiqligi, asarning insoniy qadriyatlarga monandligi, har bir ijrochi va tinlovchining dardu dunyosiga ta‘sir

kuchi, ijrochining tasavvuri, munosabati, irodasini uyg'ota olish hususiyati va boshqa jihatlari yetuk bo'lishining ahamiyati katta.

Estrada san'atida nutq texnikasi, mantiq, so'z bilan ishlashning hamma jarayonlarida ham talaba ta'sirchan betakror so'zga doimiy mehr, chanqoqlik uyg'otishi so'zning eng noyob, bebaho ijod ma'nabasi ekanligini his etishi, so'zga, hassos, chechan bo'lishi va buning ijodkorlik barkamolligining eng asosiy omillaridan biri ekanini bor vujudi, qalbi, tafakkuri bilan his etishlari zarur. Muhsin Qodirov "Ijrochilik san'atida erkin va ijodiy improvizatsiyaning o'rni katta bo'lgan. Improvizatsiya-gap, harakat, holat, to'qish demakdir. Ammo bu –aktyor hech qanday tayyorgarliksiz, asossiz sahnaga chiqib solib to'qib, o'ynab ketaveradi, butun bir tomosha boshdan oyoq to'qib, o'ynab ketaveradi, butun bir tomosha boshdan- oyoq to'qiladi degan so'z emas".

So'z jamiyat taraqqiyotining hamma pog'onalarida ham go'zallik, barkamollik, komillik sari chorlovchi, ifodalovchi omillaridan biri bo'lib kelgan. Inson taqdiri ham shu muqaddas tuyg'ularning mustahkamligi bilan bog'liq. Bu o'rinda estrada san'atida ham boshqa san'at turlari kabi yechimini kutayotgan qator vazifalar turibdi. Xalqimizning oddiy gapidan tortib, turli marosimlari an'analari alohida bir ma'no mazmun, kashf etadi. Bo'lg'usi yosh estrada aktyorlarining fikrlash qamrovi, qiziquvchanligi, diqqati, izlanuvchanligi, tirishqoqligi mukammal darajada kuchli bo'lishi shart. So'z orqali ta'sir qila olish salohiyati ijrochining irodasi, aniq maqsad asosida qattiyat bilan tomoshabinga ta'sir qilish nufuzini doimiy o'stirish uchun qator uslubiy tavsiyalar, mashq va mashg'ulotlar majmuni ishlab chiqish teatr san'ati maktabining doimiy e'tiborida. Jonli so'z san'ati sirlarini o'rganish va o'zlashtirish va so'z ustasiga aylanish insonning asl ko'rki, ziynati, obro'-e'tibori, jamiyat va ijtimoiy faoliyatining ramzi bo'lib qolaveradi.

Foydalangan adabiyotlar

1. Qodirov M. Masxaraboz va qiziqchilar san'ati. – Toshkent: Fan, 1971.
2. I.Muskiy. Sto velikix akterov. – Moskva: Veche, 2002.

Шокир Юсупов,
старший преподаватель Государственного института искусств и
культуры Узбекистана

СЦЕНИЧЕСКИЙ ЭТИКЕТ

Аннотация: Отношению к сцене и культуре поведения на ней актера учат с раннего студенчества, еще раньше, чем технике речи и постановке голоса. Строгость и бескомпромиссность в этом вопросе продиктована не только морально-этическими соображениями, ведь неподобающее поведение на сцене может сорвать спектакль, а пренебрежение техникой безопасности – привести к несчастному случаю.

Ключевые слова: актёр, режиссёр, этика, сцена, зритель

Shokir Yusupov,
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti katta o'qituvchisi

SAHNA AXLOQI

Annotatsiya: Etiket kundalik hayotda, ishda, o'qishda, ko'cha kuyda, mehmondorchilikda, turli rasmiy va norasmiy tadbirlarda, marosimlarda o'zini tutishning milliy va xalqaro meyorlarini o'rgatuvchi mustaqil zamonaviy fanlardan biridir. Ayni paytda u kishilar o'rtasidagi muloqotlar asosini tashkil etadi. O'zaro muloqot, harakat, tuyg'u, fikr-mulohaza, ichki va tashqi kechinmalarning eng yaxshi qirralarida namoyon bo'ladi. Etiket qoidalariga amal qilgan kishining mavqei ko'tariladi, boshqalar oldida e'tibori oshadi, turmush tarzi yaxshilanadi. Qolaversa, atrofdegilar bilan yaxshi munosabat o'rnatish, tarbiyali, madaniyatli zamonaviy shaxsning birinchi galdagi vazifalari sirasiga kiradi. Shu jihatdan ham madaniyat va san'at sohasida faoliyat olib boruvchi bo'lajak mutaxassislariga etiket fanini o'rgatish bugungi kunda o'ta dolzarb masalalardan biridir.

Kalit so'zlar: aktyor, rejissyor, axloq, sahna, tomoshabin.

Shokir Yusupov,
Senior Lecturer at the State Institute of Arts and Culture of Uzbekistan

STAGE ETIQUETTE

Annotation: The attitude to the stage and the culture of behavior on it, the actor is taught from an early student, even earlier than the technique of speech and voice production. Strictness and uncompromising in this matter is dictated not only by moral and ethical considerations, because inappropriate behavior on stage can disrupt the performance, and neglect of safety measures can lead to an accident.

Keywords: actor, director, ethics, stage, spectator.

Если театр – это храм актерского искусства, то сцена – его алтарь, святая святых, где ежедневно жрецами-актерами совершается главное таинство – воплощение роли. Отношение к сцене со стороны актера не может быть попустительским, а если такое случается, то не прощается ни администрацией, ни труппой, ни зрителем, ни самой сценой, которая, по поверьям, непременно найдет способ вернуть должок. Кроме того, именно отношением к сцене можно определить степень преданности актера своему призванию. Правила поведения на сцене и за кулисами должны выполняться неукоснительно.

По словам Франсуа Дельсарта, французского певца, жившего в 19 веке, педагога по вокалу и теоретика сценического искусства, музыкант тела является актером-музыкантом. Движение рук, ног, тела, лица на сцене - все под неусыпным взглядом зрителя. Иногда неспособность человека выйти на сцену разрывает узы внимания, которое объединяет его и публику. Многие незаметные в жизни недостатки сразу же ощущаются на сцене и раздражают публику. Это понятно, ведь на сцене человеческая жизнь отображается в ограниченном пространстве. Голос, дикция исполнителя, его внешний вид и манера поведения, в целом его выход на сцену могут принести ему успех, или же случаются и противоположные случаи. Поэтому исполнителю стоит обратить внимание на свое тело, мы постараемся изучить это по следующим требованиям.

1. Положение выступающего на сцене должно быть удобным и естественным, он должен уметь твердо и комфортно стоять на обеих ногах, что обеспечит прочность тела, равномерное распределение веса тела на все мышцы и кости.

2. Плечи должны быть в правильном положении по отношению к позвоночнику. Это позволяет лучше дышать и использовать грудной вибратор.

3. Наклонять голову или закидывать назад нельзя, необходимо свободно

держат и не сдавливают шею - это обеспечивает свободу и естественность шеи и гортани. Пусть их позиция послужит тому, чтобы голос звучал полноценно.

4. Лицо исполнителя на сцене должно быть искренним и подчиняться идее творчества, что является общей задачей. Во время обучения необходимо видеть улыбку, чувство радости и удовлетворения от работы, которую он делает. «Подобно тому, как чувство радости выражается в улыбке на лице, улыбка на лице показывает чувство экзальтации художника, радость творчества».

5. Руки должны быть свободными, не привязанными к спине или груди, опущенными в стороны. В этом случае можно будет сделать свободный, необходимый жест в любой ситуации.

Некоторые исполнители имеют привычку появляться на сцене с выражением крайнего недовольства. Появление перед аудиторией в депрессивной, недовольной или высокомерной манере может негативно повлиять на их настроение. Иногда исполнитель может переволноваться при выходе к публике. Исполнитель, который не может взять себя в руки, быстро забывает тексты. Перед выходом на сцену желательно сделать следующее, чтобы подавить волнение.

1. Нельзя сразу же начинать говорить выйдя на сцену, потребуется несколько секунд, чтобы и исполнитель и аудитория сконцентрировали своё внимание. В это время необходимо 2–3 раза сделать глубокий вдох через нос. Освобождаются от напряжения легкие, мышцы горла, и снова дышать. Этот интервал после выхода на сцену и перед творческим процессом также помогает сосредоточить внимание аудитории.

2. Перед выходом на сцену исполнителю полезно еще раз просмотреть текст, а также технические средства. Эти идеи служат развитию сценической культуры студентов-актеров. Независимо от того, кем является исполнитель, его искусство ценится только тогда, когда он демонстрирует свою высокую культуру на сцене.

А теперь остановимся на дикции исполнителя. Борис Брунов, один из

самых известных мастеров искусства сценической речи, сказал: “Обычно исполнитель является ответственным за дикцию и части связанные с речью в любых концертах и выступлениях.” Вы верите во всё происходящее на сцене, путешествуя по концерту, то есть в прекрасное царство музыки, песен и танцев. Он проведет вас лучезарными путями этого королевства. Он знакомит и представляет вам каждого художника, каждое выполненное произведение. Исполнитель - добрый, открытый, приветливый хозяин, это человек, который приветствует публику, передает зрителям приветствия артистов, уважение, проникновенные слова. Исполнитель - приятный, умный идеальный собеседник. Он должен уметь внимательно следить за настроением аудитории, при необходимости смягчать ситуацию надлежащим и подходящим образом и, таким образом, устранять препятствие, которое появляется на плавном пути окружения. Подобно тому, как хороший исполнитель способен поднять уровень низкой по статусу программы, плохой исполнитель может опустить статус выступления, на которой участвуют самые яркие звезды.

Приятный голос, сцена, описанная в спектакле, возможность увидеть событие, испытать эмоции перед глазами, полностью понять текст, уловить и раскрыть глубокое значение текста являются доказательством мастерства исполнителя. Кроме того, для художника характерны умение добавлять и обогащать что-то на основе своих чувств и переживаний по судьбам героев спектаклей. Исполнитель, овладевший этим, дополняет ещё одну часть сценической культуры.

Использованная литература:

1. Ефимова Н.Н. Звук в эфире. Аспект Пресс. - М. 2005 г.

Iltom Sodiqov,
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti katta o‘qituvchisi

BUGUNGI ZAMON QAXRAMONI

Annotatsiya: Maqolada bugungi kunda rejissyorlar tomonidan yaratilayotgan spektakl va badiiy filmlarda zamon qahramonini yoritish muammolari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: san’at, madaniyat, sahna, zamon, qahramon, spektakl.

Илхом Садыков,
старший преподаватель Государственного института искусств и культуры Узбекистана

ГЕРОЙ НАШЕГО ВРЕМЕНИ

Аннотация: В статье рассматриваются проблемы освещения героя времени в спектаклях и художественных фильмах, созданных современными режиссёрами.

Ключевые слова: искусство, культура, сцена, время, герой, спектакль.

Iltom Sadykov,
Senior Lecturer at the State Institute of Arts and Culture of Uzbekistan

THE HERO OF OUR TIME

Abstract: The article deals with the problems of lighting the hero of time in performances and feature films created by modern directors.

Keywords: art, culture, stage, time, hero, performance.

Umuminsoniy g‘oyalar bilan sug‘orilgan mukammal sahna asaridagi personaj o‘z davrining milliy qaxramonidir. Ular o‘z zamonasi muommolarini asarning boshida tugun tariqasida o‘rtaga tashlab, tamosha so‘ngida o‘ziga xos yechim taklif qilishadi. Ulug‘ rus tanqidchisi Belyinskiy “ Sanatning eng yuksak vazifasi insonlarning qalbiga tasir o‘tkazishdir. Din, siyosat ojiz bo‘lgan joyda

san'at ushbu vazifani o'z zimmasiga olib uni a'lo darajada bajarganini guvox bo'lganmiz. Asirlar davomida teatr sanati jamiyatning ko'zgisiga aylangan.⁸ Dramatik asarlar teatr jamoasi tomonidan sahnalashtirish uchun tanlab olinar ekan, unda bugungi kun muommalari va ularning yechimlari aks ettiriladi.

Antik davrdan tortib, uyg'onish davrigacha. Realistik yo'nalishdan bugungi kun texnologiya davriga qadar ulug' dramaturglar tomonidan yozilgan asarlar jamiyatda o'z g'oyasi aksini topgan. Rejissyorlar eng avvalo bu asarni saxnalashtirishdan oldin uni bugungi kunda jaranglashini, nimasi bilan aktualligini, yani zamonaviy tamoshabingga ushbu spektakl orqali nima demoqchiman degan savollarga javob axtaramog'i tabbiydir.

“Teatr bu minbar, ushbu minbar orqali turli taqdirlar o'rta tashlagan jumboq, o'ziga xos yechim topadi. Ularni xalq etilishi yo'lidagi sayxarakatlar asar qaxramoniga yuklanadi,”- degan edi Avloniy.

Villiam Shekspirning “Gamlet” asari dunyo sahnalardan tushmay kelayotganini birdan bir sababi uning bosh qaxramoni Gamletni aytayotgan fikri va uning xatti xarakati bugungi kunda xam o'z dolzarbligini yo'qotmagani. Savol tug'ilishi tabbiy, Gamlet bugungi kun qaxramoni bo'la olishi mumkinmi? Boshimizga tushadigan shafqatsiz muommalarga to'g'ri yechim izlashga o'rtagatadigan qaxramon barcha davr qaxramonidir.

Aristofanning “Ayollar xalq yig'inida” komediyasi 25 asar oldin yozilgan bo'lishiga qaramasdan, undagi xar bir so'z guyo bugun aytilayotgandek. Demak, umuminsoniy g'oyalarga xizmat qiladigan, jamiyatning illatlarning ustidan kuladigan komediya xam barcha davrlar uchun dolzarbdir. Xalqning asrlar davomida yig'ilib kelgan orzularini ruyobga chiqishiga xarakat qilgan. Asarlar doim davr qaxramonini namoyon qiladi. Xar qanday saxna asarida o'z zamonasining muammosi va uni yechimini topuvchi qaxramonni va uning xatti xarakatini ifodalaydi.

⁸ Эстетика Ю.Борьев 112-бет 1984 йил

Dramaturglar asar qaxramonini turli xarakterda aks ettiradi. Qaxramon soʻzini bazan noʻrin ishlatilishiga xam guvox boʻlamiz. Xozirgi kunda baʻzan mayishiy yoki sayoz gʻoyalarga qurilgan, qiliqlar bilan toʻldirilgan komediyalarda, kichik bir voqealarni, muommalarni xal qilgan xaraktersiz shaxslar xam davr qaxramoni “unvoniga” sazovor boʻlmoqda.

Davlatimiz tomonidan jasoratli, mexnatsevar, mard, jasur, oʻz ishinining ustalari, elu-xalq ichida obro-etiborga sazovor boʻlgan oddiy insonlar xukumat tomonidan turli unvonlar bilan taqdirlanmoqda. Biz yuqorida aytib oʻtgan, nazarda tutgan qaxramon unvoniga sazovor boʻlganlar oʻrniga, xaqiqatdan davlatimiz tomonidan tan olingan qaxramon insonlar taqdiri xaqida asarlar yozilsa, badiiy filmlar yaratilsa, spektakllar qoʻyilsa, estrada nomerlari yaratilsa maqsadga muvoffiq boʻlar edi. Axir, bugungi kun qaxramonlari ular bizning oramizda .faqat ularni ilgʻash kerak.

Yaqinda bir respublikamizni yetakchi teatrshunosi bilan suxbatlashganimda, uning quyidagi fikrlari meni mushoxada yuritishga majbur qildi . Gomerining davrida “Odisseya” asari qaxramonlari iloxiyatga qarshi kurash olib borishgan boʻlsa, Shekspir davrida umum insoniy tushunchalarning buzilishiga qarshi kurashdilar. Ikkinchi jaxon urushi davrida yozilgan asarlarning qaxramonlari bosqinchilarga qarshi kurashdilar. Bugunning qaxramoni qanday boʻlishi kerak? degan savoliga uning javobi:-“ Jammiyat, odamzodni yoʻq qiluvchi illatlar va turli ofatlar bilan insoniyat oʻrtasidagi kurashni aks ettiruvchi asarlarda va undagi qaxramonlarda nomoyon boʻladi. Tabbiy ofat va xokozo... Xayotning xar daqiqasi shiddatli boʻlishiga qaramay, undagi illatlar va kurash tarzi xaqidagi tushunchalar oʻzgarib turadi. Shuning uchun, bugungi kun qaxramoni bitta tizimda emas, balki bir qancha muommalarni ustida bosh qotiradigan shaxs boʻlishi talab qilinmoqda.. Xar bir davrning qaxramonlik maydoni jamiyatning qalbida, uning turmush tarzida, qiyinchiliklarida aks ettirilmaganmi? Yoki yer yuzining qaysidir bir burchagida qaxramonlik qilish uchun qurib qoʻyilgan maxsus maydon mavjudmi?

Yaratganga shukr-ki xozir yurtimiz tinch, dasturxonmiz toʻkin,sochin. Lekin bunday tinch xayotni yuzaga keltirishda yaqinda butun dunyoda boʻlgan ofatni

bartaraf etishda fidoyilik ko'rsatganlar va ko'rsatayotganlarning xarakati qaxramonlik emasmi? Ushbu tinch xayotimizni ko'ra olmasdan unga ko'z olaytirib turganlar kam deysizmi? O'zbek xalqiga yod bo'lgan manaviyat va mafkurani singdirishga, uning qadriyatlarini poymol qilishga, xarakat qilayotgan vayronkor g'oyalari bilan xujm qilayotganlarga qarshi kurashga bel bog'lagan xar bir inson bugungi kun qaxramonidir. Bugun o'z oilasining tinchligi, jamiyatning barqarorligi, mamlakat, yer kurrasidagi insoniyatni turmushini yaxshilashda o'z ilmi bilan, salohiyati bilan xizmat qilayotgan olim-u, ulomolar, oddiy ishchidan tortib to davlat boshqaruvchisigacha bo'lgan yurt fuqorolari o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni mukammal bajarsa, ularni milliy qaxramonlar deymiz.

Qaxramon so'zi yuksak g'oyalarni o'zida mujassam etgan komil insonga loyiq deb bilamiz. Vatan ostonadan boshlanadi. Demak qaxramonlik oiladan boshlanishi kerak. Agar maktabda yomon baxoga o'qiyotgan farzand o'zidagi yalqovlik illatlarini yengsa bu xam qaxramonlik emasmi? Bularni dramaturgiya talablari asosida, pyesa shaklida qog'ozga tushirish xam menimcha qaxramonlikdir. Xulosa qilib aytganda teatr sanati insonning qalbiga kuchli tasir etadigan vositasi ekan, u yuksak g'oyalarga tayangan, insoniyatga nafi tegadigan milliy qaxramonlar yaratmog'i zarur. Zero asar g'oyasi, undagi zamonaviy qaxramon xar birmurg'ak qalbga urug' singari tushmog'i, u yerda unmog'i, butun xayoti davomida estetik ideal sifatida ijobiy xarakatga davat qilmog'i davr talabiga aylandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. 38-b.
2. Tursunova M. Qadim madrasalarda ta'lim tizimi. Jahon adabiyoti jurnali. – Toshkent: Sharq, 2016. - 4-soni. - 137-b.

**Rasulov Shavkat,
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti o‘qituvchisi**

ESTRADA AKTYORLARINI TARBIYALASHDA TASAVVUR VA FANTAZIYANING AHAMIYATI

Annotatsiya: Ushbu maqolada aktyorlarni tarbiyalashda tasavvur va fantaziyaning muhim omil ekanligi va uning aktyorlik mahoratida tutgan roli hamda tasavvurni rivojlantirishga qaratilgan tavsiyalar haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: aktyor, rejissyor, tasavvur, fantaziya, sahna, rol, obraz, pyesa, to‘qima, xarakter, rol.

**Расулов Шавкат,
преподаватель Государственного института искусств и культуры
Узбекистана**

ЗНАЧЕНИЕ ВООБРАЖЕНИЯ И ФАНТАЗИИ В ПРОЦЕССЕ ПОДГОТОВКИ АРТИСТОВ ЭСТРАДЫ

Аннотация: В статье речь идет о значении воображения и фантазии в процессе воспитания актеров, даются рекомендации по развитию воображения.

Ключевые слова: актер, режиссер, воображение, фантастика, сцена, роль, образ, спектакль, фактура, персонаж, роль.

**Rasulov Shavkat,
Teacher at the State Institute of Arts and Culture of Uzbekistan**

THE VALUE OF IMAGINATION AND FANTASY IN THE PROCESS OF TRAINING VARIETY ARTISTS

Annotation: The article discusses the importance of imagination and fantasy in the education of actors and their role in acting skills, and also provides recommendations for the development of imagination.

Key words: actor, director, imagination, fantasy, scene, role, image, performance, texture, character, role.

Aktyor sahnada kuchli va yorqin tasavvurga ega bo'lishi lozim. Tasavvur aktyorga sahnadagi ijodiy ishining har bir lahzasida va sahnadagi hayotida juda katta ahamiyat kasb etadi.

Tasavvur - bor narsani, bor bo'lishi mumkin bo'lgan narsani, bilgan narsamizni yaratadi, fantaziya esa yo'q narsani, voqeylikda uchramaydigan narsalarni, xech qachon bo'lmagan va bo'lmaydigan narsani yaratadi. Ehtimol bir kuni kelib ro'yobga chiqsa ham ajab emas. Kim biladi deysiz? Xalq fantaziyasi afsonaviy uchar gilamni yaratar ekan, odamlarning aeroplanlarda parvoz qilishlari kimning xayoliga kelibdi? Fantaziya xamma narsani biladi va barcha ishning uddasidan chiqqa oladi. Fantaziya tasavvur singari san'atkorga nihoyatda zarurdir.⁹

Ijodiy ish vaqtida tasavvur boshlovchi hisoblanadi. U aktyorni o'zi ketidan boshlab boradi. Obrazning tashqi ko'rinishini, xulq-atvorini, yurishini, qiliqlarini yaratish uchun aktyor sahnada tasavvurga tayanadi.

Avtorning bergan so'zlari, rejissyorning talabalari va uning mizanssenalari bilan chegaralanib qolmaydi. Pyessadagi shaxsning xarakterini, nozik fikrlarini, sezgilarini, niyatlarini va ishlarini ifoda qila olishda aktyor o'z tasavvur va fantaziyasi orqali ifodalaydi.

Aktyor sahnada tasavvur va uning sexrli "agarda"si va "berilgan shart-sharoitlari" orqali o'z rolini boyitadi hamda to'ldiradi.

Tasavvur avtor, rejissyor va boshqalar aytmaganini aytibgina bermay, balki spektaklning bo'lak yaratuvchilarining ishiga jon kirgizadi, chunki ularning ishi tomoshabinga birinchi navbatda aktyorlarning muvoffaqiyatli ijrosi orqali yetib boradi. Rol ustida ishlash jarayonida biz talaba aktyorlarning tasavvur va fantaziyalari qay darajada boy ekanini ko'ramiz. Bazi aktyorlarning sahnada rol ijrosi vaqtida faqatgina avtor bergan so'zlariga tayanib qolishadi. Asar mazmuni va g'oyasidan kelib chiqqan holda o'zlarining tasavvurlari orqali yaratayotgan obrazlarini boyitishlari mumkin. Buning uchun aktyorda xayotiy tajribani va

⁹ К.С.Станиславский "Актёрнинг ўз устида ишлаши" 79 б.

kuzatuvchanlikni talab etadi. Aktyor o‘z hayoti davomida ko‘rgan-kechirganlarini, eshitgan va kuzatgan voqea-hodisalarini hamda insonlarni sahnada gavdalantiradi.

Parchalar ustida ishlash jarayonida talabalar faqatgina avtor bergan so‘zlarinigina ijro etishadi holos. Lekin sahnani to‘ldirishda esa yolg‘on va bo‘shliqga duch kelishadi. Buning uchun pyesada yo‘q narsalarni o‘ylab topishga to‘g‘ri keladi. Bu zaruriyat esa tasavvurni qo‘zg‘ata boshlaydi. Keyinchalik esa o‘ylab topilgan to‘qimalardan foydalana boshlaydi. Sekin-asta sahnada aktyor tomonidan ijro qilinayotgan qahramon obrazi shakllana boshlaydi va tomosha darajasiga yetib boradi.

Tasavvur aktyorlar uchun shunchalik katta ahamiyatga ega ekan, tasavvuri yo‘q odam nima qilmog‘i zarur?

- Uni asta-sekin rivojlantirmoq yoki sahnadan ketmoq kerak. Aks holda shunday rejissyorlarning qo‘liga tushib qolasizki, ular sizdan yetishmagan tasavvurni o‘zining bilan to‘ldiradi. Bu siz uchun o‘z shaxsiy ijodingizdan voz kechish, sahnada ahamiyatsiz odamga aylanib qolishning o‘zginasidir.¹⁰

Buning uchun aktyor o‘z tasavvurini rivojlantirishi, o‘z ustida ishlashi, boyitishi va kuzatishi kerak. Tasavvurni rivojlantirish “ – Bu – tasavvurning qandayligiga bog‘liq! Tashabbuskor tasavvur borki, u mustaqil ishlaydi. U ortiqcha kuch sarf qilinmay rivojlanadi; o‘ngda ham tushda ham uzluksiz, g‘ayrat bilan ishlayveradi. Tashabbusiz tasavvur ham bo‘ladi. Ammo u birov aytganini darrov ilib olib, mustaqil ravishda rivojlantira boshlaydi. Unday tasavvur bilan ishlash ham deyarli oson. Bordi-yu, tasavvur birov aytganini ilib olsa-yu, uni rivojlantirilmasa unda ish chatoq. Biroq shunday odamlar borki o‘zlari ham yarata olmaydilar, birov berganini ham eplashtirolmaydilar. Bordi-yu, aktyor ko‘rsatilgan narsani faqat tashqi, rasmiy jihatini qabul qilsa, bu unda tasavvur yo‘qligidan dalolat beradi, u artist bo‘lolmaydi.¹¹

Aktyorning tasavvurini rivojlantirishda uni qiziqtirish o‘rniga zo‘riqtirish, hech qanday maqsadsiz, tasodifan hayol surish, biror ish qilish uchun ish qilish

¹⁰ К.С.Станиславский “Актёрнинг ўз устида ишлаши” 80 б.

¹¹ К.С.Станиславский “Актёрнинг ўз устида ишлаши” 81 б.

mumkin emas. Tasavvur qilinayotgan hayotning aktivligi aktyor uchun katta ahamiyatga egadir. Tasavvurni turtib turishi, avval ichki, keyin tashqi harakatni vujudga keltirish lozim.

Tasavvurda aktyor ma'lum bir hayotiy tajribalariga va avtor bergan shart-sharoitlariga tayansa, fantaziyada esa undan ortiq, ya'ni bizni tasavvurimizga kirib chiqmaydigan va mumkin hamda mumkin bo'lmagan holatlarni sahnada gavdalandiradi. Estrada aktyorligi san'ati ta'lim yo'nalishi talabalarining estrada nomerlari ustida ishlash jarayonida biz aktyorlarni juda katta tasavvur va fantaziyaga boy ekanliklarini ko'ramiz. Estrada nomerlarini ishlash jarayonida sahnada dekoratsiya, kostyumlar va detallar o'rniga yagona sahnada aktyorning o'zi bo'ladi. U o'z tasavvur va fantaziyasi orqali tomoshabinni o'z dunyosiga olib kiradi. Sahnada aktyor o'z xatti-harakatlari orqali tomoshabinni goh dengizning tubiga, goh osmonlardan o'tib, bulutlar qariga yoki biz tasavvurimizga sig'maydigan, misli ko'rilmagan dunyolarga olib kirib ketadi. U o'zi bilan birgalikda bizni o'zi yaratgan dunyosida bizga bir dunyo shodlik ulashishga yoki bizni o'ylantirishga, fikrlashga undaydi. Bunday olib qarasangiz katta bir sahnada yolg'iz aktyorning o'zi turadi. Ustida birgina kostyum yoki detal bo'ladi holos. Lekin u o'z ijrosi bilan butun borliqni yaratadi. Bunga albatta uning boy tasavvur va fantaziyasi orqali amalga oshiriladi. Sahnada rol ijro qilish davrida aktyordan juda katta didni va tanlovni talab etadi. Har bir tasavvur va fantaziyani chegarasi bo'lgani kabi aktyordan tomoshabin oldida zo'rma-zo'raki kuldirish orqali o'zini jarlikka yetaklashi haqida ogohlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sayfullayev B.S., Mamatqosimov J.A. Aktyorlik mahorati. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012. – 388 b.
2. Stanislavskiy K.S. Aktyorning o'z ustida ishlashi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010. – 468 b.

Nilufar Ahmedova,

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti o‘qituvchisi

AMALIY MASHG‘ULOTLAR ORQALI TALABALARNING KASBIY MAHORATINI OSHIRISH

Annotatsiya: Maqolada bo‘lajak rejissyorlar va aktyorlarni tarbiyalash jarayonida amaliy mashg‘ulotlar orqali kasbiy mahoratni oshirish yo‘llari va afzalliklari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar. Aktyor, rejissyor, mahorat, mashg‘ulot, etyud, tasavvur, fantaziya, diqqat, omma, estrada, fikr.

**Нилюфар Ахмедова,
преподаватель Государственного института искусств и культуры
Узбекистана**

ПОВЫШЕНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ НАВЫКОВ СТУДЕНТОВ ПОСРЕДСТВОМ ПРАКТИЧЕСКИХ ЗАНЯТИЙ

Аннотация: В статье рассматриваются способы и преимущества повышения профессиональных навыков посредством практических занятий в процессе обучения будущих режиссёров и актёров.

Ключевые слова: Актёр, режиссёр, мастерство, обучение, учеба, воображение, фантазия, внимания, публика, разнообразия, мысль.

**Nilufar Akhmedova,
teacher at the State Institute of Arts and Culture of Uzbekistan**

IMPROVING STUDENTS' PROFESSIONAL SKILLS THROUGH PRACTICAL

Abstract: The article discusses the ways and benefits of improving professional skills through practical training in the process of training future directors and actors.

Keywords: Actor, director, skill, training, study, imagination, fantasy, attention, audience, diversity, thought.

Har bir talaba-rejissyorning o‘z individi, fikrlash qobiliyati, dunyoqarashi va fantaziyasi o‘ziga hos bo‘ladi. Aynan bir talaba tomonidan muvaffaqiyatli bajarilgan vazifa ikkinchi talabada kutilgan natijani bermasligi mumkin. Shuning uchun

pedagog talabalarning o'ziga hosligini o'rganib, ularning qobiliyatlaridan kelib chiqqan holda ish olib boradi.

Lekin shunday mashq va treninglar borki, ularni bevosita ko'pchilik bilan bajarilganda ijobiy natija beribgina qolmay, talabalarda bir ijrochi bilan sodir bo'layotgan hodisani rejissyor sifatida tashqaridan kuzatish va tahlil imkoniyati mavjud bo'ladi. O'ndan oshiq talaba tahsil oladigan rejissyorlik kurslarida ushbu trening-mashqlar ko'proq o'tkazilsa kutilgan natijaga erishiladi. Quyida nazarda tutilayotgan trening-mashqlarni misol qilib keltiramiz.

1. Jamoa uchga bo'linadi. Har bir talabani qo'liga qog'oz beriladi. Birinchi jamoaga mavzu beriladi. Jamoa a'zolari qog'ozda berilgan mavzuni ikkinchi jamoaga pantomima orqali tushuntirib beradi. Ikkinchi jamoa esa tushungan mavzusini uchinchi jamoa a'zolariga surat orqali chizib taqdim etadi. uchinchi jamoa tushungan mavzusini mavol orqali tasvirlab beradi.

2. Jamoa uchga bo'linadi. Har bir talabani qo'liga qog'oz beriladi. Birinchi jamoaga mavzu beriladi. Jamoa a'zolari qog'ozda berilgan mavzuni ikkinchi jamoaga pantomima orqali tushuntirib beradi. Ikkinchi jamoa esa tushungan mavzusini uchinchi jamoa a'zolariga surat orqali chizib taqdim etadi. uchinchi jamoa tushungan mavzusini mavol orqali tasvirlab beradi.

3. Diqqat mashqi. Talabalar shaxmat shaklida sahnada o'tirishadi. Ko'zlar yumuq. O'qituvchi tomonidan talabalarga xonani, ya'ni chiroqning ovozi, yonidagi talabani nafas olishi va shunga o'hshash xonadagi barcha ovozni his qilish va eshitish vazifasi beriladi. Vaqt tugagandan so'ng masofa kengaytirilgan holda koridorni diqqat bilan eshitish topshiriladi. Bu vaqtda xonadagi tovushlarga e'tibor qaratilmaydi. Koridor eshitib bo'lingandan so'ng vazifa xovli yoki ko'chaga o'tadi. mashq tugagandan so'ng har bir talabadan xonada, koridor va xovlida nimalar eshitgani haqida so'zlab berishi lozim.

4. Tasavvur mashqi. Talabalar bilan tanani qizdirish mashqlari tugagandan so'ng ular doira shaklida sahna bo'ylab harakatlanishadi. Harakat davomida pedagog tomonidan talabalarning sohilda, juda ham go'zal tabiat qo'ynida yurib ketayotganlarini tasavvur qilish vazifasi beriladi. Talabalar istasa ko'zlari yumuq

holda ham bajarishlari mumkin bo‘ladi. Mashq davomida vazifalar o‘zgartirib turiladi. Masalar, toqqa chiqish, tikanlar ustida yurish, shishalar ustida yurish, issiq asfaltda yoki issiq qumda yurish va h.k. talabalar mashq davomida to‘xtab qolmasliklari lozim. Va shu bilan birga aytilgan vazifani ko‘rsatib berish kerak emas. Buni faqat tasavvur qilishga harakat qilish kerak.

5. Ichki chaqiruv. Talabalar ikki jamoaga bo‘linishadi. Sahnaning ikki chetida bir birlariga parallel ravishda o‘tirishadi. Birinchi jamoadagi talabalar ikkinchi jamoadagi biror kursdoshini ko‘zlar yumuq holda ichki ovoz bilan chaqirishi lozim. Bunda tanlangan kursdoshini tasavvurida yoniga kelayotganini his qilish, u haqda ko‘p o‘ylay, uni tasavvurdagi baland ovozda chaqirish, qulog‘iga sekin pichirlab chaqirayotganini tasavvur qilish bilan chaqirish mumkin. Ikkinchi jamoa a‘zolari esa ko‘zlar yumuq qolda tasavvurda eshitishlari lozim. Bunda talaba hech narsani o‘ylamasdan ko‘zlar yumuq holda o‘tiradilar. Biroz vaqtdan so‘ng o‘qituvchining topshirig‘i bilan ko‘zlarini ochib, kim chaqirganligi haqida tahmin bo‘lsa, o‘sha talabaning yoniga borib qo‘l uzatadi. Talaba agar chaqirgan bo‘lsa qo‘lini beradi va o‘yindan chiqib ketishadi.

Rejissyorlik kursida tahsil olayotgan talaba avvalambor kuzatuvlar kundaligi tutishi lozim. Bu albatta talaba uchun uy vazifasi bo‘lib, uning pedagog bergan bilimlarini mustahkamlash va mustaqil izlanishi uchun zarur vosita hisoblanadi. Kundalikka talaba tomonidan bir sutka davomida u bilan bo‘lgan barcha qiziqarli voqea-hodisalar yozib boriladi. Kuzatuv daftariga erta tongdan institutga o‘qishga kelishi davomida avtobus, bekat yoki ko‘chada, shu bilan birga oliygohda uchratgan insonlarining holati, tashqi ko‘rinishi, plastika, mimika va jestlar va kiyinishigacha kuzatib tushirishi lozim.

Talaba ushbu vazifani bajarib borar ekan, kuzatuvlari davomida insonlar bilan duch kelgan katta yoki kichik voqeani tasvirlab yozishi lozim bo‘ladi. YA’ni, do‘konda, bozor yoki avtobusda, ko‘chada odamlar o‘rtasida uchrab turadigan voqea yoki xatti-harakatni, talaba tomonidan kuzatilayotgan qahramonning voqeaga nisbatan munosabati kundalikda aks ettirilishi lozim. Talaba voqeani to‘liq kuzatgandan so‘ng kundalikda aks ettirishi davomida kompozitsion ketma-ketlikka

e'tibor berishi lozim. YA'ni, voqeaning boshlanishi, o'rtasi va yakuni to'liq keltirilishi lozim. Shu bilan birga talaba o'ziga quyidagi savollarni beradi va javob yozadi: NIMA? QACHON? QAYERDA? Ushbu vazifa orqali talaba sekin-astalik bilan tasavvurdagi voqea-hodisa yoki o'ylaganlarini qog'ozga tushirishni o'rganadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. J.Mahmudov, X.Mahmudova. "Rejissura asoslari". T.: O'DSI bosmaxonasi. 2008.
2. Sayfullayev B., Mamatqosimov J. "Aktyorlik mahorati". Toshkent: Fan va texnologiya, 2012.
3. www.science-education.ru

Shahobiddin Ikramov,
Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти ўқитувчиси

NAVRO‘Z BAYRAMINING TURKIY HALQLAR HAYOTIDA TUTGAN O‘RNI

Annotatsiya: Ushbu maqolada Navro‘z bayramining paydo bo‘lishi va taraqqiyoti, buyuk allomalarimizning Navro‘z bayrami bilan bog‘liq qarashlari va Navro‘z bayramining hozirgi kundagi ahamiyati yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Navro‘z, bayram, koinot, tabiat, afsona, tomosha.

Шахобиддин Икрамов,
преподаватель Государственного института искусств и культуры
Узбекистана

РОЛЬ И МЕСТО «НАВРУЗА» В ЖИЗНИ ТЮРКСКИХ НАРОДОВ

Аннотация: В статье рассказывается о происхождении и развитии праздника “Навруз”, о взглядах наших великих ученых на данный феномен, о значении данного праздника в современном мире.

Ключевые слова: Навруз, праздник, вселенная, природа, легенда, спектакль.

Shahobiddin Ikramov,
Teacher at the State Institute of Arts and Culture of Uzbekistan

THE PLACE OF "NAVRUZ" IN THE LIFE OF TURKISH PEOPLES

Annotation: The article tells about the origin and development of the Navruz holiday, the views of our great scientists on this phenomenon, the significance of this holiday in the modern world.

Key words: Navruz, holiday, universe, nature, legend, performance.

Navro‘z tarixning eng qadimgi bayramlaridan biri hisoblanadi. Tarixiy manbalarda keltirilishicha Navro‘z, birinchi marotaba fors tilidagi manbalarda qayt etilgan bolib, tarixi minglab yillarga borib taqalgan an’anaviy bayramdir. “Navro‘z” so‘zi fors tilida “Yangi kun” degan ma’noni bildiradi. “Navro‘z”ning paydo bo‘lishi haqida ko‘plab afsonalar mavjud. Masalan, zardushtiylar davrida ezgulik xudosi Axuramazda (Hurmuz) bahor, yozda, yovuzlik xudosi Anxaramaynyu (Axriman) –

kuzda va qishda hukmronlik qiladi, degan qarash mavjud bo'lgan. Bahorning birinchi kunini ezgulik xudosi yovuzlik xudosi ustidan g'alaba qilgan muqaddas sana, deb bayram qilishgan. Bu sana "Navro'z" kuniga aynan to'g'ri kelgan.

Yana bir qadimiy afsonaga ko'ra, Odam Ato va Momo Havo ilk bor uchrashgan kun "Navro'z" bayrami deb tan olingan emish [1.B.8]. Tarixiy manbalar va olimlarimiz fikriga ko'ra, Navro'zning shakillanish davri eng qadimgi davirlardan "Zardushtiylikni" paydo bo'lishigacha davom etgan davrlarni o'z ichiga oladi.

O'zbek xalqining allomalaridan biri Abu Rayhon Beruniy "Qadimiy xalqlardan qolgan yodgorliklar" kitobida Quyosh yili hisobida yilning birinchi oyi deb sanalgan Farvardin oyi to'g'risida so'zlab: "Bu oyning birinchi kuni Navro'zdir, — deydi. Navro'z yilning birinchi kuni bo'lib, uning forscha nomi ham shu ma'noni anglatarkan. Navro'z eronliklar „zij“lari bo'yicha o'tmish zamonlarda, ular yillarini kabisali qilgan vaqtlarida Quyoshning Saraton burjiga kirish paytiga to'g'ri kelar edi. So'ngra u orqaga surilgach, bahorda keladigan bo'ldi. Endi u butun yil unga xizmat qiladigan bir vaqtda, ya'ni bahor yomg'irining birinchi tomchisi tushishidan, gullar ochilgan, daraxtlar gullashidan mevalari etilguncha, o'simlik unib chiqa boshlashdan takomillashguncha davom etgan vaqtda keladi. Shuning uchun Navro'z, olamning boshlanishi va yaratilishiga dalil qilingan deya izohlaydi [2. B.34].

Qadim-qadimdan Navro'z xolis niyatli kishilarning sevimli ayyomi bo'lib kelgan. O'sha kunlarda hatto urush-janjallar ham to'xtalgan, gina-qudratlar kechirib yuborilgan. Shohlar el ichidan eng munosib kishilarni taqdirlashgan, ayrim mahbuslarning gunohidan o'tishgan.

Firdavsiyning "Shohnoma"sida esa yangi yil yani Navro'zning paydo bo'lishi shoh Jamshid nomi bilan bog'lanadi. Jamshid odamlarga yaxshilik qilish maqsadida ularni kasbga o'rgatadi, temirni eritib qurol yasatadi, ip yigirtirib, kiyim to'qitadi, hammom, uy, saroylar bunyod qildiradi, tabiblik sirlarini ochadi, kema yasatadi, bog' barpo qildiradi. Nihoyat, Jamshidning ishlari gurkirab, meva bergan kunda

o‘ziga taxt yasatib, unda osongina ko‘tariladi. Bu “Shohnoma”da quyidagicha ta’riflanadi:

*Taxt ko‘kda charx urar misoli quyosh,
Farmondor o‘tirar, unda irg‘ab bosh.
Barcha jam, odamlar qarar taxtiga,
Jahon qoyil bo‘lib shukuh-baxtiga.
Jamshidga sochishar oltinu gavhar,
SHu kunni yangi yil – bayram deyishar.
Yil boshi Xurmuзу edi farvardin,
Dilda na g‘am qoldi, na adovat-kin.
Ulug‘lar shodlik-la bazm qurdilar,
YUzlarin cholg‘uga, moyga burdilar.*

Alisher Navoiy ham “Tarixi mulki ajam” nomli asarida Jamshidning buyuk kashfiyotlari so‘ngida ulug‘ Navro‘zni ixtiro qilganligini bayon qiladi. Navoiy yozishicha: “Jamshid “Chixil minor” nomli odamzod ko‘rmagan va aql bovar qilolmaydigan baland bino qurib...: “bu imorat tugandi, olam salotin va ashrov va ahborin yig‘ib, anda azim jashn qildi. Ul vaqtikim, quyosh nuqta e‘tiqodli rabiiyg‘a tahvil qilib erdi ul binoda taxt ustiga o‘ltirib, adolat sayt va sadosin olamg‘a muntashir qildi va ul kuni- ning otin navro‘z qo‘ydi”. [3.B.65-66].

Beruniy asarida keltirilgan afsona bo‘yicha ham Navro‘zning kelib chiqishi Jamshid shohga bog‘lanadi: “Jamshid o‘ziga arava yasab olgach, o‘sha kuni aravaga chiqib oldi, u havoga ko‘tarilib, bir kunda Dunbovan (Damovand tog‘i)dan Bobilga bordi. Odamlar bu ajoyib voqeani ko‘rgach, o‘sha kunni hayit qildilar va Jamshidning (arava uchishiga) taqlid qilib, arg‘imchoqlarga uchdilar”.

“Navro‘z”ning paydo bo‘lishi haqidagi bu kabi afsonalarni turlicha talqin qilish mumkin. Bir qancha tarixiy manbalarda Navro‘z bayrami fors halqlari tomonida o‘ylab topilgan deyilsada, bu bayramni Turkiy halqlar hayotida ham muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Yangi kunning kirib kelishi Onado‘li va Bolqonlardagi turklar, turkmanlar, tojiklar, o‘zbeklar, qirg‘izlar, qoraqolpoqlar,

qozoqlar, tatarlar, gruzinlar, ozarbayjonlar, afg'onlar va albanlar tomonidan nishonlanib kelingan.

Turkiy xalqlar tomonidan nishonlangan Navro'z bayramiga nazar tashlagudek bolsak qadim zamonlardan shakillanib kelgan madaniyatimizni, ishonchimizni, mifologiyamizni, afsonamizni, an'anamizni, urf-odatlarimizni o'z ichiga olgan jihatlarini ko'rishimiz mumkin.

Navro'z bayramining o'ziga hos marosimlari bordir. Navro'zda milliy taomlar tayyorlanib, katta dasturxonlar yozilib, atrofida barcha jamu-jam bo'lgan, tilaklar yozilib oqar suvlarga otilgan. Yahshi tushlar ko'rish uchun erta kunlab uyquga ketishgan.

Zamonlar o'tishi bilan Navro'z bayrami takomillashib, unga mos kun aniqlangan. U "yil boshi" sifatida belgilanib, unga "Navro'z" (ya'ni, "Yangi kun") degan nom berilgan, deb taxmin qilish mumkin. Mana shu tariqa Navro'z bayrami har yili 21 martda nishonlanib kelinadi. [3.B.67].

Bugungi kundagi Shimoliy yarim sharda yashagan turk dunyosini nazarda tutgudek bo'lsak Sharqiy Turkistondan tortib Bolqonlargacha davom etgan geografiyada Navro'z bayrami keng nishonlanib kelmoqda. Barchaning jamu-jam bo'lib yig'ilishi, olovdan sakrashi, tuxumlarning boyalishi, rang-barang kiyim-kechaklarning kiyilishi, yahshi niyat bilan tayyorlangan milliy taomlar ulardan bir namuna hisoblanadi.

Zamonlar o'tishi bilan Navro'z bayrami takomillashib, unga mos kun aniqlangan. U "yil boshi" sifatida belgilanib, unga "Navro'z" (ya'ni, "YAngi kun") degan nom berilgan, deb taxmin qilish mumkin. Mana shu tariqa Navro'z bayrami har yili 21 martda nishonlanib kelinadi. [3.B.67].

2009-yil 30-sentyabda Navro'z YUNESKO tarafidan nomoddiy madaniy meros ro'yxatiga kiritilgan, 2010-yil 23-fevralda esa BMT Bosh Assambleyasining 64-sessiyasida 21-mart "Xalqaro Navro'z Kuni" deb e'lon qilindi. Hali ham bu bayram davom etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbek xalqi bayramlari: Tuzuvchi F.Ro‘zieva. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2006.
2. Usmon Qoraboev. O‘zbek xalq bayramlari. – Toshkent: Sharq, 2002.
3. Ikramova N. Ommaviy bayramlar tarixi. – Toshkent: Yangi asr avlodi 2007.
4. Umar Xayyom. Navro‘znoma. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019.

Sohibjon VALIYEV,
O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti o‘qituvchisi

YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA TEATR MA‘NAVIY OMIL SIFATIDA

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy teatr san‘atining funksiyasi, uning ma‘naviy-madaniy va estetik ahamiyati tahlil qilingan bo‘lib, davlatimiz tomonidan teatr san‘ati taraqqiyoti uchun qilinayotgan ishlar yoritilgan. Mamlakat ma‘naviy taraqqiyoti uchun teatrlar tomonidan amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ishlar yuzasidan uslubiy tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: teatr, madaniyat, san‘at, ma‘naviy tarbiya, estetik tarbiya, ijodkor, ijodiy hamkorlik.

Сохиб Валиев,
преподаватель Государственного института искусств и культуры
Узбекистана

ТЕАТР КАК ДУХОВНЫЙ ФАКТОР РАЗВИТИЯ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА

Аннотация: В статье анализируется функция современного театрального искусства, его духовное, культурное и эстетическое значение, освещаются реформы в области культуры и искусства, даны методические рекомендации по развитию отрасли.

Ключевые слова: театр, культура, искусство, духовное воспитание, эстетическое воспитание, творчество, творческое сотрудничество.

Sohibjon VALIEV,
teacher at the State Institute of Arts and Culture of Uzbekistan

THEATRE AS A SPIRITUAL FACTOR IN THE DEVELOPMENT OF NEW UZBEKISTAN

Anntation: The article analyzes the function of modern theatrical art, its spiritual, cultural and aesthetic significance, highlights the reforms in the field of culture and art, gives guidelines for the development of the industry.

Key words: theater, culture, art, spiritual education, aesthetic education, creativity, creative cooperation.

Yangi O‘zbekistonning taraqqiy etishi va rivojlanishida ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-moliyaviy jabhalar qatori san‘at sohasining eng ommaviy va ta‘sirchan janrlaridan bo‘lmish teatr san‘ati ma‘naviy xarakter kasb etadi.

O‘zbek milliy teatri tarixan juda katta yo‘lni bosib o‘tgan bo‘lib, uning qadimiy ildizlari xalq o‘yin va tomoshalariga borib taqaladi. Zamonlar silsilasida teatr san‘at darajasiga ko‘tarilib, havoskorlikdan professional darajaga yuksaldi. Jumladan, XX asr boshlariga kelib o‘zbek teatr san‘ati davrlar sinovidan o‘tib kelayotgan an‘ana va tajribalar asosida vujudga kelgani va professional darajaga ko‘tarilganligini e‘tirof etish zarur.

O‘zbek teatri ijodkorlari tomonidan yaratilgan ko‘plab milliy ruhdagi sahna asarlari xorijiy mamlakatlarda ham muvaffaqiyat bilan ijro etilib, dunyo sahna san‘atining mumtoz namunalaridan joy olib borayotganligi tarixiy haqiqatdir.

Teatr san‘ati – milliy an‘analar va ma‘naviyatni tiklash, insonning madaniy-ma‘naviy va intellektual manfaatlarini ro‘yobga chiqarishda birlamchi ma‘naviy vosita bo‘lib, uning ijtimoiy-madaniy holati va taraqqiyotiga muhtaram Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev tomonidan katta e‘tibor berilmoqda.

Albatta, biz xalqimizning ma‘naviy kamol topishida madaniyat namoyandalarining ulkan xizmatlari borligini doimo minnatdorlik bilan e‘tirof etamiz. Yuksak ideallar yo‘lida fidoyilik ko‘rsatib yashash, o‘zligimizni anglash, g‘urur va iftixor, milliy manfaatlarimizni himoya qilish uchun bel bog‘lab maydonga chiqish – siz, ijod ahliga xos ezgu fazilat ekanini hammamiz yaxshi bilamiz va buni yuksak qadrlaymiz” [2, 4].

Mamlakat taraqqiyoti va ravnaqi yo‘lida olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2017-yil 7-fevralda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son farmoniga muvofiq barcha soha va tarmoqlar qatori san‘at sohasi jumladan, teatr san‘ati ravnaqini yangi bosqichga ko‘tarish vazifasi qayd etilgan [1].

2021-yil 20-yanvarda qabul qilingan “Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining

2017-yil 31-maydagi “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori, 2018-yil 26-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasida madaniyat va san’at sohasini innovatsion rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3920-sonli qarori, 2018-yil 28-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4038-sonli qarorlari bevosita teatr san’atidagi islohotlarning huquqiy asoslari hisoblanadi.

Shuningdek, teatrlarimiz moddiy texnik bazasini mustahkamlash, teatr ijodkorlarini moddiy rag‘batlantirish yuzasidan har bir teatrga “Do‘stlar klubi” orqali homiylik berilganligi soha ijodkorlariga yanada ilhom bag‘ishladi.

Ko‘rinib turibdiki, davlatimiz teatr san’ati rivoji uchun hech narsani ayamayapti. Lekin bu borada kutilgan natijaga erishilayaptimi? Teatrlarimiz shunga yarasha javob bera olyaptimi? Afsuski, bu savolga Respublikamizdagi ko‘pchilik teatrlar faoliyatidan ijobiy javob olish qiyin.

Xo‘sh, bu borada teatrning asosiy funksiyasi nima? Nimalarga e’tibor qaratish lozim...

Tarixdan ma’lumki, teatrning asosiy vazifasi bu insonlarning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish orqali ularga madaniy hordiq berish, estetik ta’sir ko‘rsatish va ma’naviy tarbiyalashdan iboratdir.

Hozirda ham mazkur vazifa teatrlarning bosh maqsadi bo‘lib, bu borada talaygina ishlar amalga oshirilmoqda. Lekin, zamon ruhiyati, ijtimoiy-madaniy vaziyat talablariga ko‘ra, teatr ideal g‘oyalar targ‘iboti masalasida bir oz sustlashgan.

Bu borada Muhtaram Prezidentimiz tomonidan bildirilgan quyidagilar fikrlar g‘oyat o‘rinlidir: “Aksariyat teatrlarimizning repertuarlari g‘oyaviy-badiiy jihatdan nochor, ulardan o‘rin olgan spektakllarda bugungi kun nafasi, odamlarni o‘ylantirayotgan, hayajonga solayotgan jiddiy ijtimoiy muammolar o‘z aksini topmayapti. Afsuski, teatrlarimiz ko‘proq maishiy mavzulardagi yengil-yelpi, bachkana asarlar, odamga na ma’naviy oziq, na estetik zavq beradigan tomoshalarni namoyish etishga o‘rganib qolgan. Hurmatli teatr arboblari o‘zlarining matbuot

va televideniyaedagi chiqishlarida ko‘pincha ma‘rifatparvar bobomiz Mahmudxo‘ja Behbudiyning **“Teatr – ibratxonadir”** degan hikmatli so‘zlarini keltirishni yaxshi ko‘radilar. Lekin mana shu dono so‘zlarni faqat og‘izda aytmasdan, o‘z faoliyatimizda ularga amal qilsak, ayni muddao bo‘lardi, deb o‘ylayman” [2, 5].

Teatrlar faoliyati orqali Yangi O‘zbekistonning ma‘naviy taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shish dolzarb masala bo‘lib, bu borada quyidagi ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- teatrlar repertuarini tanqidiy tahlil etish, milliy va jahon klassik asarlarini sahnalashtirish;

- “Teatr arboblari” ijodiy uyushmasining o‘rni va nufuzini yanada oshirish, tajribali san‘at menejerlarini taklif etish;

- teatrlarda produserlik lavozimini joriy etish;

- mavjud adabiy emakdoshlarning funksional faoliyatini isloh etish va takomillashtirish;

- badiiy kengashlar faoliyatini isloh etish va takomillashtirish;

- har bir teatr kesimida xorijlik mutaxassislar bilan ijodiy hamkorlikni takomillashtirish va tajriba almashish;

- kadrlar tayyorlash jarayoniga xorijiy tajribalarni tatbiq etish, malakaviy amaliyot jarayonini bevosita teatrlarda tashkil etish, fan va ishlab chiqarish o‘rtasidagi integratsiyani yanada mustahkamlash;

- mahalliy va xalqaro festivallarni tashkil etish, ishtirokchilar masshtabini kengaytirish, festivalning xalqaro statusini takomillashtirish.

Qayd etilgan tavsiyalar teatr san‘ati orqali insonlarga ma‘naviy-ma‘rifiy va estetik jihatdan ta‘sir ko‘rsatib, yetuklik, komillik va shaxsiy fazilatlarini estetik yuksaltirib, insonning qalbi va tafakkuriga bevosita ta‘sir o‘tkazib uning ma‘naviy ehtiyojlarini badiiy vositalar orqali yanada yuksaltirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha, harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-4947-son Farmon.

2. Mirziyoyev SH.M. Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir // O'zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma'ruzasi. Xalq so'zi. 2017-yil 4-avgust.

Izzatbek KURBANOV,
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti o‘qituvchisi

ESTRADA AKTYORLIGINING ZAMONAVIY SAN’ATDA

TUTGAN O‘RNI

Annotatsiya: Mazkur maqolada estrada janri va estrada aktyorining zamonaviy san’atda tutgan o‘rni haqida ma’lumot berilgan.

Tayanch so‘zlar: Aktyor, teatr, estrada san’ati, estrada aktyori, xoreografiya, qiziqchilik, miniatyura.

Иззатбек Курбанов,
преподаватель Государственного института искусств и культуры
Узбекистана

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ПРОФЕССИИ ЭСТРАДНОГО АКТЕРА В СОВРЕМЕННОМ ИСКУССТВЕ

Аннотация: В данной статье представлена информация об эстрадных жанрах, роли эстрадного актера в современном искусстве.

Ключевые слова: актер, театр, эстрадное искусство, эстрадный актер, хореография, любознательность, миниатюра.

Izzatbek Kurbanov,
teacher at the State Institute of Arts and Culture of Uzbekistan

VARIETY ACTOR IN CONTEMPORARY ART VENUE

Annotation: This article presents information about variety genres, the role of a variety actor in contemporary art.

Keywords: actor, theater, variety art, variety actor, choreography, curiosity, miniature.

*“Adabiyot, san’at va madaniyat yashasa,
millat va xalq, butun insoniyat bezavol yashaydi”*

Shavkat Mirziyoyev

Ilm-fan rivojlanishi bilan birga san’at ham ildam qadamlar bilan rivojlanib bormoqda. So‘ngi yillarda ko‘pgina san’at turlari bilan bir qatorda estrada san’atining ham yangi qirralari namoyish etilmoqda.

Hozirgi kunda o‘tkazilayotgan ommaviy tomoshalarni estrada aktyorlarining ishtirokisiz tasavvur qilish qiyin. Ayniqsa, san’at saroylarida o‘tkazilayotgan konsert dasturlarida, bayramlarga bag‘ishlangan televizion ko‘rsatuv va shou dasturlarida estrada aktyorlarining o‘ziga xos o‘rni bor.

Zamonaviy estrada san’atida, o‘ziga xos yangi mazmunga ega bo‘lgan turli konstruksiyadagi shakllarni, ta’sirchan vositalarga boy nomerlarni yaratish talab etiladi. Ayniqsa, amaliyotda rejissyorlar tomonidan, turli janrlar sintezi yordamida yaratiladigan original janrdagi nomerlar o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Bunday sintezlash, nomerlarni “gibridlashtirish” deb ataladi. Bunday sintezlash faqatgina estrada nomerinigina emas, balki estrada san’ati rivojiga unumli ta’sir ko‘rsatadi.

Nomer – estrada san’ati asosi. “Estrada, - deydi A.Anastasev, - badiiy hayotni mohiyatan aks ettirishi va shaklan mavjudligi bilan farq qiladi, agar teatrdan bu spektakl bo‘lsa, estradada – bu nomer hisoblanadi” [1, 8]. Ta’kidlash joizki, “nomer” tushunchasi turli shakllarda talqin qilinadi va ularning har biri o‘z mohiyatiga ega.

Estrada nomerlari o‘zining ichki asosi bo‘yicha bir-biridan farq qiladi. Bu farq quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- janr xususiyati;
- nomerni yaratishda shartlilik darajasi;
- artistning partnyorlari va tomoshabinlar bilan muloqoti tabiatida.

Yurtimizda o‘z ijodlari bilan mashhur bo‘lgan qiziqchilar Yusufjon qiziq, R.Hamroqulov, X.Tojiboyev, minatyura ustalari E.Karimov, X.Yo‘ldoshev, mashhur qo‘shiqchi B.Zokirovlar estrada san’atini ommalashib, shakllanishiga katta hissa qo‘shganlar.

Yaqin kunlargacha estradani badiiy ijod turlari tizimidagi teng san’at emas deb, nazarga ilmaslik g‘oyalari shakllangan edi. Bunga estrada san’atining nazariy asoslari to‘liq ishlab chiqilmaganligi sabab bo‘ldi. Estradada tizim birligining yo‘qligi, o‘z badiiy tili bilan bir-biridan farqlanuvchi san’atning turli turlari, vositalari ham bunday g‘oyalarni paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi.

YE.Uvarova, A.Alekseyev, S.Klitin, N.Konchalovskiy, A.Menaker kabi olimlar estrada san’atining nazariy asoslarini ilmiy jihatdan tahlil qildilar. Estrada

san'ati tanqidchilari va nazariyotchilari o'z izlanishlarida estrada san'atining xususiyatlarini to'liq tahlil qildilar [2, 16].

Estrada nomeri bu - har doim (birinchi navbatda) aniq aktyorning ijrosidir. Har qanday sahna san'ati kabi, nomerlarni muallif, kompozitor, rassom va boshqalar yaratishadi. Lekin uzil-kesil nomer aktyor tomonidan ijro etiladi. Estrada nomerida aktyor - uning asosi, ildizidir. Agar teatrdan oldin pyesa yaratilib, so'ng uni aktyorlar ijro etishsa, estradada esa oldin aktyor, so'ng nomer paydo bo'ladi. Nomer va aktyor bir-biridan ajralmasdir. Teatrdan bitta pyessani turli teatrlar qo'yishi mumkin. Hatto bitta teatrdan, bitta spektaklda, bitta rolni navbat bilan bir nechta aktyorlar ijro etishi mumkin. Estrada nomeri esa - umuman boshqacha. Unda aktyor nomeri shaxsiylashtiriladi. Masalan, X.Tojiboyev, O.Asomov, M.Xolmedov nomeri, B.Zokirov, O.Nazarbekov qo'shig'i kabi. Bu ijodkorlar ijro etgan nomerlarini boshqa kishi bilan almashtirib bo'lmaydi.

Estrada miniatyurasi, qo'shiq, raqs, monolog bir necha daqiqagina davom etadi, o'zining badiiy imkoniyatiga ko'ra ular estrada nomerining talablariga to'liq javob beradi. Bunday nomerlar o'z badiiyligiga ega bo'lib g'oyaviy tugallangan bo'ladi.

Tamoshabin estrada konserti yoki spektaklidan, har bir nomer va epizodda ijrochidan qandaydir yangilik, syujetning keskin o'zgarishini kutadi. Aktyor tamoshabinning oldida bor mahoratini ishga solib, individual imkoniyatini namoyish etish olishi lozim [2, 10].

Estrada aktyori, akademik plandagi konsert ijrochisidan ko'plab professional bilimlarga ega bo'lishi bilan, bir qancha san'at turlarining tutashgan joyida bo'la olishi bilan farqlanadi. Shu bilan u tomoshabinlarni o'ziga jalb qilib, o'zining "universalligi" bilan ijobiy emotsiyalarni uyg'ota oladi.

Bayramonalikni, tashqi tamoshaviylik orqali his etish mumkin. Bunday bezaklarni ko'pincha myuzik-xoll tomoshalarida chiroqlarning o'ynashi, xushmanzara "zadnik"larni o'zgarishi, tomoshabin ko'z oldida sahna maydoni shaklining o'zgarishini ko'rish mumkin.

Estradadagi aktyor ijrosining xarakteri ham yorqinlikka talpinadi. Mashhur rejissyor G.Tovstonogov “Artist Lebedev” baliqchi degan xrestomatik nomer ustida ishlayabdi. Agar bu etyud ustida A.Raykin ishlasachi? U sifat jihatdan o‘zgaradimi? Albatta estrada artistida u qisqa bo‘lib, ta’sirli bo‘ladi, dramatik artistda esa, u batafsil va ishonchli bo‘ladi - deb yozadi [3, 188].

Zamonaviy o‘zbek estradasida aktyor qanday nomerni ijro qilishidan qat’iy nazar, adabiy materialning dolzarbligini, xalqqa yaqinligini, badiiy jihatidan mukammaligini, hisobga olishi kerak. Ayniqsa ba’zi qiziqchilarning tomoshabinni kuldiram bo‘ldi qabilidagi chiqishlarida ijro qilayotgan materiallarning saviyasi pastligi chuqur ma’no, xarakteri, tarbiyaviy ahamiyati yo‘qligi tomoshabinning g‘ashiga tegadi.

Shundan kelib chiqib zamonaviy estrada aktyori quyidagi mezonlarga amal qilishi kerak:

- kechinma muammosiga turlicha yondashish;
- tomoshabin zali bilan ijodiy muloqot qila olish spetsifikasi;
- materialning o‘ziga xosligi;
- obrazga kira olish va undan chiqa olish mahorati;
- aktyor tomonidan tomosha zalida kerakli bo‘lgan muhitni yarata olishi;
- paradoksal fikr qilishda, yumorni yuqori sezish qobiliyati;
- sahnaviy vaqtni aniq sezish;
- estetik estrada nomerining qonuniyatlarini bilish.

Yuqorida aytib o‘tilgan estradaning spetsifikasini ta’lim jarayonidagina amalga oshirish va talabalarni ijodkorlikka o‘rgatish lozim. Ijodkor ma’lum janrda, o‘zining fikr qilish qobiliyati orqali, o‘zining takrorlanmas badiiy qonuniyatlari bilan ish olib borishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Анастасьев А. Эстрадное искусство и его специфика // Русская советская эстрада. 1917-1929 М., 1976. - с. 178.
2. Клитин С.С. Эстрада. Л.: Искусство, 1989. - с. 148.
3. Товстоногов Г. Зеркало сцены. Л.: Искусство, 1984, - с. 242.

Кристина Савченко,
преподаватель кафедры «Искусство эстрады и массовых представлений
Государственного института искусств и культуры Узбекистана

РЕЖИССЁРСКИЙ ПОИСК И ВСКРЫТИЕ ДЕЙСТВЕННЫХ ЛЕЙТМОТИВОВ В РИТМИЧЕСКОЙ ПАРТИТУРЕ ЧЕХОВСКОЙ ДРАМЫ

Аннотация: проблема вскрытия действенных звучащих лейтмотивов, которые по тонкости чутья необходимо найти, почувствовать, «вскрыть», а, временами, вообразить – главная проблема, стоящая перед современными режиссёрами, имеющими дело с постановкой драм Чехова на современной сцене. Имманентное природе музыки сочетание культурной и онтологической функций в чеховских пьесах обуславливает продуктивность использования ритмических категорий для воссоздания архитектоники и атмосферности как всецелого зрительского восприятия мира. Какие режиссёрские концепции воплощения ритма используются в современной сценографии, какой ритмический язык избирается для сценического воплощения события, которое «дышит», «молчит» и «звучит», какую «партитуру скуки» необходимо создать на сцене, чтобы полностью отразить метафизику чеховского бытия, но при этом не заставить скучать зрителя? Эти проблемы подробно исследуются в статье, рассматриваются методы и способы выявления макро и микроритма постановки, воссоздания на сцене ритма самой поэтической системы А.П.Чехова.

Ключевые слова: режиссёр, лейтмотив, ритм, драма, театр, спектакль

Kristina Savchenko,
teacher at the State Institute of Arts and Culture of Uzbekistan

DIRECTOR'S SEARCH AND OPENING OF EFFECTIVE LEITMOTIVES IN THE RHYTHMIC SCORE OF CHEKHOV'S DRAMA

Annotation: the problem of opening effective sounding leitmotifs, which, by the subtlety of intuition, it is necessary to find, feel, "open", and, at times, imagine, is the main problem facing modern directors dealing with the staging of Chekhov's dramas on the modern stage. Immanent to the nature of music, the combination of cultural and ontological functions in Chekhov's plays determines the productivity of using rhythmic categories to recreate architectonics and atmospherics as a whole spectator's perception of the world. What directorial concepts of rhythm embodiment are used in modern scenography, what rhythmic language is chosen for the stage embodiment of an event that "breathes", "is silent" and "sounds", what "score of boredom" must be created on stage in order to fully reflect the metaphysics of Chekhov's being, but not to make the viewer bored? These problems are investigated in detail in the article, methods and methods of identifying

the macro and microrhythm of staging, recreating the rhythm of the poetic system of A.P.Chekhov on stage are considered.

Keywords: director, leitmotif, rhythm, drama, theater, performance

А.П. Чехова поистине можно назвать новатором в сочинении собственной поэтической системы, свойственной роду особой психологической драмы. В саму «ткань» этой системы вплетается уникальная ритмическая составляющая, которая выражается в конкретных временных и звуковых лейтмотивах. Проблемы понимания ритмической структуры «чеховианы» в современном театре предполагает онтологические представления, характеризующими пространство, время, место человека в мире, отраженные в произведении. При этом, воплощая на сцене данную систему, режиссёр должен понимать, что здесь не работает сложенная система классической драмы, так как Чехов создал не «драму в жизни, а драму самой жизни»; следовательно, ритмическая партитура «чеховианы» требует специфической сценографии и определённых условий сцены.

"Вера в жизнь - это ж не философия, монпасье" - характерная чеховская шутка; именно Чехов описал это состояние, вывел его трагифарсовую формулу, создал в разных ракурсах портрет русского ноющего депрессивного интеллигентного человека, который не знает, что ему делать и просит, как больной, испробовавший все лекарства, дать ему чего-нибудь кисленького. Еще сам Станиславский на репетициях «Чайки» призывал анализировать чеховскую пьесу этюдными методами, чтобы вспомнить жизнь, брать материал из своей аффективной памяти. Таким образом, каждый режиссёр, имея дело со сценографией Чехова, сталкивается с задачей соотнесения ритма искусства с бытовой жизнью. «Страдание, - писал Чехов, - выражать надо так, как они выражаются в жизни, то есть не ногами и не руками, а тоном, взглядом; не жестикующей, а грацией». [1, с.72]

Проблема отсутствия в драме Чехова кульминационных пиков развития событий, где структура сюжета образует своеобразные витки, и действие развивается как бы по спирали, представляет проблематичность с точки

воплощения её ритмической организации: поскольку нет изменений, значит, нет движения (развития), нет и ритма. Здесь режиссер должен избрать за архитектонику, ритмический «центр» всего произведения лирико-эмоциональную природу чеховских драм, в которых сокрыта внутренняя жизнь душевного состояния героев, ее «кипучесть», напряжённость, динамика, и изменения.

«Внутренний переворот в душе героя - главное событие, раскрывающее наивысшую степень драматизма. Событием у Чехова является любая перемена чувств и настроения героев» [2, с.25]. Таким образом, мы понимаем, что атмосфера лиризма – этот тот скреп, на котором держится вся ритмическая организация чеховских драм.

Сочиняя ритмическую ткань современной партитуры, мы должны принять во внимание, что для «чеховианы» характерны открытые финалы; в ритмическом понимании, это временная организация, где нет начала, середины и конца: она существует как серия чистых констант, поток вибрирующей звуковой материи, калейдоскоп идей, знаков, ассоциаций. Открытое произведение отражает открытое сознание современного человека, его способность оценивать и воспринимать классическую драму с позиции современной динамики жизни. Единения статики с активным движением в полную величину, координацию звука и жеста, сочетание внутренней энергетической наполненности души и глубокой опустошающей скорби- всё это ведёт к момент-форме. Момент-форма особо характерна для отражения чеховской концепции времени, в котором прошлое, настоящее и будущее сливаются в одно мгновение. Непростая задача с режиссёрской точки зрения, связанной и с работой драматурга, но вынуждена, порой, принять отказ от трёх первооснов - места, времени, действия, заставляя зрителя тем самым дорисовывать черты воображаемого закулисного пространства, упоминание о котором мы находим в диалогах действующих лиц. «Место действия, не показанное на сцене, зритель чеховской пьесы видит благодаря своей фантазии, разбуженной диалогом театральных героев». [3, с.96]

Отметим, что традиционное сценическое время в пьесе всегда размыто: настоящее является основной точкой отсчета жизни героев, (лессировочный слой сквозь который проступает безвозвратное прошлое, а сверх накладывается счастливое «мечтаемое» будущее). При помощи верно воссозданного ритма раскрываются те грани сценического действия, которые не могут быть переданы словесно. Ощущение тревоги и бессмысленности существования героев передается и переводится именно при помощи ритма в пласт вечности. Тем не менее, новый зритель требует новаторские решения, дабы воспринимать классику современным взглядом, с обновлёнными ресурсами, соответствующим динамике и темпо-ритму сегодняшнего дня. Осуществление ритмического контраста: переход от пустоты – к наполненности, от статичного безмолвия мизансцен - к движению очень эффективно для воплощения в современном динамичном пространстве с «кипучестью» жизни, для отождествления круга Героям Чехова близка музыка. Отсюда каждый режиссёр, прежде всего, должен чётко представлять, как будет звучать его постановка. Достаточно вспомнить желание Елена Андреевны играть на фортепиано, Андрей играет на скрипке, где-то далеко играют на арфе и скрипке бродячие музыканты или Тузенбах наигрывает на пианино; за сценой играют на гармонике; поет нянька, укачивая ребенка; Федотик и Родэ напевают тихо, наигрывая на гитаре; в доме звучит на рояле «Молитва девы». Звук «лопнувшей струны» -это уже популярный, классический звуковой лейтмотив, качующий из одной постановки в другую и символизирующий монотонность жизни, и, натянутый как струна, ее «оголенный нерв». Даже речь самих героев не лишена музыкальности, и по своему размеру ритмического устройства напоминает систему стихосложения. Повторение «осевших» на язык героев фраз, таких как «все равно» [22 раза повторены в тексте], “Тарара-бумбия...” «Если бы знать», «У лукоморья дуб зелёный», «Холодно, холодно холодно. Пусто, пусто, пусто. Страшно, страшно, страшно...» можно сделать акцентными. Добавляются сюда синтез звуковых или символических лейтмотивы, такие как «лейтмотив

свиста Маши»» «лейтмотив головной боли» «лейтмотив стука пальцев». Отсюда мы понимаем все зрелище складывается из лейтмотивов, в котором ритм ведет действие и служит элементом всецелого восприятия мира. Тем самым, возникает пространственный контраст понимания мировой «души», бесконечного течения жизни. «Как возникает ритм, интонация ответить сложно. Это вопрос средств выражения, что особенно разительно отличает одного писателя от другого... Невыносимо трудно нащупать нужную интонацию вещи, ритм; но без этого не стоит писать: все будет сухо, добротное, но с тупыми нервами» [4, с.8].

Следует принять во внимание, что чеховские герои удивительным образом вписаны в атмосферные пейзажи. Если подвергнуть художественному анализу чеховское событие в пьесе, то можно проследить, в какой огромной зависимости находится оно от того, моросит ли дождь («важный дождик»), встаёт или садится солнце («с точки зрения заката»), дует ли ветер («окно настезь и душа настезь»). Пейзажи отражают художественно-эстетические категории спектакля, его атмосферность, выраженную алеаторикой при помощи ритмической импровизации, где элементы композиции четко обусловлены алгоритмом (ритм, тембр, гармония) и создают неподражаемый ритмический рисунок чеховской драмы.

Сам Станиславский сочинял для постановки своей «Чайки» «партитуру скуки», домысливая, развивая поэтическую систему Чехова своим собственным видением. Партитура состояла из удивительного многообразия тончайших звуков и их полутонов, таких, как метрономное тиканье часов, отзвук рожка и церковного колокола местной церквушки, заводная песня пьяницы, разносящаяся где-то вдали, вой привязанных цепных собак, писк тучных комаров вблизи холодной воды, плескание в воде лягушек и вечерний гомон птиц.

Парадокс событий пьес Чехова заключен в том, что чаще они движутся вперед паузами, тишиной, а высшие «пиковые» моменты развития действия происходят в молчании. Пауза в пьесе выполняет свою ритмическую функцию

-акцентирования внимания на событии, моменте ожидания, фокусе зрительского предвосхищения будущих событий. Пауза выражает определенный ритм драматического действия, его возрастающий или затухающий темп, и, является, таким образом, точкой ритмической концентрации; зритель должен слышать музыку тишины, лишь тогда роль паузы станет явной, лишь тогда произведение будет понятно именно так, как его задумал автор.

Что касается постановок современной «чеховианы» на сцене Узбекистана, интересна сценография Заслуженного деятеля искусств Узбекистана - В. Шапиро, осуществившего по мотивам пьесы «Дядя Ваня» в ГАРДТУз постановку «Чехов. Осень. Сцены» (2015 г.). В.Шапиро, прежде всего, интерпретировал в постановке поэтическую тишину, как парадоксальное вместилище звуков, которые сами по себе не звучат. Эстетика осенней тишины также передаёт ощущение зрителю, что музыка амбивалентно растворяется в самой тишине. Применяя свою интерпретацию атмосферности, Шапиро создает композицию, в которой доминируют сложные акустические массы, имеющие сильный тональный центр. У зрителя то и дело происходит воображение звука, якобы раздающегося из сада с пышными осенними розами, или из комнаты с фортепиано, на котором страстно хочет играть Елена Андреевна. В. Шапиро чётко передаёт внутреннее ритмическое напряжение у героев, как знаменитая натянутая струна; а «ломка инструмента» является следствием того, что старые формы себя исчерпали.

В «Чехов. Осень. Сцены» с первых минут звучит характерная чеховская камерная интонация, которая органично воссоздаёт тот самый размеренный темп жизни русской интеллигенции, в котором живут герои пьесы. Старая няня, которая большую часть времени молчит и вяжет, перекачиваясь, по траектории маятника в своём старом кресле туда и обратно, будто задает ритм жизни, которая течет здесь размеренно, но бессмысленно. По символике кресло-качалку можно сравнить с метрономом, отстукивающим

каждую секунду существования и доводящего всех героев до хронической мигрени.

На восприятие ритма в сценографии Шапиро действуют и багровые осенние краски декораций, и деревянная кадучка с дождевой водой, и дымящийся русский самовар на переднем плане, который уже давно «дожидается» Серебрякова, и занавешенные легкой светлой шторой окна, в которые проникает скупой солнечный дневной свет. К ночи занавески раздувают во все стороны гулкие раскаты ветра, а в окнах раздаются шумы и отзвуки «важный дождика» : брызги дождя внезапно обновляют природу и размеренную жизнь обитателей усадьбы.

В финале, в то время как Дядя Ваня делает хозрасчёты под щелчки старых счет, мы слышим за окнами стрекот сверчков и звон бубенцов удаляющегося экипажа с действующими героями, а где-то «вдалеке» периодически и ненавязчиво звучит вальсовый мотив на три четверти такта в минорной тональности, на который ложится весь Сонин монолог. Ритм спектакля все время строится на переключке большого и малого, бытийного и бытового и даже комичного, где Чехов, казалось сам даёт «подножку» своим героям, делая их роднее и понятнее.

Таким образом режиссёру, как главному художнику сцены, необходимо воссоздать атмосферу поэтической системы Чехова, найти духовную опору в этой разреженной ритмической стихии. В первую очередь, необходимо ориентироваться на ритм чеховской драмы как на внутреннюю «пульсацию» мыслей и чувств персонажей, отчего зависят изменения в мире внешнем.

Мы выяснили что макроритм чеховской драмы, который имеет сугубо важно «детальное» значение для сценографии, сокрыт в художественном облике «звучащих» пейзажей, в которые вписаны чеховские герои, в многократном повторении героями одних и тех же фраз, в музыкальности их речи, в амбивалентной тишине, вмещающей множество звуков.

Чехов поэтизировал композицию драмы, он придал ей черты, сходные поэтико-музыкальным структурам, а глубокий лиризм чеховской драмы,

главным образом, является результатом ее стройной ритмической структуры. Задачей каждого режиссёра, таким образом, является воссоздание в сценографии партитуры, которая будет ведущим ритмическим центром чеховской драмы, звеном и лейтмотивом, от которого отталкиваются все события пьесы.

Список литературы:

1. Есин А. Б. Психологизм русской классической литературы. М., 1988.
2. Стеценко Е.А. Ритмическая композиция художественного произведения // Контекст - 1988. Литературно-теоретические исследования. - М.: Наука, 1989.
3. Строева М. Работа В.И. Немировича-Данченко над спектаклем «Три сестры» // Театр. № 7.1954
4. Бондарев Ю.В. Хранители ценностей. - М.: Правда, 1987.

Oybek Tohirov,
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti o‘qituvchisi

SAHNA NUTQI FANINING NAZARIY ASOSLARI

Аннотация: Мақолада саҳна нутқи фанининг назарий асосларини, тарихи, ўқитиш услубларини ўрганиш орқали режиссёр ва актёрларни ўқитиш жараёнида амалиётда қўллаш масалаларининг долзарблиги кўриб чиқилган.

Калит сўзлар: саҳна, нутқ, назария, актёр, режиссёр, жараён, услуб.

Ойбек Тохилов,
преподаватель Государственного института искусств и культуры
Узбекистана

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ СЦЕНИЧЕСКОЙ РЕЧИ

Аннотация: В статье рассматриваются актуальные вопросы обучения режиссёров и актёров путем изучения теоретических основ, истории, методики преподавания сценической речи.

Ключевые слова: сцена, речь, теория, актёр, режиссер, процесс, метод

Oybek Tohirov,
teacher at the State Institute of Arts and Culture of Uzbekistan

THEORETICAL BASIS OF STAGE SPEECH SCIENCE

Annotation: The article deals with topical issues of training directors and actors by studying the theoretical foundations, history, methods of teaching stage speech.

Keywords: scene, speech, theory, actor, director, process, method.

Insoniy taraqqiyot mezonining ifodaviy tayanch vositalaridan biri jonli so‘zning azaliy va abadiy aql idroq, his tuyg‘u, muomala va munosabatimizning qudratli hamda ta’sirchan omillaridan biri ekanligi ma’lum. Ijtimoiy hayotning hamma jarayonlarida, shaxs va jamiyat munosabatlarida, komillikka intilgan har bir insonning tafakkuri, tasavvuri, dunyoqarashining yuksalishida ta’lim-tarbiya, ma’naviyat va ma’rifatning tengsiz, ta’sirchan ahamiyati hamda vazifalarining amalga oshishida tilimiz, zabonimiz, nutqimizning hizmatlari beqiyosdir.

Jumladan, qomusiy olim Kaykovus “Hunarlar ichida eng ulug‘i nutq hunaridir”, deydi. XX-asrning taniqli jamoat arboblardan biri Federiko Mayyor “Jahonda tehnikaning tengsiz taraqqiyoti va qudrati asrida, XXI-asr tengsiz darajada qudratli qurol, kuchni so‘z bilan almashtiradigan asr bo‘lishi lozim”, deydi.

Inson o‘z fikrini so‘z orqali ifoda etadi. So‘z aniq bir maqsadga yo‘nalsa, aniq talaffuzga erishilsa, insonlarning bir-biri bilan yaqinlashuviga, o‘zaro bir-birlarini tushunishiga olib keladi. Nutq teatr san‘atining barcha jabhalarida, televideniye va radioda muhim o‘rin egallaydi. Sahna nutqi esa teatr sahnasi uchundir. Teatr sahnasidan eshitilayotgan aktyorning nutqi aniq va ravon, ma‘lum bir g‘oyani o‘zida ifodalovchi, o‘z maqsadiga ega bo‘lishi shart. Ana shunday vazifani bajaruvchi fan bu «Sahna nutqi» fanidir.

“Sahna nutqi” fani teatr san‘atining asosiy o‘zak fanlaridan hisoblanib, o‘z obyekti va predmeti, maqsad va vazifalariga ega to‘laqonli mustaqil fandır. “Sahna nutqi” faning nazariyasi, rivojlanish tarixi, metodologiyasi, o‘qitish metodologiyasi mavjud bo‘lib, bu jarayonda Nazira Aliyeva, Lola Xo‘jayeva, Sotimxon Inomxo‘jayev, Abdirahim Sayfiddinov, Inoyatilla Po‘latov, Afted Murotovalarning mehnati kattadir.

Teatr san‘atining aktyorlik jabhasida sahna nutqining tutgan o‘rni beqiyosdir. Sahna nutqi faniga nafaqat nutq o‘qituvchilari, kezi kelganda rejissyor va aktyorlar ham jiddiy e‘tibor qaratmog‘i lozim. Mannon Uyg‘ur, Toshxo‘ja Xo‘jayev, Yetim Bobojonov, Shukur Burxonov, Abror Xidoyatov va shu kabi buyuk va so‘nmas rejissyor va aktyorlarning sahna tiliga bo‘lgan e‘tibori sabab bu fan amaliy jihatdan taraqqiy etdi.

O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat institutining “Sahna nutqi” kafedrasi sahnaviy nutq va so‘z san‘atining ilmiy nazariy hamda amaliy ijro mezonlarini rivojlanishiga salmoqli hissa qo‘shib kelayotgan ijodiy dargohlaridan biridir. Kafedra o‘zining 70 yildan ortiq faoliyat jarayonida “Sahna nutqi” ta‘limi yo‘nalishida ko‘plab risolalar, qo‘llanmalar yaratdi.

Jumladan, S.Inomxo‘jayevning “Badiiy o‘qish asoslari”, A.Sayfuddinov “Adabiy asar va ijrochilik mahorati”, N.Aliyeva “San‘atdagi hayotim”, I.Po‘latov

“Sahna nutqi”, Z.Olimjonova, A.To‘laganov “Sahna nutqi”, Z.Bobonazarova “Sahna nutqi”, A.To‘laganov “She’riy asarlar ijro mahorati”, M.Isroilov “Monologlar ustida ishlash”, G.Holiqulova “Sahna nutqi”, X.Djuldiqorayeva “Lola Xo‘jayeva nutq bilimdoni”, Lola Xo‘jayeva “Notiqlik san’ati”, A.Nosirova “Sahna nutqi”, “Jonli so‘z san’ati asoslari”, S.Inomxo‘jayev “O‘tmish Sharq notiqligi”, I.Jumanov “Sahna nutqi”, M.Xojimatova “Sahna nutqi” kabilardir.

Sahna nutqi fani jonli ijrochilik maktabiga asoslanmog‘i kerak. Bu maktab yillar zamirida shakllangan va teatr san‘atiga solmoqli hissa qo‘shgandir. Ana shunday sahnaviy nutq maktabini yaratgan M.Uyg‘ur, A.Xidoyatov, O.Xo‘jayev, SH.Burxon, S.Eshonto‘rayeva, L.Sarimsoqova R.Xamrayev, X.Umarov, M.Xamidov, Q.Maqsunov, N.Aliyeva, Lola Xo‘jayeva, A.Sayfutdinov, I.Po‘latov S.Inomxo‘jayevlar va ular maktabini davomchilari M.Isroilov, Z.Olimjonova, A.Nasirova, xozirda I.Jumanov, R.Qodirov, SH.Yusupov, M.Xodjimatova, G.Xalikulova, X.Juldikarayeva, B.Magdiyev, U.Ibragimova, N.Karimboyeva, D.Umarova, D.Jumanova va boshqalar ushbu murabbiylik faoliyatini davom ettirib kelmoqdalar.

Ma‘lumki, o‘zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o‘rtasidagi ruhiy-ma‘naviy bog‘liqlik til orqali namoyon bo‘ladi. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili – bu millatning ruhidir¹².

Aktyor o‘z roli so‘zlarini ijod qilar ekan, partnyorining aynan qaysi jihatiga, ya‘ni ongi, tasavvuri va yoxud xisiotidan qaysi biriga ta‘sir etishni maqsad qilganligini aniqlab olishi kerak. Partnyorining biror-bir jihatiga ta‘sir etish maqsadi aniqlab olingach aktyor o‘z nutqining mantiqli, ishonchli va ta‘sirchan chiqishi uchun intilishi kerak.

Mazkur vazifalar orasidan eng muhimi va qo‘shimcha ikkinchi darajalilarini belgilab olgach aktyor har bir so‘zning boshqa bir so‘zdan ma‘nosi, maqsadi jihatidan farqi va muhimligini o‘rganishi birmuncha osonroq kechadi. Bu esa o‘z

¹² Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma‘naviyat, 2008. – B. 83.

navbatida aktyor uchun ohang va urg'ulardan to'g'ri foydalanish imkoniyatini yaratadi. Ushbu fikrlar yuqorida keltirib o'tganimiz aktyorning nutqdan foydalanish borasidagi birlamchi vazifaning muhim va kerakli ekanini isbot etadi.

Sahna nutqi kafedrası dotsenti, ustoz R.Qodirov ham aynan so'zning birlamchi ekanligini, u aniq va ravon bo'lmas ekan ko'zlangan natijaga erishib bo'lmasligini dars jarayonlarida ko'p bora ta'kidlab o'tgan. Shuningdek yaxshi nutq egasining nafasi to'g'ri bo'lishi zarurdir deydilar. So'z insonning yuzi hisoblanadi. Ovoz kuchini tashkil etish hamda nutqni tinglovchiga yetkazishda nafas vosita vazifasini bajaradi. Shu bois nafas olishni to'g'ri yo'lga qo'yish va chiniqtirish, ovozni jarangdor bo'lishiga va jummalarni mantiqan yaxlit, o'zaro uzviy bog'liq holda talaffuz etishda muxim rol o'ynaydi.

Nafas olish turlari uch xil bo'lib, ular ko'krak, qorin (o'rta) va diafragmal nafas turlariga bo'linadi. Nafas olishni to'g'ri yo'lga qo'yish uchun muntazam mashqlar qilinadi. Nafas olish turlarining sahna nutqida qo'llaniladigani turi diafragmal nafasdir. Nafas to'g'ri bo'lsagina, sahna aktyori ijroni to'g'ri bajaradi. Soatlab so'zlasa ham uning ovozlari zarur yetmaydi. Ba'zi aktyorlar ijrosi sahna nutqi talablariga amal qilmaslik qusurlaridan holi emas.

Har bir harakat, holat zamirida maqsad bo'lmasa, bunday ijro inqirozga yuz tutadi. Chunki, maqsadsiz ijro tomoshabinlarda e'tiborsizlik paydo qiladi. Bu borada Shekspirning Gamlet tilidan aytilgan quyidagi fikrlarini qayd etish o'rinlidir: «...so'zga yarasha harakat qiling, harakatga yarasha gapiring. Lekin bular tabiiylik chegarasidan chiqmasligi shart. Har qanday haddan oshmoqlik teatr maqsadiga xilofdir...».

Sahna nutqi teatr muhitida ta'kidlash imkonini beradi. Nutq jarayoni haqidagi tasavvur, uning tarkibiga kirgan barcha qismlarning ichki aloqani tushunish sahna nutqini o'qitish metodikasini nazariy to'g'ri va amaliy jihatdan natijali tuzishga imkon berdi. "Sahna nutqi" fanini sifatli o'rganish natijasida so'zlovchining maishiy nutqi boyib boradi, nutq oborotlarini to'g'riligini, gapni to'g'ri tuzishni, so'zni aniq qo'llashni, aniq va to'g'ri talaffuz qilishni nazorat qilishga ehtiyoj paydo bo'ladi. Sahna nutqi o'zbek tili namunalarini bilishni va egallashni xohlaganlar, eng muhimi

esa nutq madaniyati sohasida o‘z-o‘zini takomillashtirishga intilayotganlarga foyda keltirishi mumkin. Ammo hozirgi paytda “Sahna nutqi” faqat san’at va madaniyat o‘quv yurtlarida va teatr fakultetlaridagina o‘qitilmoqda, bu yetarli emas.

Xulosa qilib aytganda Sahna nutqi fan sifatida shakllanish jarayonida mazkur fanning metodologiyasini va pedagogikasini yaratgan ustoz-pedagoglar ilmiy-ijodiy faoliyati, ularning pedagogik mahorati ilmiy-amaliy jihatdan chuqur tadqiq etilmog‘i lozim.

Sahnaviy nutq keng fikr, chuqur mulohaza, o‘z millatimiz tarixiy ildizlarini aniq bilish, ularga mehr bilan yondashgan ziyolilardagina yaxshi tarbiyalanadi, jaranglaydi va parvoz etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
2. To‘laganov A. Sahna nutqi darsligi. – Toshkent: Musiqa, 2010.
3. Stanislavskiyning rejissyor va aktyor san’ati haqida ikki suhbat. “Teatr” jurnali № 2, 1952 yil.

ESTRADA SAN’ATI: YAKKA IJRODAGI YUTUQLAR VA KAMCHILIKLAR

Estrada so‘zining ma‘nosi, uning kelib chiqishi borasida turli hil fikr-mulohazalar bor. Ulardan eng maqbuli bizningcha “Estrada” fransuzcha “estrade” so‘zidan olingan bo‘lib, “tomosha uchun maydon”, “ko‘tarilgan” degan ma‘nolarni anglatadi. D.N.Ushakov lug‘atida shunday qayd etiladi “Estrada bu – ochiq sahnada ijro etiladigan musiqiy-ommabop xarakterdagi tomoshaning kichik shakllarini o‘zida uyg‘unlashtirgan san’at turi. Uning o‘ziga xosligi turli xil shart-sharoitlardagi sahna ko‘rinishlariga oson moslasha olish, o‘tkir ijtimoiy-siyosiy mavzularni yumor, satira, publisistika elementlaridan foydalanib badiiy ifoda vositalari yordamida yorqin ijodiy mahorat orqali aks ettira olishdir” [1, 15 b.].

“Estrada teatr sahnasidan farqlanishi, teatr sahnasi kabi tomoshabin va aktyor orasida parda, sahna chetiga o‘rnatilgan lampalar bo‘lmagan tarzda supa va uning atrofi ochiq, tepasi gumbaz, bu - estrada sahnasi. Estrada aktyorlari tomonidan qo‘yilgan namoyish, sahna ko‘rinishlari, tomoshabinlardan ajralmagan holda ijro qilinadi. Estradada ijrochilarning tomoshabin bilan muloqotga kirishishga imkoniyati bor. Ko‘rsatilayotgan chiqishda, tomoshabin ijrochi bilan, ijrochi tomoshabin bilan o‘zaro munosabatga kirisha oladi” [1, 14 b.]. Shu o‘rinda marhum rejissyor Bahodir Yo‘ldoshevning ham so‘zlarini qayd etib o‘tib ketish o‘rinli. O‘zbekiston xalq artisti, teatr va katta ommaviy tomoshalar rejissyori Bahodir Yo‘ldoshev suhbatlardan birida shunday degan edi: “Estradaning sahnasi qayer, nima deb o‘ylaysizlar? Bu – yurtimizning istirohat bog‘laridagi tepasi ko‘pincha qubbali, qolgan atrofi ochiq sahnalar, bu estrada sahnalari, ishdan, o‘qishdan charchagan odamlar ana shunday bog‘larga borganda ochiq osmon ostidagi o‘rindiqlarda o‘tirib tomosha ko‘radi, zavqlanadi, dam oladi” [2].

Lo‘ndalik, mubolag‘asiz, estradaning barcha tur va janrlariga xosdir. Bu tushunchani estradaning barcha yo‘nalishlariga yoyish mumkin. Nomerni

yaratilishidagi muallif yozgan matndan tortib aktyorning ijrosi va tashqi aktyorga xizmat qiluvchi muhit qorishib ham lo'ndalikni yuzaga keltirishi lozim. Estrada musiqa, dramatik teatr, raqs, adabiyot, kino, sirk, pantomima kabi boshqa san'at turlari bilan chambarchas bog'liq bo'lsa-da, u mustaqil va o'ziga xos san'at turidir. Buni S.Klitin "estradaviylik" deb ta'riflaydi. Agar ochiq maydoncha bizga estradani joyini makonini belgilab bergan bo'lsa, uni san'at turi sifatida qabul qilishimiz estradaviylikni belgilaydi. Unda esa juda ko'p san'at turlari jamlangan: drama, komediya, lirika, so'z o'yiniga qurilgan namoyishlar xullas turli hil janrlar estradaviylikni ifodalaydi. Estradaning rivojlanishini hamma davrlarda ham kuzatish mumkin, masalan qadimgi bayramlarda, yurish, kornovallarda, rus skomoroxlarda (masqaraboz), rus yarmarka tomoshalarida va hozirgi estrada konsert dasturlarida ham. Estrada xalq bilan yaqin muloqotda bo'lgani uchun uni qabul qilish, hazm qilish insonlarga oson.

Rus estradasining o'ziga xosligi deganda uning tomoshabinlarni tarbiya qilishga, ilhomlantirishga, biror nimaga da'vat qilgan quvnoqlik bilan bayramona kayfiyat berganini ta'kidlash joiz. Xursandchilik, ko'tarikinlik ko'ngilocharlik boshqa san'at turlaridan ko'ra estradada kuchli ahamiyat kasb etadi. Rossiyada estradaning ayniqsa so'z janriga urg'u qaratilgan. Ya'ni monolog, hikoya, kichkina sahnachalar, felyeton, lapar, parodiya, konferans chiqishlari kabi nomerlarga omma o'rtasida qiziqish yuqori bo'lgan. Bejiz rus estradasi uning rivojiga turtki bo'lgan holatlarga to'xtalmadik chunki Rossiya bizga geografik jihatdan yaqin bo'lgani, va O'zbekiston Sobiq ittifoq tassarufida ekani sabab barcha sohalar singari ruslarning o'zbek teatri san'atiga xususan qiziqchi va masxarabozlarga ta'siri bo'lgan. Bu haqda M.Hamidov shunday yozadi: "Yangi iqtisodiy-siyosiy sharoitlar, rus madaniyati, jumladan rus sirki masxaraboz va qiziqchilar teatriga ta'sir qilmasdan qolmadi. Xalq komiklarining faoliyatida, repertuar, mahoratida, munosabat va odatlarida bu yangiliklar o'z aksini topib, xalq teatrining tur va janrlari, qurilish va tasviriy vositalarini boyitdi" [3, 84 b.].

Estrada san'atining so'z janrida ijod qilgan aktyorlarning bugungi avlodini o'rganish ular qanday yutuq kamchiliklarga duch kelayotganini tahlil qilish yosh

tadqiqotchilarga ma'suliyat yuklaydi. Hozirda so'z ustasi, qiziqchi sifatida elga tanilgan estrada sahnasida yakka chiqishlari bilan xalqimizni qalbidan o'rin egallab kelayotgan Avaz Oxunovning sahnadagi madaniyatiga alohida e'tibor beradigan bo'lsak. Aytayotgan fikrlarida tizim mavjudligini, voqealarni aytib berayotganda so'zlarni ishlatishda extiyotkorlik seziladi. "Talabalik", "taksi", "avtoulavlar", "ayollar" mavzulari bilan bog'liq voqealarga bag'ishlangan yumorlari xalqimiz orasida mashhur. Masalan "avtoulavlar" mavzusida, mashinalarning orqa oynasiga yoziladigan ayrim yozuvlar – "zato ne peshkom", "metan gaz", "tufli", "O" "bolalar" rasmi tushirilgan ramziy belgilar bilan bog'liq voqealar hajv orqali kulgi ostiga olinadi. Avaz Oxunov voqealarni ijro qilish jarayonida san'atkorlarning mashhur qo'shiqlariga murojaat qilar ekan, ta'kidlash joizki, unda qo'shiq kuylash, vokal imkoniyatlari mavjudligiga iqrar bo'lasiz. "Tog'dagi to'y" kulgi-hikoyasida, raqsga tushib ijro qilishi voqeani tomoshabinlarga yana ham qiziqarli bo'lishiga xizmat qildi. Mana shu manzarada aktyorning plastik, imkoniyatlari ijro uchun qanchalik muhim ekanligi namoyon bo'ladi. Bu ko'rinishda so'z va harakat uyg'un holda ijro qilinishi aktyorning imkoniyatlari ochilishiga va voqeani yanada jonlanishiga asos bo'ldi.

Yosh aktyor, viloyatlarimizning turli shevalarga faqatgina voqealarni aytib berayotgan vaqtida murojaat qiladi. Muallif nomidan gapirganda esa, o'zbek adabiy tili talablariga amal qilib fikrlayapti, shuning uchun aytib berayotgan voqealari tomoshabinlar tassavurida gavdalanyapti. "O'zimizning gaplar" nomli 2015 yilgi yakka konserti "Xalqlar do'stligi saroyi"da bo'lib o'tdi, g'oyaviy salmog'i oshgan va mavzularni yiriklashtirgan. "Shahardagi boylar kiradigan restoranlar", "Qassoplarning qing'ir ishlari", "Smartfonlarning salbiy oqibatlar", "Oiladagi munosabatlar", "Seriallar" xullas mavzular rang-barang. Ularni ochishga xizmat qiladigan voqealar kompazisiyasida kirish, tugun, rivojlanish, avj, yechim va xulosa mavjud. Dastur davomida "futbol mavzusi"ga ham murojaat qilindi. Bu dolzarb mavzuga tomoshabinlarning qiziqishi tabiiy. Aktyor stadiondagi voqeani ijro qilar ekan, sahnada "yo'q" futbol kaptogini – "jonlantirilishi" voqeani qiziqarli ifodalanishiga, so'zlarni tomoshabinlarga yanada kuchliroq ta'sir o'tkazishiga olib

keldi. Aktyorning 2016 yilgi konsert dasturi “Samimiy kulgu” deb nomlangan. So‘z ustasi o‘zi ishtirok etgan yoxud kuzatgan voqealarning hamda xangomalarning deyarli 80 foizi, jamiyatimizda yuz berayotgan maishiy xolatlarni tanqid ostiga olgan. Turli personajlarning fe‘l atvori ham turlicha, ular bir aktyor tomonidan tipik obraz ko‘rinishida tomoshabinga yetkazilyapti. Nutqiy rang-baranglikka, erishish uchun esa, personajlar xarakterini anglab olish iqtidori talab etiladi.

“Estradada serqirra qobiliyat noyob hislat hisoblanadi. Ko‘pgina aktyorlar grim va pariksiz ham tomoshabinlarga o‘nlab bir-biriga o‘xshamaydigan xarakterlarni ko‘rsata oladilar”¹³. Artist–ko‘chadagi e‘lon yozuvidan – “Yer sotiladi” so‘zi xato yozilgan e‘lon – (kirill yozuvini nazarda tutgan) “Er sotiladi” (kulgi) “Buzilmaydigan er”, (kulgi) “Bir xona uch xona qilingan”, (kulgi). “Erga tegaman, yoshim 35da, uylanmagan yigitga, uchinchi marta erga tegaman.”, (kulgi) “Qaynonamni yo‘qotib qo‘ydim, topib berganni sudga beraman” (kulgi). Jamiyat estrada artistiga nima uchun extiyoj sezadi? Sababi u, tomoshabinlarni o‘z izlanishlari nutqidagi rang-barangligi, so‘zlayotgan voqealari, latifa-yu-handalari bilangina hayratlantirmay, balki, jamiyatda yashaydigan insonlarning illatlari, kamchiliklari, qusurlarini ko‘rsatib bunyodkorlikka undashi bilan u bizga zarur. Shuningdek, tomoshabinlar dolzarb mavzuni eshitganda va yaxshi ijroni ko‘rganida, nafaqat estetik, balki, ruhiy hamda ma‘naviy ehtiyojini ham qondiradi. Shunday ekan so‘z ustasi, qiziqqlar nutq texnikasi ustida shug‘ullanishni kanda qilmasligi, o‘zbek tilining go‘zaligini his qilgan holda unga putr yetkazmay so‘zlarni joy-joyida ishlatishi asosiysi bachkanalikdan extiyot bo‘lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Klitin S.S. Estrada problemi, istorii i metodiki. – L.: Iskusstvo, 1987.
2. “Diydor” teatr-studiyasidagi suhbat, 2019.
3. Qodirov M. Masxaraboz va qiziqchilar san’ati. T.: Fan, 1971.
4. Rashidov M. Izlanish.– Toshkent // Teatr jurnali. - №2, 2009.

¹³ Rashidov M. Izlanish.– Toshkent // Teatr jurnali, 2009 №2– 42 bet.

Ochilbek Hamidov,
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti magistranti
Ilmiy rahbar: pedagogika fanlari
bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor v.b. J.Mamatqosimov

AN’ANAVIY KULGU SAN’ATI TENDENSIYALARI

Yangilanayotgan O‘zbekistonda olib borilayotgan tub isloxotlar samarasida Uchinchi Renessans poydevorini yaratish va bunda san’at va madaniyatning yuksalishiga erishishda kadrlar tayyorlash jarayonini takomillashtirish, sohada amalga oshirilayotgan ishlarning badiiy saviyasini ta’minlash va ma’naviy barkamollashtirish muhim ahamiyatga ega.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 3 avgust kuni milliy madaniyatimiz, adabiyot va san’atimizni rivojlantirish bilan bog‘liq dolzarb masalalr yuzasidan adabiyot, madaniyat va san’at hamda ommaviy axborot vositalari xodimlari bilan o‘tkazilgan uchrashuvi bu boradagi vazifalarni hal etishdagi dastlabki qadamdir.

“... adabiyot va san’atga, madaniyatga e’tibor – bu avvalo xalqimizga e’tibor, kelajagimizga e’tibor ekanini, buyuk shoirimiz CHO‘lpon aytganidek, adabiyot, madaniyat yashasa, millat yashashi mumkinligini unutishga bizning aslo haqqimiz yo‘q [1].

Darhaqiqat adabiyot va san’at millat ma’naviyatining yorqin namunasi bo‘lib, bu borada hajviya, xususan kulgu san’ati ham alohida xarakter kasb etadi. Hozirjavoblik va hazilkashlik o‘zbeklarga xos bo‘lgan xususiyatlardan biridir. Shu boisdan ham bu san’at turining xalqimiz turmush-tarziga, fikr va g‘oyalariga, mafkurasiga ta’siri kuchli. Ayniqsa, texnologiya rivojlanib, internet orqali ommaviy madaniyat ildiz otayotgan bir paytda, bunga qo‘shilib qiziqchilik sohasiga ham yangicha yo‘nalishlar, uslublar kirib kelmoqda.

Yengil-yelpi, bachkana mavzularning ko‘payganligi, ijro uslublarda noprofessionallikning tarqalayotganligi, milliy askiya va qiziqchilik san’atimizning biroz unutilib borayotganligi kabi muammolarning yechimini topishda yurtimizda

qadimdan yashab kelayotgan, milliy boyligimiz bo'lgan an'anaviy kulgu san'atini chuqur o'rgangan holda, professor M.Qodirovning bu boradagi izlanishlarini davom ettirib, mavzuning ochilmagan qirralarini yoritish, ustoz qiziqchilarning ijro maktablari ilmiy asoslarini tahlil etib yangi avlod qiziqchilari uchun na'munaviy qo'llanma yaratish, kulgu san'atimizga kirib kelgan yangi, zamonaviy janr va ijro uslublarining ilmiy asoslarini o'rgangan holda ularga ko'r-ko'rona ergashmasdan yutuqlarini milliy ongimizga moslashtirish zamonaviy estrada san'atidagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Professor, an'anaviy teatrimiz nazariyotchisi M.Qodirovning izlanishlari va yaratgan qo'llanmalariga asoslanib an'anaviy kulgu san'atini askiya, muqallid, latifago'ylik va xalfachilik kabi turlarga ajratishimiz mumkin.

Askiya – o'zbek xalq og'zaki ijodining xushchaqchaq va kulgili tomosha san'atining ommalashgan janri. U odatda xalq sayilida, to'ylarda va boshqa marosimlarda ijro etiladi. O'zbekistonning Farg'ona vodiysi va Toshkent viloyatlarida rivojlanib, san'at darajasiga ko'tarilgan. Farg'ona vodiysi aholisi askiya tomoshalarida faol qatnashib kelishadi. Ijrochi-askiyachilar (askiyaboz) bilan tinglovchilarining umumiy kulgisi askiyaga harorat, xushchaqchaqlik bag'ishlaydi. Hozirjavoblik, ziyraklik va donishmandlikni, shu bilan birga, til va so'z boyligini, badiiy-estetik didni talab etadigan askiyada ikki yoki undan ortiq kishi yoxud to'da orqali munozaralashadi, bu esa fikrlar munozarasi, hozirjavoblik va so'zamollikdir. Aytilayotgan askiya bironing shaxsiyatiga tegib ketmasligi uchun har bir so'z va iborani ishlatishda ijrochi nihoyatda ehtiyotkor bo'lishi zarur.

Yozma tarixiy manbalarda askiya XV-XVII asrlarda keng tarqalgan. Shoir va olim Zayniddin Vosifiy (XVI asr) Hirotda askiya keng avj olganini yozadi va o'nlab mohir askiyachilar orasida eng iste'dodli Mavlono Abdulvose' Munshiy ismini keltiradi. Askiya haqida Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Xondamirlar ham ma'lumot berishgan.

Askiyada payrov syujeti alohida badiiy asar hisoblanadi, u askiyaning mukammalashgan va murakkab usuli sifatida izchil fikrlar oqimi bo'lib, ma'lum bir mavzuning ma'nosini boshidan oxirigacha yechib beradi. Askiyachilar mavzu

doirasida chetga chiqmaydilar. Unda an'anaviy payrovlar bo'lmish "O'xshatdim", "Bo'lasizmi", "Gulmisiz, rayhonmisiz", "Bedana", "Xavsana", "Qofiya", "Bilganlar, bilmaganlar", "Laqab"lardan tashqari, zamonaviy mavzular "Paxta", "Oila", "Kino", "Dorbozlik", "Ashula", "Futbol" va h, o'rin olgan. Payrovda bir mavzu atroflicha va chuqur ochilishi lozim. Mavzudan chekinish askiyachining mag'lubiyatidan dalolat beradi. Askiyada mavzuning to'g'ri tanlanishi, tushuncha, fikr tizimini izchil ravishda mantiqiy yakunga yetkaza olish, badihago'ylik mahorati, tinglovchilar e'tirofi muhim ahamiyat kasb etadi. Askiya harakat vositalari o'rinli; unda so'z qo'llash mahorati hamda muloqot jarayonidagi tezkorlik, imo-ishoralar uyg'unligi mahsulidir.

Askiyani muhofaza qilish, asrash va targ'ib qilish va kelgusi avlodga yetkazishda askiyachilar jamoalari va guruhlari, jumladan, Qo'qon askiyachilar klubi Jo'raxon Po'latov va Akromjon Akbarov boshchiligida, Marg'ilonda Mamasidik Shirayev, Andijon viloyati Honobod shahrida Muhiddin Sul'tonov, Asakada Jumavoy Xurramov, Qorasuvda Qahramon Abduvohidov rahbarligida faoliyat yuritmoqdalar. Askiya erkaklarga xos janrdir, ammo hozirgi kunda ayollar o'rtasida ham kuzatish mumkin. Askiya o'zbek xalqi tafakkuri, dunyoqarashi, ijtimoiy munosabatlarni o'zida ifodalagan ma'naviy xazinadir. Zero, askiya o'zbek yumori ijtimoiy an'analar bilan bog'liq ravishda hayot tarzi kuzatuvlari asosida muhim masalalarga e'tibor qaratilgan janr sifatida madaniy so'z va tilga oid ma'lumot berishda ahamiyati katta.

Muqallid (taqlidchi) – o'zbek an'anaviy teatrining janri, shu janr ijrochisi. Muqallid shaklidagi tomoshalarda qush va hayvonlarga taqlid qilingan, hayotdagi ba'zi kishilar xulqatvori, qiziq voqealar kulgili tarzda aks ettirilgan. Muqallid 3 xil: hajviy Muqallidlar («Xum o'g'risi», «Qimorbozlar», «Sudxo'r akam jon beradi»), parodiyalar («Uloqchilik», «Kelin tushdi», «Yog'och polvon», «Novvoylik»), pantomimalar («Kiyik o'yin», «To'rg'ay», «Bedana o'yin»). Muqallid tomoshalarida nutqdan ko'ra ijrochi masxara-boz va qiziqchining sahnaviy harakati, holatlari, yuz va ko'z ifodalari muhimroq. Muqallid janri juda qadim zamonlarda shakllangan.

Latifago'ylik – xalkning nozik faxmlilik bilan aytilgan kulgili kichik xikoyasi. Latifa ba'zan nodira, zarifa va ajiba deb ham yuritilgan. Latifa – kichik hajmdagi kulguli hikoyalar aytib kuldirish san'ati.

Xalfachilik – Xorazmda savodxon, gapga chechan, ayni paytda xonandalik qobiliyatiga ega bo'lgan zukko ayollarni “xalfa” deb yuritishadi. (Ushbu atama arabcha so'z bo'lib, uning ma'nosi shariat aqidalarini yaxshi biluvchi, o'qimishli kishi tarzida shakllangan). Bu janrning qiziqchilikka xos bo'lgan asosiy xususiyati shundaki, xalfalar taklif etilgan davrada badihago'ylikka asoslangan holda davra ishtirokchilari va turli vaziyatlarni kulguli tarzda qo'shiq qilib ijro qilgan va insonlarni kuldirgan.

Xalfa san'atining o'ziga xos qirralari zamon talablariga muvofiq shakllangan va rivojlangan. Xorazm vohasida ilgaridan beri davom etib kelayotgan an'anaga muvofiq xalfalar ijod qilganlar. Ular ustoz shogird uslubida o'z ijodlarini biladigan qo'shiq va dostonlarni shogirdlariga o'rgatganlar.

Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak, uzoq yillik tarixga ega bo'lgan an'anaviy kulgu san'ati turlarini va bu janrlarda ijod qilgan ustoz san'atkorlar faoliyatini o'rganish, ularning mashaqqatli va sermazmun mehnatlarini davom ettirgan holda, boy ma'anaviy meroslarini kelgusi avlodga yetkazish shu yo'nalishda ijod qilayotganlarning oldida turgan muhim vazifalaridan biridir.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev SH.M. Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir // O'zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma'ruzasi. Xalq so'zi. 2017 yil 4 avgust.
2. Qodirov M.X. O'zbek xalq tomosha san'ati. – Toshkent: Fan, 1981.
3. Xomidiy X, Abdullayeva SH., Ibroximova S. Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1970.

Dilyorbek NURXONOV,
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti talabasi,
Ilmiy rahbar: o‘qituvchi I.Kurbanov

SAN’AT – YOSHLAR TARBIYASINING BADIY OMILI SIFATIDA

Inson ruhiyati murakkab mezonlardan tashkil topgan. Texnika tezlik bilan rivojlanayotgan davrda o‘tkinchi yaratilgan ruhiyatning yolg‘iz qolishiga, murakkab hayot yo‘llarida betaskin yashashga, sof insoniy muloqotlarga intizor qilib qo‘ymoqda. Inson ijtimoiylikdan butkul uzilib ketolmaydi, u bir umr muloqot qilib, atrofdagilar bilan munosabatga kirishib yashashi lozim. Bugun hayotimizning har jabhasida porloq kelajagimiz egalari bo‘lmish yosh avlod tarbiyasiga jiddiy e‘tibor qaratish, ularni har taraflama faollikka chorlash, ezgu amallar sari yo‘naltirish kabi vazifalar bosh maqsadga aylanib ulgurdi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh assemblyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqlarida “ayni davrda insoniyat tarixidagi eng ko‘p yoshlar qatlami bilan yashayotganimizni inobatga olgan holda BMT minbarida Yoshlar huquqlari to‘g‘risidagi BMT konvensiyasini qabul qilishni taklif qildi”. [1. B-1] Shuningdek, yurtboshimiz dunyo yoshlari o‘rtasida zo‘ravonlik g‘oyasi tarqalishining oldini olish kerakligini, ularning huquq va manfaatlarini, turmushini ijtimoiy himoya qilish uchun dunyo xalqlaridan ko‘p tomonlama hamkorlik tashabbusi so‘ralishini aytib o‘tdi. Yoshlar ongida huquqiy savodxonlikni oshirish, malakali bilimga ega bo‘lish bu boradagi islohotlarning muhim amaliy sharti hisoblanadi. Avvalo yoshlarimiz nima sababdan bu yo‘llarga kirib qolayotganiga jiddiy e‘tibor qaratish lozim.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov “Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch” asarida “Hayotimizning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarimizning samaradorligi avvalo xalq ma‘naviyatining tiklanishi, boy tarixiy merosimizning chuqur o‘rganilishi, an‘ana va urf-odatlarimizning saqlanishi, madaniyat va san’at, fan va ta‘lim rivoji, eng muhimi jamiyat

tafakurining o‘zgarishi va yuksalishi bilan uzviy bog‘liqdir”, [2 B-38] deya qimmatli fikrlarni bildirganlar.

Bundan kelib chiqadiki, yoshlar o‘rtasida sodir etilayotgan jinoyatchilik va qonunbuzarlik alomatlarining sababi bevosita ularning oilaviy muhiti, ta’lim-tarbiyasi, axloqiy rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liq. O‘z xonadonida yaxshi tarbiya ko‘rgan, milliy ma’naviyati rivojlangan yoshlar jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘shishadi. Milliy ma’naviyatning tub mohiyatida diniy ilmlar va dunyoviy bilimlarning rivojlanishi muhimdir. Filolog Mahkamoy Tursunova o‘zining ilmiy maqolasida “Sharq mutafakkirlari yosh avlodni diniy va dunyoviy ilmlardan xabardor etish, uning aqlu zehni oshirishda tinimsiz izlanganlar va samarali ta’lim-tarbiya usulini joriy qilganlar. Ular yaratgan bebaho asarlar insoniyatni olam va odam, borliq tushunchasi, hayotning mazmun-mohiyati, falsafasi, tasavvufiy dunyo sirlaridan boxabar etib, turli madrasalarda asosiy o‘quv qo‘llanmasi sifatida foydalanilgan. Shu bois yuksak salohiyat sohiblari yaratgan bebaho ilmiy-badiiy durdonalar asrlar osha ardoqda bo‘lgan”, [3 B-137] deya g‘oyat muhim fikrlarni qayd etgan. Haqiqatan, o‘timishimizga nazar tashlasak, buyuk ajdodlarimiz siymolarini, ular yaratgan asriy ma’naviy merosni ko‘ramiz. Bunda ularning ilmiy tafakkuri benihoya boy, salohiyati yuksakligi, tarbiya va axloq madaniyati shakllanganligi mohiyatida zaruriy ta’lim-tarbiya yetadi. San’atlar gultoji bo‘lmish teatr sahnasida hamda ommaviy ta’sirga ega kino sohasida dolzarb mavzulardagi, ya’ni huquqbuzarlik illatlari va ularning oqibatida qonun oldida javob berish jarayonlari aks ettirilgan qator milliy asarlar yaratildi. “Oydin”, “Ogoh bo‘ling, odamlar”, “To‘da”, “Gumrohlar”, “Kuzning birinchi kuni” singari spektakllar, “Isnod”, “Ajal jodusi”, “Sotqin”, “Qadamlar”, “Jasur”, “Odnoklassniki” kabi filmlar shular jumlasidandir. Asardagi hayotiy voqealarning bo‘rttirilgan syujeti, rejissyorlik topilmalar, professional aktyorlar ijrosi tomoshabin hissiy ta’sirini oshiradi, estetik tarbiyaga hamda chuqur mulohazaga chaqiradi. Demakki, mazkur mavzularda yaratilayotgan san’at asarlari ezgulikka maqsadli xizmat qilishi bilan o‘ta ahamiyatli.

Yuqorida ta'kidlagan ta'lim-tarbiya hamda endilikda bildirilgan san'at asarlari ta'siri haqidagi fikrlarimiz umumiy uyg'unlashishi lozim. San'atshunos pedagog Shoira Nusratova "o'zbek milliy kino san'ati inson ongi va tafakkuriga, jamiyat hayotiga, qolaversa, xalqimizning, ayniqsa, yoshlarimizning ichki dunyosi, ma'naviyatiga kuchli ta'sir etuvchi muhim vositalardan biri hisoblanadi", [4 B-4] deganlarida aynan o'zi izlanayotgan hamda faoliyat yuritayotgan sohalarning vazifasi yoshlar tarbiyasini yuksaltirish, milliy ma'naviyatini rivojlanitirish bilan bog'liqligini nazarda tutgan.

Yoshlarga oid davlat siyosatining negizida ham aynan yosh avlod ta'lim-tarbiyasiga jiddiy e'tibor masalalari yoritilgan. Ma'naviyati shakllanayotgan o'smir yigit yo qiz teatr sahnasida muhim g'oyaga asoslangan murakkab syujetdagi spektaklni tomosha qilsa albatta ta'sirlanadi, ruhiy larzaga keladi, natijada esa turli egri yo'llardan yurmaslik, o'z tafakkurida hayotiy jarayonlarni chuqur mushohada qilish holatlari kuzatiladi. Postanovkachi rejissyor Hilol Nasimovning "Odnoklassniki" filmi mana shunday dolzarb mavzudagi kinokartina bo'lib, yoshlar auditoriyasi uchun mo'ljallangan. Kartinada yosh o'spirin yigit-qizlar Rossiyaga ishlashga ketib, aldanib qolishlari, asosiy qahramonlardan biri diniy ekstermizm oqimiga kirib qolish holatlari hayotiy syujetlar, voqeyiy munosabatlar hamda mahoratli aktyorlar ijrosida ochib berilgan.

Xulosa qilganda, yoshlar bilan muloqot va faol ijtimoiy munosabatlar asriy an'analar hosilasida o'z tasdig'ini topgan. Globallashuv tobora kengayib borayotgan shiddatli davrning qurbonlari yoshlar bo'lib qolmasligi lozim. Buning uchun ajdodlarimiz yurgan maqsadli yo'llardan yurib, Vatanimiz taraqqiyotiga hissa qo'shishdek mas'uliyatli vazifalar hayotimiz shioriga aylansin. Porloq kelajak – ma'nan yetuk va barkamol yoshlar qo'lida!

Foydalanilgan manbalar:

1. Mirziyoyev SH. BMT Bosh assemblyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqidan. sputniknews-uz.com saytidan olindi.
2. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –Toshkent: Ma'naviyat, 2008. 38-b.

3. Tursunova M. Qadim madrasalarda ta'lim tizimi. Jahon adabiyoti jurnali. – Toshkent: Sharq 2016, 4-soni. 137-b.
4. Nusratova SH. Kino san'atining ma'naviy-tarbiyaviy ahamiyati. “Yoshlar va kinematografiya” ilmiy maqolalar to'plami. –Toshkent: Navro'z, 2017. 40-b.

KINO VA TELEVIDENIYE SAN’ATI VA UNING MA’NAVIY QUDRATI

Televideniye muqaddas maskandir. Shu sabab televideniye o‘zining tezkorligi, ta’sirchanligi, ommaviyligi va samimiyati bilan shuhrat qozondi. Ilm-fan, madaniy va ijtimoiy hayotda “dunyo darajasi” ekanligini namoyish etdi. Insonni shaxs sifatida kamol toptirish, ijtimoiy muammo va qarama-qarshiliklar oldida ongini shakllantirish, jamiyat oldida inson mas’ulligini tarbiyalash televideniyaning asosiy ijtimoiy vazifalaridan biriga aylandi. Ayniqsa, televideniya kishini har tomonlama estetik tarbiyalashda kuchli qurol vositasi ekanligini qayd qilish kerak. Shunday ekan, bu dargohda ishlaydigan yuksak malakali kadrlarni tayyorlash, zamon talablariga javob beradigan mutaxasislarni yetkazish alohida ahamiyatga ega. Mamlakatimiz rahbari, televideniya ravnaqiga, uning texnik imkoniyalariga, ijodiy hodimlar malakasiga e’tibor qaratib, farmon va qarorlar qabul qilmoqdalar. Bir qancha jurnalistlar qatori, rejissorlar ijodi ham milliy mafkuraga, rejissorlar ijodida o‘z ifodasini topishi kerak.

Rejissorning dunyoqarashi, jahon taraqqiyot qonunlari, tabiat va insonning sir-asrorlarini chuqur tafakkur qilishi ijod mazmunini tashkil qiladi. Rejissor o‘zidan avval o‘tgan buyuk san’atkorlar, rassomlar, yozuvchilar, bastakorlar ijodini yaxshi o‘rgangan, uslubiyatlari, o‘ziga xos xususiyatlarini idrok qilgan bo‘lishi kerak. Jahon va milliy madaniyat an’analari davomchisi bo‘lib shakllanishi lozim. Televizion rejissorning g‘oyaviy-badiiy kamoli ixtisosligining nazariy va amaliy tomonlarini, texnik imkoniyatlarini chuqur bilganligida namoyon bo‘ladi. Televizion rejissor adabiyotni, teatr, kino san’atini, musiqa, tasviriy san’at, jurnalistikni tushungan barkamol inson, har tomonlama yetuk shaxs bo‘lishi kerak. Chunki televizion ko‘rsatuvlarning sifat darajasi, rejissorning mahoratiga bog‘liq.

Televideniye jamiyatning ma’naviy hayotida yuz berayotgan voqealarni aks ettirishga mas’ul. Shu sababli madaniy jarayonlarni muqobil aks ettirish muammosi

badiiy-axborot ko'rsatuvlari uchun asosiy o'rinda turadi. Shuningdek, televideniya ommaning estetik ehtiyojlarini qondiribgina qolmay, aholini madaniy ehtiyojlariga xizmat qilish vazifasi turibdi. Televideniye kanallari orqali shaxsning ma'naviy olamiga ta'sir ko'rsatib axloqiy mukammal, ma'naviy boy shaxsni kamol toptirishga harakat qilinadi. Zamonaviy tele ekranda san'atning barcha turlari va janrlari namoyon bo'ladi. Televideniye ham san'at asarlarini, badiiy filmlar, konsertlar, teatr spektakllarini translyatsiya qiluvchi, zamonaviy va, an'anaviy madaniyat qadriyatlarini haqida ko'rsatuvlar tayyorlovchi, shuningdek spektakllar, badiiy va hujjatli telefilmlar yaratuvchi vosita sifatida ish ko'radi. Translyatsiya qilinadigan hamda televideniyaning say harakatlari bilan yaratiladigan artefaktlar jam bo'lgan holda ko'rsatuvlarning umumiy dasturida madaniy-badiiy yo'nalishdagi ko'rsatuvlar ajralib turadi.

Muallifning fikricha television ko'rsatuv televideniyaning zahira qismini tashkil etadi. San'at haqida madaniy-badiiy ko'rsatuvlarning teatr san'atining tabiatini organik singdirib olgan telespektakldan, kinomatografiyaga yaqin telefilmdan va boshqa har xil teletranslyatsiyalardan faqrqi televideniyaning xususiy mahsuloti ekanligidadir. Teleko'rsatuvlarning basis birligi sifatida, san'at to'g'risidagi ko'rsatuvning rasmiy-mazmuniy elementlarini tahlil qilishni nazarda tutadigan ta'rif boyicha umuman televideniyaning ijodiy, intellectual va professional darajasini baholashda muhim va yetarlicha ishonchli mezon bo'lib xizmat qilishi mumkin. Biroq televideniyaning salbiy tomonlari ham bor: zamonaviy inson asta-sekin kitob o'qishdan chiqib, ommaviy madaniyatni afzal biladi; televideniye san'at asarlarini passiv idrok etishga o'rgatadi, estetik qadriyatlar mezonini tenglashtiradi. Zamonaviy televideniye bilan bog'liq muammolarning ko'pchilik qismi endilikda bizning ham muammolarimiz hisoblanadi, jamiyat madaniyatini shakillantirish jarayonida esa televideniye o'zida ifodalaydigan yutuqlar ham, tahdidlar ham biz uchun teng darajada dolzarbdir. Teletomoshabinlarda bugungi kunda istalgan daqiqada boshqa kanalga o'tishning keng imkoniyatlari mavjud. Televideniyaning jamiyatga madaniy ta'sirini real baholashda efirga uzatilayotgan ko'rsatuvlarning ijodiy va professional darajasini mazmuniy-rasmiy mezonlarigina aniq belgilashi

mumkin. U yoki bu ko'rsatuv ushbu mezonlarga qanchalik aniq muvofiq bo'lsa, uning teletomoshabinlarga ta'sir ko'rsatish ehtimoli shuncha ko'p bo'ladi.

Tomoshabin filmni tomosha qilarkan undagi voqealar tizimi, qahramon hatti harakatini kuzatadi. Filmdagi voqea tomoshabinni qiziqtiradigan bo'lsa bevosita qahramon bilan ruhan yashaydi. Uning iztiroblaridan azoblanadi, shodligiga sherik bo'ladi. Ayrim filmlarda sayoz va quruq informatsion ma'no tashiydigan dialoglar nihoyatda ko'p uchraydi. Ularda fikrning tiniqligi, sofligi yetishmaydi. Real asosga suyanilmagan mavzuga keng o'rin beriladi, shu bois film qahramoni obraz sifatida sayqallanmay qolishi mumkin. Ekran asarini yaratish jarayonida davr, xalqlarning yashash tarzi, urf-odatlarini, an'analarini yahshi bilish insonga rassomlik Ishida ham, kinoda ham juda katta yordam beradi. Aytaylik, bir qarashda kichkinagina bir shtrix chizig'i ham kinosyomkada katta ahamiyat kasb etishi mumkin. Masalan devordagi ko'zgudan tushgan nur aksi qahramonning yuzini yarim yoritib turgan vaziyatni eslaylik. Bu kabi ma'lumotlarga ega bo'lish ayniqsa tarixiy mavzudagi filmlarni yaratishda ahamiyati katta. Chunki qahramon foydalanadigan anjomlar qaysi asarga tegishli, qay yo'sinda foydalaniladi, nima uchun undan shu epizodda foydalanish zarurligini bilish zarur. Chunki zukko tomoshabin filmdagi har bir detalga ahamiyat beradi. Noo'rin qo'llanilgan detallar tomoshabinning filmga nisbatan bo'lgan ishonchini yo'qolishiga sabab bo'ladi. Kino bir jamoa bo'lib, yaratiladigan ijodiy asar, uni yaratayotgan guruhdagi har bir inson, har bir a'zo o'zining topqirligi, iste'dodi, noyob hunari bilan umumiy ishga hissa qo'shishi lozim.

Kino san'atining asosi adabiyotga borib taqalarkan, unda ham adabiyotda bo'lgani singari kabi o'zining hilma-xilligi bilan ajralib turadi. Kinoning o'ziga hosligi haqida gapirganda, biz undagi tasvirning mazmunidan kelib chiqamiz. Ekran asari real voqealikka asoslanadi. Filmning ishontira olish quvvatini hayotning o'zi sinovdan o'tkazadi. Teatrdagi san'at bilan ekrandagi san'atning bir-biridan chuqur farqlanishi shu nuqtalardan boshlanadi. Sahna uchun rol oynovchi aktyorning tashqi ko'rinishi unchalik ahamiyatga ega emas, teatrdagi dekoratsiyalar ham o'ta shartli darajada bajariladi, goyo teatr tomoshabini bilan sahna san'ati o'rtasida qandaydir bir-birini tushuna olish, kelishuvchilik harakati bordek. Kinoda esa bunaqa emas.

Filmni suratga olishda rol oynayotgan aktyor o'z qahramoniga har tomonlama ko'rinishi, gavdasi, yoshi, tashqi ko'rinishi va psixologik parametrlari to'g'ri kelishi, ya'ni oynayotgan rolga quyib qoygandek mos tushishi kerak. Shuning uchun ham kinorejissor filmni suratga olinishidan avval turli xil kastinglar, fotosinov va kinosinovlar o'tkazadi, aktyorni ba'zi epizodlarida oynatib, imtihon qiladi. Bunday sinovlarda hamma narsa qad-qomad o'hshashligi, yuz-ko'z, chehra o'hshashligi, aktyorning talaffuzi, intellekti, bilim va tushunchalari hama-hammasi rejissorning imtihonidan o'tishi shart.

Foto va kinosinovlar tugab, aktyorlar film qahramonlari kiyimida suratlarga tushirib olinadi, bo'lajak filmning eskizlari tayyorlanadi. Endi bu fotosinov va kinosinov natijalari muhrlangan suratlarni, eskizlarni badiiy kengash a'zolari muhokama qilib, aktyorlarni o'sha rollarga tasdiqlab berishi kerak. Muhokamada postanovkachi-rejissyor u yoki bu rolni oynash uchun nega aynan shu aktyorni tanlagani, aktyorning mahorati qaysi jihatlari bilan o'ziga ma'qul tushgani va hakozolarni aytib, nomzod aktyorlarni shu rolni oynashga tavsiya qiladi. Badiiy kengash a'zolari tavsiya qilinayotgan aktyorlarni o'sha rol ko'rinishiga qanchalik mos tushayotgani, uning ijro mahorati qay darajadiligini hisobga olib, muhokama qiladi, ma'qullaydi yoki e'tiroz bildiradi, tasdiqlab beradi yoki tasdiqdan o'tkazmaydi. Sababi sifat darajaning yuqori pog'onada bo'lishida va saviyaviy, ma'noli syujet va mavzuning dolzarbligini his etish o'ta muhim va zarur. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, televideniya shu vaqtga qadar juda ko'p kanallar ochildi, biroq biz bu kanallarda faqatgina ko'ngilochar dasturlar bilan cheklanib qolmasdan, dolzarb oilaviy muammolarga yechim topish maqsadida tokshou dasturlar ishlab chiqishimiz kerak deb hisoblayman. Sababi ohirgi damlarda juda ko'p yosh oilalar qisqa vaqt ichida sababsiz ajralib ketmoqda. Bularga sabab masulyatsizlik, hiyonat, ota-onaga va turmush o'rtog'iga nisbatan hurmatsizlik yosh oilani jar yoqasiga oilib kelib qoymoqda. Maqsadim o'sib kelayotgan, balog'atga yetgan yoshlarni, oilaga jiddiy munosabatda bo'lishini va oila muqaddas vatan ekanligini uqtirishdir.

Adabiyotlar royxati:

1. M.Muhamedov, F.Fayziyeva, V.Ablyayeva. Televideniye asoslari. – Toshkent, 2009.
2. F.Fayzieva. Kino-telessenariy san'ati. Toshkent 2020.

Ramuza Qazaqbayeva,
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti magistranti
Ilmiy rahbar: f.f.n., dotsent Z.Arislanbayeva

MILLIY ESTRADA SAN’ATINI RIVOJLANTIRILISHIGA YANGICHA YONDASHUV

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda madaniyat va san’at sohasini rivojlantirish, jahon miqyosidagi ilg‘or tajribalar asosida zamonaviy madaniyat va san’at muassasalari barpo etish, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ijodkor ziyolilarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash masalalariga davlatimiz tomonidan ustuvor ahamiyat qaratib kelinmoqda.

Aholi, xususan, yoshlarning madaniy saviyasini yuksaltirish, ularni milliy va umumbashariy madaniyatning eng yaxshi namunalaridan bahramand etish, shu asosda ma’naviy yetuk, barkamol shaxslarni tarbiyalash, yosh iste’dod egalarining qobiliyati va salohiyatini ro‘yobga chiqarish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi.

Aholining madaniy va estetik ehtiyojlarini yanada to‘la qondirishga, teatr, musiqa, tasviriy san’at hamda boshqa san’at turlarini rivojlantirishga, xalqimiz tarixi va bugungi hayotining eng yorqin sahifalarini, mamlakatimizning erkin demokratik taraqqiyotini aks ettiruvchi asarlar yaratishda ijodiy jamoalarga har tomonlama yordam ko‘rsatishga alohida e’tibor qaratildi [1.56].

Badiiy ijod, shu jumladan, teatr, musiqa, xoreografiya, estrada, sirk va xalq amaliy san’atini yanada rivojlantirishni rag‘batlantirish, xalqimiz tarixi va bugungi hayotining eng yorqin sahifalarini, mamlakatimizning erkin demokratik taraqqiyotini aks ettiruvchi asarlar yaratishda ijodiy jamoalarga, ayniqsa, ijodkor yoshlarga har tomonlama ko‘maklashish yo‘lga qo‘yildi [2.117].

Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorida takitlaganidek milliy estrada san’atini rivojlantirish va muvofiqlashtirish bo‘yicha

kengash huzuridagi Estrada san'atini rivojlantirish jamg'armasi negizida byudjetdan tashqari Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi tashkil qilindi.

Konsert-tomosha faoliyatini amalga oshirish huquqini beradigan litsenziya olish uchun to'lanadigan davlat boji ajratmalari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tizimidagi tashkilotlarning byudjetdan tashqari mablag'lari va daromadlaridan ajratmalar Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi daromadlarining manbalari etib belgilandi. Jamg'arma mablag'lari "O'zbekkonsert" davlat muassasasi ta'minotiga, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tizimi muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga va xodimlarini moddiy rag'batlantirishga yo'naltirildi [3.156].

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tuzilmasidagi R.Glier nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa akademik litseyi, V.Uspenskiy nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa akademik litseyi, Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa va san'at akademik litseyi, bolalar musiqa va san'at maktablari, shuningdek, Madaniy-ommaviy tadbirlarni yuqori darajada o'tkazishni kengaytirish maqsadida "Istiqlol" va "Turkiston" san'at saroylari Toshkent shahar hokimiyati ixtiyoridan Madaniyat vazirligi tasarrufiga o'tkazildi, ularning o'z daromadlari bilan qoplanmaydigan qismidagi xarajatlarini moliyalashtirish uchun respublika byudjetidan mablag' ajratilishi belgilandi.

Shu bilan birga, madaniyat va san'at sohasini boshqarishda eskicha usullar saqlanib qolayotgani, mavjud muammolarni hal etish bo'yicha kompleks yondashuvning yetishmasligi, madaniyat muassasalarining faoliyatini tashkil etish, aholiga madaniy xizmat ko'rsatishda oqsoqlikka yo'l qo'yilayotgani, aksariyat joylarda madaniyat va san'at maskanlarining moddiy-texnik bazasi bugungi kun talablariga javob bermasligini qayd etish zarur. Ayniqsa, soha uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlashda mavjud talab va ehtiyojlarni hisobga olmaslik, ularni qayta tayyorlash, malakasini oshirish borasida puxta tizim yaratilmagani madaniyat sohasida yagona davlat siyosatini samarali amalga oshirish, bu yo'nalishdagi ustuvor vazifalarni to'liq bajarish imkonini bermayapti [4.87].

Bugun estrada sohasida malakali kadrlar tayyorlash uchun Milliy estrada san'atini rivojlantirish va muvofiqlashtirish Kengashi Nizomida ko'zda tutilgan dasturiy maqsadlarni amalga oshirish, uning tavsiya va qarorlarini bajarish; estrada san'atini rivojlantirishga qaratilgan tashkiliy-ijodiy ishlarni olib borish; viloyatlardagi hududiy bo'linmalar faoliyatiga rahbarlik qilish; estrada jamoalari va yakkaxon ijrochilar tomonidan aholiga madaniy xizmat ko'rsatishni takomillashtirish lozim [5.123].

Shuningdek, estrada san'atida yangi iste'dodlarning yuzaga chiqishi, ijodiy jamoalar va yakkaxon ijrochilar repertuarlarini doimiy ravishda yangilash hamda mukammallashtirish uchun ilg'or iqtisodiy-ijodiy zamini faoliyatini muvofiqlashtirish, bu sohadagi bozorning talab va takliflarini o'rganish maqsadga muvofiqdir.

O'zbekiston Respublikasida va uning tashqarisida gastrol-kontsert faoliyatini amalga oshirish, to'ylar, yubileylar va boshqa tantanalarga kontsert xizmati ko'rsatish huquqi uchun Ijodiy ko'maklashish vakillari guruhi xulosalari asosida litsenziyalar berish lozim.

Estrada jamoalarining moddiy-ishlab chiqarish bazasini rivojlantirish, kengaytirish, rekonstruksiya qilish va texnika bilan qayta jihozlashga qaratilgan ishlarni amalga oshirish darkor.

Estrada jamoalari hamda yakka ijrochilar faoliyatining samaradorligini ta'minlovchi boshqaruv tizimini yaratilsa moddiy rag'batlantirishning zamonaviy shakllari va uslublari joriy etilsa estrada san'atini rivojlantirishda kadrlar tayyorlash muammosi ijobiy hal etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-maydagi PF-6000-son qarori.
2. Abdurahimov B, Rasultoyev J, Norbo'tayev Y. O'zbek estrada qo'shiqchiligi: taqlid va talqin. – Toshkent: San'at, 2006.

3. Ahmedov F. Ommaviy bayramlar rejissurasi asoslari. – Toshkent: Aloqachi, 2008. - 424 b.

4. Amanullayeva D, Amanova N. Istoriya djaza i estradnoy muziki. – Toshkent: Sanat, 2010.

Sunbula Hamitova,
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti magistranti
Ilmiy rahbar: pedagogika fanlari
bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor v.b. J.Mamatqosimov

BOLALAR TEATRINING YOSHLAR DUNYOQARASHI VA MA’NAVIY TARBIYASIGA TA’SIRI

Hozirgi zamonaviy yoshlar dunyoqarashini va ma’naviyatini shakllantirishda bolalar teatrining o‘rni beqiyos. Sababi, bolalar teatri spektakllar namoyishi orqali yosh tomoshabinlarga nimanidir o‘rgata oladi. Umuman olganda teatr san’ati, bugungi kun kishisini, ayniqsa zamonaviy yoshlarni o‘z hayotida, o‘z kelajagida sog‘lom muhit tashkil etishida, ma’naviyatini oshirishda muhim o‘rinni egallaydi.

Yoshlar ma’naviyati deganda, tasavvurimizda ularning xulqi, ma’naviyati va odob-ahloqi gavdalanadi. Bular o‘z-o‘zidan ota-ona tarbiyasi, mahalla nazorati, ilm dargohlaridan olgan ta’lim-u, hayotiy kuzatishlar orqali shakllanadi. Yana bir maskan borki, hayotning qiziqarli-yu ajoyib g‘aroyibotlarga boy sehrlil hayoti teatr deb atalmish muqaddas dargohda namoyon bo‘ladi.

Zamonaviy yoshlarning ma’naviyatini shakllantirishda tarbiyaviy spektakllarning o‘rni nihoyatda beqiyos. Teatrga borish barchaga ayniqsa, bolalar uchun bayramga aylanishi kerak. Bu yerda bolalarni nafaqat spektakl balki zal, sahna va uning jihozlari ham lol qoldirishi bilan birga yana kelishga ishtiyoq uyg‘ota olishi kerak. Go‘dakligidanoq bolalarni telefon-u televizorga o‘rgatish ularning ma’naviy dunyosini boyitib qoya olmasligi barchaga tayin bo‘lganidek, ulardan chiqayotgan zaharli nurlardan zararlanish uchun vaqti va umri yetarli bo‘ladi, hali.

Teatr bu – tarbiya maskani. Yoshlarimizni turli mafkuraviy tahdidlar va g‘araz niyatli kuchlardan, ta’sirlardan asrab-avaylashga ustuvor ahamiyat qaratmoqdamiz. Yoshlarni to‘g‘ri yo‘lga boshlashda esa faqatgina pand-nasihat berish bilan kifoyalanib bo‘lmaydi. Ezgulikni, vatanparvarlikni, insoniy fazilatlarini kamol toptirishga xizmat qiladigan amaliy ishlar qilish kerak. Ana shunday amaliy tarbiya omillaridan biri bu teatrdir [1, 22].

Bejizga, teatr – jamiyat hayotining ko'zgusi deyishmaydi. Injiq va qaysar bolakaylarni ham, bir narsa o'qishga qiziqmaydigan, qo'liga umuman kitob olmaydigan o'quvchi yoshlarni ham teatr orqali tarbiyalash, o'qishga qiziqтира olish mumkin.

Bolalar teatrning asosiy vazifasi – yosh tomoshabin bilan bolalar teatri o'rtasidagi aloqani mustahkamlash, bolalarni, zamonaviy o'quvchi yoshlarni teatrغا yana qaytib kelishi uchun zamin yaratish, aktyorlar mahoratli ijrosi bilan bolalarning murg'ak qalbiga teatrغا bo'lgan muhabbatini oshirish, teatrdan olgan tarbiyaviy xulosalarni kelajakdagi hayotida qo'llashdan iborat. Bu orqali esa bolalar teatri ezgulik hissini zamonaviy yoshlar qalbida shakllantirib boradi.

Agar yosh tomoshabinlar teatrlari sahnasidagi aksariyat spektakllar yosh tomoshabin yoshiga to'g'ri kelmasa, mavzu va g'oyasi keng mushohadaga chorlaydigan, jiddiy, tarixiy matnlardan iborat bo'lsa tabiiyki, yoshlar ularga darhol ergashavermaydi, yosh tomoshabin ushbu tomoshani hazm qilishi qiyinroq kechadi. Shu sababdan ham, yosh tomoshabinlar teatri targ'ibot ishini eng avvalo bolalar bog'chasidan boshlash kerak, bolalarni haqiqiy qadriyatlarga va sahnaviy madaniyat bilimlariga o'rgatish lozim.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim muassasalarida teatr jamoalarining sahnalashtirilgan spektakllar namoyishini kuzatamiz. Asosan yangi yil, Navro'z sayllarida ularning ijodiy ishlariga guvoh bo'lamiz. Aytib o'tish joizki, kichkintoylar faqat qorboboyu, qorqizlar, yalmog'izu ayiqpolvonlarning chiqishlari bilan cheklanib qolmasligi, ularga tarbiyaviy jihatdan muhimroq va saviyali kichik spektakllar namoyishi zarur. Bu borada dramaturgiyani ham ma'suliyatga chorlaymiz.

Yoshlikdagi his tuyg'ular keyinchalik shakllanib borishi sir emas. Ezgulikning, adolatning va halollikning hamisha g'olib bo'lishi, ularda tarbiyaning ijobiy tomonlari ochilishiga sabab bo'ladi. Ertak qahramonlari deymizmi, yo bo'lmasam zamonaviy qahramonlarni ularni olib chiqish, o'rnak sifatida ko'rsatishimiz muhim masaladir [2, 36].

Shu o'rinda yosh tomoshabinlar teatriga bir muncha mas'uliyatni yuklaymiz. Mamlakatimizda yosh avlod ma'naviyatini yuksaltirish, o'g'il qizlarning badiiy - estetik didini to'g'ri shakllantirish, uni yuksaltirish masalalariga doimiy e'tibor qaratib kelinmoqda.

Bolalarni milliy madaniyat va umuminsoniy qadriyatlar bilan tanishtirish, ularni rivojlantirish davlat talablarining maqsadidadir. Bolaga maktabgacha yoshda berilgan bilim uning butun hayoti davomida yetakchi o'rinni egallaydi. Jamiyatimizda olib borilayotgan islohotlar ko'lami, rivojlanib borayotgan fan-texnika taraqqiyoti davrida ota-onalar farzandlariga bugungi kun talablaridan kelib chiqqan holda, ularning yoshiga munosib va o'ziga xos xususiyatlarni inobatga olgan holda kerakli ta'lim-tarbiyani berib borish, ma'naviyati yuksak har tomonlama yetuk inson qilib voyaga yetkazish lozimligini tobora anglab yetmoqdalar [3, 46].

O'zbekiston davlat yosh tomoshabinlar teatri o'zining tabiatiga ko'ra jozibali bo'lishi bilan bir qatorda doimiy tomoshabinga egaligi bilan ajralib turadi. Lekin sharti shuki, tomosha albatta qiziqarli shuningdek ibratli bo'lishi lozim. O'sha spektakldan keyin tomoshabinlardan hech bo'lmaganda bittasi bo'lsada o'ziga ibratli xulosa chiqara olsa teatr o'z vazifasini bajargan hisoblanadi.

Teatr donishmandlaridan biri – “Bolalar spektakli xuddi kattalarniki kabi, lekin undan o'n chandon mukammalroq, badiiy barkamolroq bo'lishi lozim” – degan ekan. Xalq og'zaki ijodining eng yuksak namunalaridan bo'lmish doston va afsonalarning zamonaviy yoshlar ma'naviyatidagi o'rni beqiyos. Ulardagi millatimizga xos bo'lgan ulug'vorlik, bag'rikenglik, oqillik, bunyodkorlik, yuksak g'urur va bahodirlik ifodasi har bir bola qalbida faxr tuyg'usini uyg'otadi.

Jumladan, O'zbekiston davlat yosh tomoshabinlar teatrida mahorat bilan sahnalashtirilgan va ijro etilgan, “Shiroq” spektaklida Sak qabilasining oddiy cho'poni Shiroqning qahramonliklari yosh avlod ma'naviy dunyosining boyishida nihoyatda muhim o'rinni egallaydi. Bolalarga ana shunday spektakl tomoshalarini ko'rsatish, ularning ongiga milliy urf-odatlarimiz, an'analarimizni singdirish, shu aziz vatan barchamizniki ekanligini uqtirish, har tomonlama ma'naviy barkamol inson qilib tarbiyalash, tevarak-atrofdan bo'layotgan voqea-hodisalarga adolatli

munosabat bildirish, o'zining odobidagi kamchiliklarni anglashiga, tabiatni asrab-avaylab, beg'ubor qalbida mehr uyg'otishga yordam beradi.

“Bolalar teatrining zamonaviy yoshlar dunyoqarashi va ma'naviy tarbiyasiga ta'siri” mavzusida yozilgan maqolaga xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bolalar uchun mo'ljallangan spektakllar eng avvalo, bolalarning ma'naviy, intellektual hamda etik va estetik rivojlanishiga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Odam jismonan baquvvat, bilimli, har ishda chaqqon, epchil bo'lishi mumkin. Ammo, oqko'ngil, samimiy, iymon-e'tiqodli, insonparvar, yurtparvar, bo'lmasa hayotda o'zidan yaxshi nom, yaxshi iz qoldirolmaydi. Teatr san'ati bolaning ana shunday go'zal tuyg'ular, insoniy fazilatlar sohibi bo'lib shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar royxati:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 172 b.

2. Ikromov.H. O'zbekiston davlat yosh tomoshabinlar teatri (tiklanish va taraqqiyot muammolari). “O'zbekiston madaniyati” gazetasi, 1977-yil, 31-may, // № 4, – 12 b.

3. Qodirov M. Bolalar teatri // Teatr, 2002. № 3, – 6 b.

Adham Farmonov,
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti magistranti
Ilmiy rahbar: O‘zbekistonda xizmat
ko‘rsatgan artist A.Bekchanov

PARODIYA SAN’ATI HAQIDA

“O‘xshatish san’ati” atamasi teatrshunoslik fanida kam tilga olingan bo‘lsa-da, teatr san’atining negizini tashkil etadi. Professor Muxsin Qodirov tadqiqotlarida kulgi san’atining nazariy asoslari mazkur atamaga tayanib ishlab chiqilgani ham bejiz emas. Aslida “Teatr san’atining asosiy talablaridan biri ijrochi aktyorning boshqa bir inson yoki mavjudod qiyofasi va holatiga kirib, o‘sha qiyofa va holatda harakat qilishi, sahnaviy obraz yaratishidir. Aktyor qiyofasi va ruhiy holatini o‘zgartirganiga nainki tomoshabinni, balki, o‘zini ham ishontirishi, o‘sha qahramon, o‘sha mavjudod hayoti bilan yashashi kerak. O‘shanda obraz tabiiy, hayotiy, ishonarli va jozibali chiqadi. Bu uchun antik teatrdan aktyorlar maxsus niqoblardan, haybatli qilib ko‘rsatadigan bosh kiyimlardan, poshnasi baland poyafzallar va yorqin liboslardan foydalanishgan”¹⁴. Bunday mulohazalarni Ma‘mur Umarov tadqiqotlarida ham kuzatishimiz mumkin. Uning ta’kidlashicha, insoniyat o‘z xursandchiligini yoki qayg‘usini – so‘z, kuy, qo‘shiq o‘yin yoki raqsdan ifodalaydi. Tabiat ofatlariga qarshi birgalikda xudolarga iltijo qilish natijasida xor paydo bo‘ldi. Xor ijrosidagi iltijolar bir mavzu yakunlanguncha, vaqt o‘lchovi jihatidan, yakka iltijoga nisbatan ko‘prok miqdorda harakat sarf qilingan. Natijada, katta shakldagi tomoshalar paydo bo‘lgan. Demak, insoniyat azaldan kichik yoki katta shakldagi tomoshalar bilan oshno ekan”¹⁵. Shundan ko‘rinadiki eng qadimgi davrlardan oq ajdodlarimiz hayotda nimaniki tasavvur qilsa, shuni o‘z harakatlari va ovoz ohanglari bilan o‘xshatishga intilishgan. Bu fikr estrada aktyorlari ijodiga ham tegishli. Ular ham berilgan shart-sharoitlarda boshqa bir qiyofaga kirib va o‘sha qiyofada bemalol harakatlanib, turli ifoda vositalari orqali badiiy obraz yaratadilar. O‘xshatish san’atida an’anaviy teatr uchun eng muhim belgi - aktyorning bir

¹⁴. Qodirov M. Tomosha san’ati ʻtmiasha va bugun.- T.: Mumtoz sʻz, 2011. 12-13 b.

¹⁵ Umarov M. Estrada va ommaiy tomoshalar tarixi. - T.: Yangi asr avlodi, 2009. 317-6.

qiyofadan boshqa qiyofaga kirishi, o'zining hatti-harakati bilan tomoshabinlarni ham shunga ishonтира olish mahorati ko'zga tashlanadi.

O'xshatish san'atining asl mohiyati va turlari qadimgi yunon adabiy manbalarida nisbatan aniqroq yoritilgan. Buyuk faylasuf va olim, qomusiy ilm sohibi Aristotel asarlari eng qadimiy va noyob manbalar qatoriga kiradi. Olim tomonidan yaratilgan va ayni paytda jahonda yuzaga kelgan badiiy ijodning eng qadimgi ilmiy-adabiy manbasi - "Poetika" (poeziya san'ati haqida) risolasida "o'xshatish san'ati" haqida dastlabki ilmiy qarashlar uchraydi. Mazkur asar o'z davrigacha qilingan ishlarning eng mukammali sifatida tan olingan bo'lib, hozirgacha o'z ahamiyatini yo'qotmay kelmoqda. Unda badiiy asarga nisbatan poeziya atamasi ishlatilgan. Poeziyaning drama, epos, lirika kabi turlari va ularning ko'rinishlariga baho berilgan. Aristotel poeziyani haqli ravishda "o'xshatish san'ati" deb ataydi. U epos va tragediyani, komediya va dramani, qasida va madhiyani, ya'ni ijro etishning barchasini "o'xshatish san'ati" sifatida baholaydi. Ayni paytda ularning ichki qonuniyatlari, talab va xususiyatlarini o'rganar ekan, haqli ravishda uchta muhim jihatlarni ajratib ko'rsatadi. Bular quyidagilardir:

- tasvirlashning turli vositalari bilan o'xshatish;
- tasvirlash predmeti orqali o'xshatish;
- rang-barang noo'xshash usullar bilan faqlanadigan o'xshatishlar.¹⁶

Tasvirlashning turli vositalari degan tushuncha birinchi galda tilga olinishi bejiz emas. Negaki, san'atkorlarning ba'zilar o'z hayoti davomida to'plagan va ustozlaridan o'zlashtirgan mahorati bilan, boshqalari esa asta sekin to'plagan amaliy va nazariy malakalari evaziga, ayrimlari esa tug'ma iste'dodlari tufayli turli vositalar yordamida har xil voqea - xodisalarning badiiy timsolini tasvirlashni - o'xshatishni uddalaydilar. Aktyorlar esa tasvirlanayotgan obrazni tomoshabinlar ko'z oldida qiziqarli tarzda, badiiy shakldagi o'xshashini yarata oladilar. Tabiiyki, "ularning barchasida alohida ritm, yo so'z va yohud garmoniya yordamida, yoki shularning hammasini uyg'unlashtirgan holda ifoda etiladi. Ayrim san'at turlari faqatgina ritm,

¹⁶ Аристотел. Поэтика.- Т.: Янги аср авлоди, 2010. 40- б.

ohang va vazndan foydalangan holda bu vazifani bajaradi. Ularning ba'zilar mazkur ifoda vositalarining barchasidan birdaniga, boshqalari esa yuqoridagilardan farqli ravishda ayrim qismlaridagina foydalanadilar xolos"¹⁷.

Estrada sohasida faoliyat olib borayotgan bugungi zamonaviy kulgi ustalari ham aksar hollarda sahnada muayyan shaxslarning qiyofalarini tasvirlaydilar. Ularning qahramonlari uch xil xarakterda – yaxshi, yomon va o'rtacha darajada bo'lishi mumkin. Shuningdek, xilma-xil fazilatlar, voqea-xodisalarning badiiy qayta ishlangan tasvirlarini o'xshatish ham har xil bo'ladi. Sahnada esa go'yo hayotdagiday, ishonchli va oddiy, hamma uchun birdek tushunarli fazilatlar o'xshatib gavdalantirilishi shart. Lozim bo'lganda – eng yaxshilarini, eng ibratlilarini, tomoshabin uchun zarur bo'lganda – oddiy odamlarni tasvirini tabiiy ravishda o'xshata olish esa katta malaka talab etadi. Bu talab barcha janrlar va san'at turlariga birdek tegishli.

Parodiyalarda ham miniatyuralarda ham, taqlid va muqallidchilikda ham bu talab birinchi o'ringa chiqadi. Tomoshabinlar oldida eng muhimi, tasvirlanayotgan obrazning barcha sifatlarini, badiiy qiyofasini to'liq ifodalay olish katta mahorat talab qiladi. To'g'ri, komediya va satira orasida ham o'ziga hos tafovut mavjud: komediya hozirgi vaqtda yashayotganlardan ko'ra yomonroqlarni; satira esa, o'ta xavfli fazilatlarini kulgili tarzda tasvir etishga intiladi. Ijroda bularni farqlay olish esa faqat qobiliyatlilarga nasib qiladi.

San'atkorlar hayotiy va to'qima kulgili voqealarni turli usullarda badiiy aks ettiradilar, ya'ni o'xshatadilar. Bu sohadagi ijro etiladigan barcha asarlar ba'zida aks ettirish usullari jihatidan ham bir-biridan farqlanadi. Zotan, ijodkor bir xil narsani bir xil vosita bilan tasvirlaganda uch nuqtai nazardan: muallif voqealarga aralashmay tashqaridan kuzatganday; yoki xuddi o'zi qatnashganday; ba'zan xuddi o'zini ifodalashi mumkin. San'atkorlar ijro davomida muallif qolipida qolishi yohud aks ettiriluvchi shaxslarni boyitibroq gavdalantirishi mumkin. Ammo bu qudrat kamdan - kam hollardagina, eng qobiliyatlilar ijrosida uchraydi.

¹⁷. IIIy acap. 40- 6.

Zamonaviy kulgi estradasida voqea-xodisalar yoki shaxslarning tashqi ko‘rinishlari va xarakterini sahnada turli usullar hamda vositalar orqali aks ettiradilar, ya’ni o‘xshatadilar. Bir voqeani bir xil vositalar bilan aks ettirgan san’atkor uning ichiga imkon qadar chuqurroq kira olishi yoki unga aralashmay ham tashqaridan kuzatib yengilgina tasvirlab berishi ham mumkin borib taqalad. Voqeani, uni tashqaridan kuzatganlar ham kuzatganlarini o‘xshatib tasvirlaydilar. Har ikki holat ham san’atkorning saviyasi va mahoratiga

“O‘xshatish san’ati”da azaldan va hozirda ham garmoniya hamda ritm katta ahamiyat kasb etadi. Odamlar qadimdanoq tabiatan o‘xshatishga qobiliyatlidirlarki, ular buni oz-ozdan taraqqiy ettira borib, badiha harakat, so‘zamollik asosida asta-sekin sahnaviy ijroni – o‘xshatish san’atini, haqiqiy tomosha kurtaklarini yuzaga keltirganliklarini Aristotel isbotlab bergan ¹⁸.

Aslida o‘xshatish san’ati ijodkorlarning shaxsiy xarakteriga muvofiq ikki turga bo‘linadi: chunonchi, jiddiyroq ijodkorlar go‘zal qiliqlar va unga monand kishilarni tasvir etadilar. Xuddi oldingilari madhiyalar, satirik qo‘shiqalar yaratganidek, keyingilari dastlab hajviy qo‘shiqalar to‘qiydilar, keyin esa jiddiyroqlariga o‘tilishi tabiiy holga aylanib qoldi, deb fikrini davom ettiradi faylasuf.

Ayrim estrada san’ati namoyondalari kulgining murakkab ijroga mo‘ljallangan turlarida ham, so‘z bilan bog‘liq chiqishlarda ham birdek shuhratga erisha olishadi. Ular shu qadar qobiliyatliki, badiiy jihatdan kulgili o‘xshatishlarni ijro qilibgina qolmay, balki sahnada, dardli tasvirlarni ham yarata oladi. Bunday san’atkorlar masxaralash bilan chegaralanmay, kulgili narsaga dardli parдоз berib, tomoshabinlarda o‘zgacha kayfiyat keltirib chiqara oladilar. Ular o‘z ijodida birgina asarning o‘zi qanchalik komediyaga taalluqli bo‘lsa, u ayni paytda fojiaga ham chambarchas bog‘langanligini namoyish eta oladilar. Kulgining tagida fojiya yotganligini ramziy ma’noda tasvirlay oladilar. Estradadagi yuqori saviyadagi kulgili tomoshalarda tragediya va komediya bir-birini o‘zaro to‘ldiradi. Ammo

¹⁸. Аристотел. Поэтика.- Т.: Янги аср авлоди, 2010. 4- 6

tabiatan kulgiga moyil bo'lgan ijrochilar talaygina. Biz ularni komik aktyorlar deb atab kelamiz.

Estradada komediyaning o'ziga xos falsafiy mohiyati namoyon bo'ladi. Tasvirlanayotgan salbiy qahramonlarning yomon sifatlarini oshkor etib, hayotda uchraydigan shunday kimsalarga nisbatan nafrat hislarini o'yg'otish orqali tomoshabinni tarbiyalash mumkin. Bunday kulgili o'xshatishlar, xunuklikning bir qismini namoyon qilish xolos. Aslida, kulgili narsa – bu hech kimning dilini og'ritmaydigan va hech kimga zarar keltirmaydigan ba'zi bir nuqson va majruhlik ifodasidir. Demak kulgili nuqson yoki xodisa, xunuklik va ayniganlikni badiiy tasvirlash vositasida o'xshatishdir.

O'xshatish san'atining eng muhim komponentlaridan yana biri bu – tasvirlanayotgan shaxsning xarakterini ochib berishdir. Xarakterni ifodalashdan to'rt maqsad ko'zda tutiladi, deydi Aristotel¹⁹. Asosiysi tragediyaga tanlangan bosh qahramon xarakteri yaxshi bo'lishi kerak. U albatta barchaga namuna bo'lishi lozim. Demak, bosh qahramon o'zining aytayotgan gaplari va qilayotgan ishlarida qandaydir aniq maqsadga amal qilsa, u o'z xarakteriga ega bo'ladi. Agar shaxs yaxshi maqsadlarni o'z oldiga qo'ysa, xarakteri ham yaxshi bo'ladi. Personajlarning xarakteri maqsadiga va uning amalga oshishi uchun tanlagan yo'liga bog'liq.

Har yomonning bir yaxshi fazilati, har yaxshining bir yomon qiligi bor, deb bejizga aytilmagan, dono xalqimiz. Faqat uni ilg'ash, sezish, aniq o'xshata olish kerak xolos.

Ikkinchidan, xarakterlar doimo o'ziga hos bo'lishi kerak: erkaklar xarakter jihatdan mardona bo'lishi mumkin, ammo ayol kishiga erkaklarga hos mardlik bilan kuchlilik yarashmaydi. Ularning o'z ichki olami borligini va zaiflik ayollarga hosligini unutmashlik kerak.

Uchinchidan, har qanday vaziyatlarda ham yaratilayotgan xarakterlar (hayotiy) haqqoniy bo'lishi ijodkorning yarim muvaffaqiyati garoviga aylanib kelgan va hozir

¹⁹ Аристотел. Поэтика.- Т.: Янги аср авлоди, 2010. 14- б.

ham shunday. Bunda o‘xshatish san’atiga nisbatan “yondirolsang-yon, aksincha, o‘zingni o‘tga, suvga tashlashing befoyda”, - deydi xalqimiz.

To‘rtinchidan, tasvirlanayotgan qahramonlar xarakterlari mantiqan va izchil bo‘lishi lozim. Hatto, tasvirlanayotgan shaxs xarakteri noizchil bo‘lishi, uning barcha ishlariga noizchilik xos ekanligini ta’kidlab turadi. Ammo xarakterning mana shu noizchilligi ham personajning intilishiga ijobiy ta’sir etishiga erishmoq darkor. Zarurat tufayli emas, balki o‘zicha tuban bo‘lgan kishining xarakteriga nomunosib va yarashmagan ijobiy intilishlarni uyg‘unlashtirgan holda hayotiy qilib yaratib bo‘lmaydi, deydi Aristotel²⁰.

Yaratilayotgan harakterlarda ham, voqealar tarkibida ham doimo zaruratini yoki ehtimollikni, ya’ni bo‘lishi darkor ekanligini izlash kerak, ya’ni kimdir qaysidir gapni, yo ishni zaruriyat tufayli, yoki ehtiyoj tug‘ilganiday gapirsin, yo bajarsin, deydi faylasuf. U yana hozir bo‘layotgan voqea avvalgi voqea tufayli, zaruriyat taqazosi bilan yohud ehtimol tug‘ilganiday sodir bo‘lishi lozimligini ta’kidlaydi.

Estrada san’atkori biror bir hayotiy voqeani badiiy qayta ishlab, tartibga solib va uni so‘z bilan ifodalayotganida, iloji boricha, zarurat tufayli yoki ehtiyoj borligi uchun gapirsin. Ana shunda u go‘yo voqealarda o‘zi qatnashayotganday his qiladi, barcha zarur tasvirlarni izlab topadi va hech qanday mantiqsizlikka yo‘l qo‘ymaydi. Hatto imo-ishoralar, qo‘llar xatto gavda ham tasvirni ifodalashga xizmat qiladi. Personajlarning ehtiroslarini tabiatan izchil va to‘g‘ri tasvirlagan san’atkorlar tomoshabinlar ishonchiga sazovor bo‘ladilar.

O‘zi hayajonlana oladigan kulgi ustasi unga qarab turgan tomoshabinlarni hayajonlantira oladi, o‘zi g‘azablana oladigan aktyor tomoshabinlarni ham g‘azablantira oladi. Shuning uchun o‘xshatish san’ati–iste’dodli yoki majnunsifat ijodkorning qismatidir. Iste’dodli aktyorlar ruhan juda ta’sirchan, majnunsifatlari esa jazavaga moyil bo‘ladilar. Ammo har ikkalasi ham sohada tomoshabinlar uchun kerakli insonga aylanishi birinchi o‘rinda turadi.

²⁰Аристотел. Поэтика.- Т.: Янги аср авлоди, 2010. 23 - б.

Xulosa qilib aytganda, estrada teatrida ham qadimgi davrlardan to hozirga qadar muhim ahamiyatga ega bo'lgan talablardan biri bu – inson qiyofasini asliga o'xshatishdir. Demak, o'xshatish san'ati insoniyatning tabiiy ehtiyojlari negizida dunyoga kelgan. Bu vazifani asosan xalq orasidan chiqqan qiziqqlar va masxarabozlar badiiy shaklda bajarib kelganlar.

Adabiyotlar royxati:

1. Qodirov M.X. Mirshoxid Miroqilov. – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1970. – 80 b.
2. Qodirov M.X. Masxaraboz va qiziqchilar san'ati. – T.: Fan, 1971. – 207 b.
3. Qodirov M.X. Soyib Xo'jayev. – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1973. – 84 b.
4. Qodirov M.X. O'zbek teatri an'analari. – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1976. – 420 b.

Sherbek Shodiyev,
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti magistranti
Ilmiy rahbar: san’atshunoslik fanlari
nomzodi T.M.Rashidov

ZAMONAVIY KULGI ESTRADASI MILLIY O‘ZBEK TEATR **AN’ANALARI KESIMIDA**

Hozirgi milliy estradaning ilk ildizlari va teran tomirlari uzoq moziydan, san’atlarning dastlabki kurtaklari o‘sib chiqishiga zamin hozirlagan qadimgi zamonlardan oziqlanib keladi. Zero, an’anaviy teatr deb ataluvchi kulgu sohasini kishilik o‘tmishi qadar nihoyatda uzoq moziy qariga borib taqaladi. YA’ni o‘zbek xalqi an’anaviy teatr tomoshalarining dastlabki unsurlari va shakllari nihoyatda qadim-qadim zamonlardan boshlangan tarixga ega bo‘lgan san’at turidir. Shuning uchun ushbu meros ilmiy manbalarda an’anaviy teatr deb ataladi va bu mavzu professor Muxsin Qodirov tomonidan teatrshunoslik fani nuqtai nazaridan tahlil qilingan.

An’anaviy teatr bilan bog‘liq tadqiqotlarga tarixan shakllangan qiziqchilik, masxarabozlik, askiyabozlik, muqallidlar ijodi, qo‘g‘irchoq teatri, qissago‘ylik, voizlik, maddohlik kabi keng qamrovli ijrochilik namunalari kiradi. San’atshunoslar Mamajon Rahmonov, Muhsin Qodirov, Lyubov Avdeyeva, To‘lqin Obidov, Miyonbuzruk Solixov, Miron Gavrilov, Anna Troitskaya, To‘ra Qilichev va boshqalarning tadqiqot ishlarida xalqimizning ushbu merosi har tomonlama jiddiy va ilmiy tadqiq etilgan.

O‘zbek an’anaviy teatrining asosiy ko‘rinishlari va shakllari, badiiy vositalari hamda ijro uslublari haqida qator ilmiy ishlar bajarilgan bo‘lsa-da, hozirga qadar o‘rganilishi kerak bo‘lgan yangi qirralari nihoyatda ko‘p. Ayniqsa, kulgili tomoshalar shaklidagi an’anaviy teatrning o‘ziga xos yangi irralari, milliy qadriyatlarni asrab kelayotgan jihatlari o‘rganilmagan.

O‘zbek an’anaviy teatrining eng keng tarqalgan ko‘rinishlaridan biri bu - qiziq va masxarabozlar teatridir. Qiziqqlar teatri asosan Farg‘ona vodiysi va Toshkent

atroflarida rasm bo'lgan. Teatrning ijodkori va ijrochisi ustoz darajasida bo'lsa, o'rganuvchisiga nisbatan qiziq yoki qiziqchi atamasi ishlatilib kelinadi. To'daning boshlig'i va ish yurituvchisi "korfarmon" deb atalgan. Ularning repertuarini tanqid va muqallid janrlaridagi hajviy hamda yumoristik komediyalar, kulki-hikoyalar tashkil etgan.

Qiziqqlar ijodi og'zaki dramaturgiyaga asoslangan. Ular ko'rsatadigan tomoshalarning fabulasi, syujeti, ayrim barqaror savol-javoblari avvaldan ma'lum bo'lib, ijrochilar tomonidan davraga chiqishdan oldin aktyorlar mashxur tomoshalarni ko'rib, eshitib, eslab qolish qobiliyati asosida ijod qilishgan. Qiziqqlar o'z ijodlarida ko'proq so'z san'atiga tayangan, xalq poetik ijodi, til boyligi, askiyachi, mumtoz adabiyot namunalaridan ustalik bilan foydalanganlar: aktyorlar muayyan rolda o'ynaganda xarakterga yarasha liboslarda chiqsa-da, odatda, qizil, sariq yoki jigarrang matodan tikilgan nimcha yoki ko'proq kamzul kiygan"²¹. Mazkur soha ijodkorlari odatda milliy qadriyatlarimizga tayangan va ustoz darajasidagi kulgi ustalari ijodidan ta'sirlangan holda o'z dasturlarini o'zlari to'qib, o'zlari ijro etgan. Ammo har ikkisida ham, ya'ni ular yangisini to'qiganda va ijroda ustoz - shogird an'alariga qat'iy rioya qiladilar. Bu an'anaviy o'zbek teatri o'ziga xosligini ko'rsatuvchi muhim jihatdir.

O'zbek an'anaviy teatr san'atining eng qadimiysi - qiziqchilikdir. Tabiiyki, uning o'z tabiati, badiiy xususiyati va ijrochilik an'analari bor. Ushbu san'at uzoq asrlardan buyon ustozdan shogirdga o'tib, qayta-qayta sayqal topib, yana qanchadan-qancha zamona to'lqinlariga dosh berib, bizning kunlarimizga yetib kelgan. Bugungi kulgili tomoshalarning shakllanishi va tarixiy taraqqiyot jarayonlarida an'anaviy teatr qiziqchilarining ijodi alohida ajralib turadi. Xozirgi kunda vatanimizda faoliyat ko'rsatayotgan kulgi guruhlari barmoq bilan sanoqli. "So'takqo'zi", "Mirzo teatri", "Afandi", "Qahqaha", "Handalak" kabi badiiy jamoalargina muntazam ravishda faoliyat ko'rsatmoqda xolos.

²¹ Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. - Т.: Ўзбекистон, 2005. 11 том 6- б.

Hozirgi kulgi guruhlari qiziqchilari toifasi an'anaviy qiziqchilardan farq qiladi. Bular ustoz-shogird an'alaridan farqli o'laroq asosan maxsus ta'lim olib, sahna sirlarini har tomonlama o'rgangan oliy ma'lumotli san'atkorlardir. Ular professional teatrlarda kulgili rollarda chiqib yurgan malakali komiq aktyorlardan ham farq qiladi. Komik aktyorlar teatrlarda sahnalashtirilgan asarlarda muayyan voqea va uning matnlari negizida ijod qilishadi. Ular to'y va tantanalarda o'zlari mustaqil ravishda qiziqchilik qilishga qodir emas. Ammo ularning ayrimlari ham an'anaviy kulgi yo'nalishida ham zamonaviy shakllarda va hatto sahna qiziqchiligida ham bemalol obraz yarata olishini aytish kerak. Bunga misollar ko'p. Zaynobiddin Yusupov Farg'ona teatrida, Rustam Hamroqulov Namangan teatrida, Hojiboy Tojiboyev Shukur Burxonov nomidagi Nav teatrida shunday ijod qilingan. Bu an'ana davom etmoqda. Mirzabek Xolmedov, Botir Muhammadxo'jayev o'zbek drama teatrida o'ziga xos qiyofalar yaratganlar²².

O'zbek an'anaviy teatrining uzoq davom etgan tarixiy taraqqiyotida masxarabozlik san'atining ham alohida o'rni bor. Masxarabozlik - kulgi va hajv, tanqid va muqallid, dramatik hikoya, musiqa va quvnoq raqslarni mujassamlashtirgan kulgili tomoshalar turi. U asrlar davomida mehnat ahli manfaatlarini himoya qilib kelgan. Masxarabozlik ham og'zaki dramaturgiyaga, ustoz-shogirdlik an'analarga asoslangan. Bu an'anaviy teatr turi ajoyib xalq san'atidir. An'naviy teatrning bu janri juda ko'p tadqiqotlarga mavzu bo'lgan. O'zbek teatrshunosligida professor Muxsin Qodirov birinchilardan bo'lib "Masxaraboz va qiziqchilar san'ati"ni ilmiy tadqiqot obyektiga aylantirgan. Olimning shu nomdagi monografiyasida Farg'ona vodiysida uyushtirilgan fol'klor ekspeditsiyalari materiallari asosida mazkur san'atning XVIII asr oxiri va XX asr boshidagi tarixi, uning g'oyaviy-badiiy asoslari va estetik prinsiplari, xalq aktyorlari repertuarlari, ijodi va hayoti, ijrochilik mahorati tahlil etilgan. Professorning yozishicha hozirgi biz ishlatayotgan "masxara" atamasi aslida arab tilidan kirib

²² Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. Т.: Ўзбекистон, 2005. 11 том. 6- б

kelgan bo‘lib, kulish, mazax, tanqid qilish kabi ma’nolarni anglatar ekan. Taxminlarga qaraganda bu so‘z O‘zbekistonda arablar istilosidan so‘ng, ya’ni arab va fors tillari davlat va ilmu-urfon tiliga aylangandan keyin paydo bo‘lgan. Keyinchalik, fors-tojik tilidagi “boz” so‘zi qo‘shilib “masxaraboz” atamasi hosil bo‘lgan. Bu atama asosan mohir ijrochilarga nisbatan nisbatan o‘ziga hos unvon sifatida qo‘llanilgan²³. Ayrim manbalarda masxarabozlik o‘zbek an’anaviy teatrida XVIII-XX asrlarda Xorazm va Buxoro atroflarida shakllanganligi qayd etilgan²⁴.

Masxarabozlar ijodining asosini insonni qurshab turgan tabiat va jamiyat hayotidan olingan voqealar tashkil qilgan hamda timsollarni oldindan muayyan kulgili shakllarda o‘ylab qo‘yilgan, zarur paytlarda badihago‘ylik bilan ijro qilinadigan taqlidlar, tanqidiy komediyalar, kulgili hikoyalar, latifalar ijro jarayonida yaratilgan. Ular orasida “tanqid” deb ataluvchi kulgili tomoshada ikki, uch yoki to‘rt ijrochi, ba’zan undan ortiq masxaraboz maxsus liboslarda, yuzlarini bo‘yab yoki niqob kiyib ijro etadigan komediyalar alohida ajralib turgan.

Komediyalar dramaturgiya va teatrga xos ma’lum fabula, tugun, voqealar rivoji, avj nuqta va yechimga ega bo‘lib, ijro paytida barqaror savol-javoblar va harakatlarning qaytarilishi bilan birga sharoitga qarab yangi holatlar, kulgili vaziyatlar ijod qilinib, to‘qilib borilgan.

Vatanimiz hududida faoliyat olib borgan Xorazm va Buxoro masxarabozlari ijodi aksar hollarda bir birlariga o‘xshasa-da, aslida ayrim jihatlari, o‘ziga xos xususiyatlari bilan farq qilgan. Ularni ajratib turuvchi xususiyatlar talaygina. Jumladan, Buxoro maxalliy san’atkorlari shahar va qishloq masxarabozligidan iborat bo‘lib, qishloqda ko‘pincha kichik hajm va maishiy mavzudagi tomoshalar, muqallidlar ko‘rsatilgan. Shaharda esa masxarabozlar katta hajmdagi komediyalar namoyish etishgan, ularning harakatlar, mimika, savol-javoblar bo‘rttirilgan shakldagi badiiy yaxlitlikka ega bo‘lgan. Buxoro masxarabozlari sharoitga qarab o‘z tomoshalarini o‘zbek va tojik tilida olib borganlar. Xorazm masxarabozlarining

²³ Қодиров М. Масхарабоз ва кизикчилар санъати.- Т.: Фан, 1971. 87-6.

²⁴ Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. –Т.: Энциклопедия, 2003. 5-жилд, 505 -бет

qariyb barcha tomoshalarida dialog bilan bir qatorda kuy, qo‘shiq, raqs, muallaq, pontomima juda katta o‘rin egallagan²⁵.

An’anaviy teatrning ayrim tajribalari va ifoda vositalarining bir qismi ma’lum darajada yangi shakldagi o‘zbek zamonaviy teatrida ham o‘z aksini topdi. XX asrning turli yillarida ba’zi kulgi ustalari zamonaviy teatrlarning ijodiy jamoasida ishlab, o‘ziga hos mashhurlikka ega bo‘lgan. 1980-90 yillarga kelib shu ruhda ayrim spektakllar ham dunyo yuzini ko‘rdi. Xususan, o‘zbek Milliy akademik drama teatrida Yo‘ldosh Sodiqov va Marat Azimovlar tomonidan sahnalashtirilgan “Afandining besh xotini”²⁶, “Kelinlar qo‘zg‘oloni” (Said Ahmad), “Chimildiq” (Erkin Xushqaqto‘v), Abror Hidoyatov nomidagi drama teatrining “Maysaraning ishi” (Hamza), Yusufjon qiziq Shakarjonov nomidagi Farg‘ona viloyat teatrining “Toshkentga sayohat” (Hamza), “Kampir topaymi dadajon?” (Xoliq Xursandov), Yo‘ldosh Oxunboboyev nomidagi Yosh tomoshabinlar teatrining “Boz masxaraboz” (Olimjon Salimov ssenariysi), Ogahiy nomidagi Xorazm viloyat teatrining “Olma pishganda keling” (Erkin Samandar), “Jobbi jo‘jak xiylassi” (Komil Avaz) va boshqa bir qator sahna asarlari bunga misol bo‘la oladi.²⁷

O‘zbek an’anaviy teatrining yana bir ko‘rinishi bu – turli manbalarda kulgi teatri sifatida ta’riflanayotgan maxalliy askiyabozlik san’atidir²⁸. Aslida arabcha so‘z bo‘lgan askiya zakki, zehni o‘tkir, hozirjavob, so‘zamol, dono, aqlli odam ma’nolarini anglatadi. Unda san’atkorlar berilgan payrov asosida bir birlariga nisbatan topag‘onlik qilib, umumiy mavzu va ma’noni buzmagan holda raqibining gaplaridan kelib chiqib unga nisbatan zukkolik bilan aqliy “hujum”ga o‘tish tushuniladi. Unda ikki yoki o‘ndan ortiq so‘z ustalari ikki tarafga bo‘linib, turli bazmlarda, to‘y va hashamlarda, bayram va sayillarda, ayrim hollarda gap-gashtaklar yoki choyxonalarda aniq mavzu yuzasidan so‘zamollikda hozirjavoblik bilan musobaqalashishadi.

²⁶ Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. –Т.: Энциклопедия, 2003. 5-жилд, 509- бет

²⁷ Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. –Т.:Энциклопедия, 2003. 5-жилд, 507- 6

²⁸ Султонов Х. Аския.- Т.: Чўлпон, 1998. 24- б.

Askiya – xalqimiz orasida keng ildiz otgan soʻzga qurilgan tomosha sanʼatidir. Anʼanaviy teatrning mazkur janrida ijod qilgan, yaʼni mavzu payrov asosidagi hazil mutoyiba va badihagoʻylik bilan oʻzlarining soʻzamolligini, hozirjavobligini, donoligini namoyish etadilar. Tinglovchilarda mayin tabassumdan tortib qahqahagacha boʻlgan kulgilarni qoʻzgʻatuvchi sanʼat – askiya shunday oʻziga hoslikka ega. Uning payrovlarida yaʼni mavzularida boshqa sanʼatlar kabi oʻziga hos tasviriy ifoda vositalari, davriy va badiiy ruh, hayotbaxshlik tarovati bor.

Professor Muxsin Qodirovning aniqlashicha, “askiya” atamasi oʻzbeklar orasida, taxminan XVII asrdan boshlab isteʼmolga kirgan ekan²⁹. Ungacha boʻlgan davrlarda bunday ijrochilik namunalari “aytish” va “zarofat” nomlari bilan tilga olingan. Askiya mustaqil sanʼat sifatida asosan Fargʻona vodiysi va Toshkentda yaxshi rivojlangan. Manbalarda Qoʻqon xonlari Umarxon va Xudoyorxon podsholigida saroyda askiyachilarga alohida eʼtibor berilganligi qayd etilgan. Jumladan Bidiyorshum va Zokir eshon boshliq saroy qiziqlarining har biri askiya maktabini oʻtagan, eng mohir soʻzamol ustalar bilan bemalol bellasha oladigan, askiya maydonida uloqni chaqqon tashlaydigan baquvat, zukko sanʼatkorlar faoliyat olib borganlar³⁰. Ulardan tashqari Xudoyorxon saroyida Kal Rustam, Dehqon Yuzboshi, Mirzarahim quloq, Usta Matxoliq kabi soʻz ustalari ham mashhur boʻlgan.

Askiyaning bir qancha mavzulari mavjud. Ularni askiyachilar payrovlar deb atashadi. Bu borada, “Handalak”, “Uzum”, “Imorat”, “Bedana”, “Ashula” “Oʻxshatdim”, “Bilganlar-bilmaganlar”, “Gulmisiz - rayxonmisiz” kabi kabi payrovlar elga yaxshi taniish.

Mustaqillik yillarida anʼanaviy teatrning askiya turiga ham alohida eʼtibor qaratildi. Natijada ushbu sanʼat va uning namayondalari ijodi ham bir qadar ravnaq topdi. Yangi, zamon ruhiga mos mavzulardagi payrovlar xalq orasidan chiqib asta sekin zamonaviy estrada sahnalarida, hatto poytaxtimizda muntazam ravishda oʻtkazib kelinayotgan “Mustaqillik” va “Navroʻz” bayramlari tomoshalarida ham

²⁹ Қодиров М. Ўзбек анъанавий театри.- Т.: Фан, 2010. 228- б
Аския Х.Султанов. – Т.: Чўлпон, 1998. 25-б.

jaranglay boshladi. Mahoratli, el ardoqlaydigan usta askiyachilarimiz davlatimizning turli unvonlariga sazovor bo‘lmoqdalar.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek an’anaviy teatrining shakl va ko‘rinishlari talaygina. An’anaviy o‘zbek teatri tarixiga nazar tashlasak, unda askiyachilar, qiziqchilar, voizlar, hikochnavislar, muqallidchilar va maddohlar san’ati nihaytada rang-barang bo‘lganligi ko‘zga tashlanadi. Tarixan shakllangan bunday milliy teatr an’analari turli darlarda mavjud tarixiy sharoitlar tufayli goh yuksaldi, gohida esa tanazzulga yuz tutib, bizning oydin kunlarimizgacha yetib kelgan. Ana shu tarixiy taraqqiyot davomida ulkan xazina, kattagina meros to‘plangan. Hozirgi zamonaviy kulgi estradasi ham aynan milliy teatr an’alarining davomchisi va ayni paytda haqli ravishda chinakkamiga vorisidir.

Adabiyotlar royxati:

1. Qodirov M.X. Mirshoxid Miroqilov. – T.: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1970. – 80 b.
2. Qodirov M.X. Masxaraboz va qiziqchilar san’ati. – T.: Fan, 1971. – 207 b.
3. Qodirov M.X. Soyib Xo‘jayev. – T.: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1973. – 84 b.
4. Qodirov M.X. O‘zbek teatri an’analari. – T.: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1976. – 420 b.

Nurilla Usmonov,
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti magistranti
Ilmiy rahbar: O‘zbekistonda xizmat
ko‘rsatgan artist A.Bekchanov

ESTRADA VA OMMAVIY TOMOSHALARDA VOKAL-PLASTIK TALQINI

Boshdanoq estrada xonandasi ishining xususiyatini aks ettiruvchi va artistlar, ularning ustozlari oldida turgan murakkab vazifalarning ikki tomonlama sintetik xususiyatini ochib beruvchi estrada san’atida sahna obrazini yaratish nazariyasi va amaliyotini belgilab olamiz.

Ta’bir joiz bo‘lsa bir hikmatni eslatmoqchimiz. Samolyot uchayotganda uni ikki qanoti osmonda ushlab turadi va harakat qildiradi. Estrada-sahna san’atida ham xuddi shu holatni ko‘ramiz, negaki estrada ijrochisi mahorati ham vokal texnikasi va aktyorlik mahorati texnikasi singari ikki qanotda takomilga erishadi.

San’at va madaniyat institutining o‘quv pedagogik amaliyotida ham vokal (yakkaxon ijrochilik kafedrasida deb nomlanadi) va aktyorlik mahorati (u estrada san’ati kafedrasida deyiladi) singari ikki kafedra (ikki qanot) mavjud.

Rol yoki qo‘shiq ustida ishlash metodi ijodning bu har ikkala tomonini sifat jihatdan umumlashuvini va to‘la uyg‘unlashuvini talab etadi. Bizga repetitsiya jarayonining texnologiyasini ko‘rsatuvchi bu metodikaning farqlovchi jihatlarini qo‘yidagi qoidalar ko‘rinishida belgilaymiz:

- nafaqat rol ijrochisi, balki sahna obrazi muallifi ham bo‘lish zarur;
- vokal partiyasini o‘rganishning boshida obrazli va sahnaviy planda “rol yozish” (kompozitor va shoirning hammuallifi bo‘lib qolish), bunday ishlarni barcha keyingi bosqichlarda ham davom ettirish;
- dirijyor bilan o‘zaro aloqa usullarini takomillashtirish, uning ijodiy partnyori bo‘lib qolish, lekin nigohiy aloqani tomoshabinga sezdirmaslik;

- o‘z roliga rejissyorlik qilish va maqsadli ravishda mustaqil ta‘lim bilan shug‘ullanish, ya‘ni konkret estrada obrazini talqin qilish va sahna ko‘rinishini yaratish uchun zarur bo‘lgan o‘z bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirish.

Zamonaviy estrada artistlarining rol, qo‘shiq ustida ishlash usullarini tahlil qilib, qiyoslab, chog‘ishtirib va solishtirib estrada ijrochisi mahoratini shakllantirish jarayonida aktyorlik maktabi katta rol o‘ynagan va yana o‘ynashi mumkin.

Shuni ta‘kidlash lozimki, ko‘tarilayotgan muammolar na kuylash san‘ati, na ovozning chiroyli tembrini izlash, na qo‘shiqchi tomonidan vokal partiyasi ohangi va sur‘atini egallash mavzusi, na hatto talaffuz texnikasi bilan bog‘liq bo‘lmaydi, bu vokal, dirijyorlik va sahna nutqi bo‘yicha o‘qituvchilarning imtiyozi hisoblanadi.

O‘z davrida taniqli opera artisti F.I.Shalyapin shunday degan edi: “Afsus bilan ta‘kidlashim lozimki, haqiqiy vokalchi-artistlarni juda kam ko‘rdim. Yaxshi va xatto ajoyib xonandalar bor, ammo vokal san‘atkorlar, to‘la ma‘nodagi artistlar yo‘q”³¹.

Hozirgi paytda estrada, teatr, konservatoriya, san‘at va madaniyat OO‘Yulari, matbuot, maishiy turmush kabilarda biz so‘z yuritayotgan mutaxassislik qo‘yidagi sinonimik qatorga ega:

- qo‘shiqchi-aktyor,
- yakkaxon-vokalchi,
- artist-vokalchi,
- aktyor-qo‘shiqchi,

Qo‘shiqchi aktyor ijodi musiqa (qo‘shiq) va drama (sahna mahoratining yuqori darajasi) singari ikki badiiy unurning birlashuvi, ularni ijodiy jarayon chog‘ida yaxlit bir butun bo‘lib qo‘shiluvini bilan belgilanadi.

Keyingi o‘rinlarda yuritiladigan fikr opera aktyori tomonidan sahna obrazi yaratish texnologiyasini o‘rganish jarayoni, estrada qo‘shiqchi aktyorlarni mexanik ijrochilar singari ikki psixologik toifaga ajratish va namunalariga yo‘naltirish kabilarda haqidagi masalalarni qamrab oladi.

³¹ Шаляпин Ф.И. Литературное наследство. Т. 1. М., 1957. С. 349.

Shunday qilib mexanik ijrochi va ijodiy talqin etuvchi singari ikki turdagi artistlarni solishtirish zarurati paydo bo‘ladi.

Mexanik ijrochilar orasida jahon darajasidagi ajoyib xonandalar nihoyatda ko‘p, lekin ular quyidagilarni o‘zining yo‘nalishi deb hisoblaydi. YA’ni musiqani butun emotsional xususiyatlari bilan kompozitor yozib qo‘ygan bo‘ladi va vokal partiyasida yozilganlarni batafsil bajarish lozim bo‘ladi xolos. Qo‘shiq sur‘atiga dirijyor rahbarlik qiladi, bunda xonanda taktdan adashib va orkestr maromidan chiqib ketmasa bo‘ldi. Uning sahna bo‘ylab harakatini rejisser belgilab beradi, u rejisser ko‘rsatmalarini aniq bajarsa bo‘ldi. Biror muammo paydo bo‘lmasligi uchun shularning o‘zi yetarli bo‘ladi.

Ijodiy talqin qiluvchi xonandalar boshqacharoq fikr yuritadilar. Har bir inson va har bir estrada artisti betakror ijod namunasi hisoblanadi. Musiqali teatr, butun olam kabi metall prujinali, g‘ildirakli va g‘ildirakchali, pishangli va vintli oddiy mexanizm emas, balki bir aktyor shaxsini chiqarib yuborish va boshqasiga almashtirish darhol dramaturgik jarayonni ma’lum o‘zgarishga va ko‘plab sahnaviy vazifalarni qayta anglashga olib keluvchi qandaydir organizmdir. Dirijyor irodasi va rejissyor nuqtai nazariga ergashib vokal partiyasini bexato ijro etish yetarli bo‘lmaydi. Partiyani yodlash emas, rolga psixologik tayyor bo‘lish, uni mustaqil (dirijyor va rejissyorning nuqtai nazarini hisobga olib) yaratish lozim bo‘ladi.

Afsuski, bu jarayonning yomon varianti ko‘p tarqalgan. Pianinochi bilan birga partiya, ya’ni kompozitor mazkur personajga bag‘ishlangan qator yod olinadi. Partiyaning bu qatorida, tabiiyki, jonli inson, uning xarakteri, dramaturgik vazifasi, yashashdan maqsadi kabilarni ko‘rib bo‘lmaydi. Bu faqat notalar, intervallar, ritm va bunga qo‘shimcha ayrim so‘zlar ketma-ketligidir. Bunday metod aktyorlik shtampiga olib keluvchi “rolni mexanik yodlashdir”.

Odatda “rolga sudrab chiqish metodi” tafakkur yurituvchi aktyor, yaratuvchi, muallif, ijodkor aktyorni yo‘q qiladi.

Haqiqat yuzasidan aytish kerakki, hamma ijodkor ham bunday ishlamaydi. Quvonchli, rolini to‘g‘ri anglaydigan va uni aql bilan qo‘shiq qilayotgan zamonaviy qo‘shiqchi-aktyorlar bor.

Tabiiyki, badiiy obraz yaratishgacha dastlab yurishni o'rganishgagina harakat qilayotgan kishiga o'xshab vokal bosqichlarining alifbosini egallash bilan bog'liq sof texnik muammolarni hal qilish kerak bo'ladi. Ko'pgina pedagoglarning to'g'ri ta'kidlashicha, vokalchi-talabani ta'limini ham kuylash texnikasi, ham badiiy obrazni ma'naviy tahlilini o'qitishdan boshlash kerak. Talaba bo'lajak kasbi qanday vosita, maqsad ekanligini yaxshi bilishi, texnik ko'nikmalar mashqlari mohiyatga bo'ysunishi uchun qanday fikrdan boshlash kerakligini yaxshi bilishi lozim.

Har bir ijrochi uchun vokalning texnik muammolari badiiy muammolargacha o'sib borishi individual xususiyat hisoblanadi. Ammo har bir shaxs uchun bu jarayonni o'tashi ham qarz, ham farz hisoblanadi. Shuni tushunish zarurki, tinglovchi-tomoshabin konsertga vokal texnikasidan baxra olish va ekzersislar bilan eshitish a'zosiga orom berish (faqat ayrim vokal oliftalarini hayratga soladigan) uchungina kelmaydi, balki shodlanish, qayg'urish, azoblanish, hamdard bo'lish uchun tashrif buyuradi.

Ammo ko'pincha xonandalarda vokal texnikasi muammosi shunchalik o'sib ketadiki, ularni o'qitish chog'ida yetakchi o'ringa chiqib qoladi va estrada artistini tarbiyalash chog'ida uning vazifasi kengayadi.

Bunga misol qilib shuni aytish mumkinki, vokal bo'yicha pedagog darsini talaba "mutaxassislik" mashg'uloti deb ataydi, qo'shiq aytishgina uning uchun mutaxassislik bo'lib qoladi. U tafakkur yuritishga, badiiy sahna obrazini yaratishga o'rganishi lozim bo'lgan aktyorlik mahorati darsi esa unga ikkilamchi mashg'ulot bo'lib qoladi.

Talabalar va yosh estrada artistlari o'z kasbining nazariyasi bilan kam qiziqadilar va uni yetarli darajada chuqur o'rganmaydilar. Ko'pincha ular o'z sohasiga oid terminlarni tushunmaydi ham. "Dramaturgik xarakat" tushunchasini ular faqat jismoniy harakat va sahna bo'ylab oddiy yurishdan iborat deb tushunadi. Psixologik vazifani esa ular aktyorning tashqi moslamalari bilan qorishtirib yuboradi, "voqea" va "tavsiya etilayotgan vaziyat" kategoriyalarini farqlamaydi. Tabiiyki, nazariy qoidalarni tuzukroq o'zlashtirmay, ularni keyinchalik amaliyotda qo'llay olmaydi va shu bilan o'z ijrosini qashshoqlashtirib qo'yadi.

Estrada – teatr san’atida kasb mahoratidan mahrum bo’lish – hozirgi davrimizdagi bosh badiiylilikni yo‘qotish deyish mumkin. Estrada artistligi kasbining mohiyati haqida umumiy gaplar ko‘p, lekin bu haqdagi bilimlar nihoyatda kam.

Yosh artistlar “estrada artisti tomonidan sahna obrazi yaratish texnologiyasi” muammolari bo‘yicha ilmiy-metodik adabiyotni deyarli o‘qimaydi, “sahna ijodiyoti qonunlari”ni yuzaki o‘rganadi. Bu vaziyat ixtisoslikka oid darslikni mavjud emasligi tufayli yanada keskinlashadi.

Estrada xonandalari aktyorlik mahorati bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlarsiz ham ijod qilsa bo‘ladimi, degan savol tug‘iladi. Nazarimizda, xuddi vokal qatorlarini o‘rganishda musiqa nazariyasi va solfedji odan bilim bo‘lmasa musiqachilar ijod qilganidek ular ham ijod qila oladi. Solfedji olish mahoratiga ega bo‘lmasdan turib ham vokal partiyasini yod olish mumkin, bunda audio-yozuvni eshitish yoki konsertmeyster xizmatidan foydalanib, klavishlarni taqillatib ohangni yodlab qolish mumkin. Ba’zi xonandalar xuddi shunday ish tutadi. Teatr amaliyotida xatto “partiyani plastinkadan yod oldim” degan gap yuradi.

Bunday ish bilan ko‘proq havaskor jamoalari shug‘ullanadi, haqiqiy professional ijodda bu haqda gap bo‘lishi mumkin emas. Shundan ko‘rinadiki, haqiqiy artist havaskordan musiqa nazariyasi, solfedjio, aktyorlik mahorati sohalaridagi bilimlari bilan ajralib turadi.

Albatta, ko‘pgina aktyorlarda rol ustida ishlashining o‘z usuli va uslubi, obraz yaratishga nisbatan o‘z yo‘li bor. Hech qanday takomillashgan tizim ham mukammal sahna obrazini yaratilishiga kafolat bermaydi. U faqat rol ustida ishlashga yo‘l ochadi, maqsad yo‘lida og‘ishmay olg‘a borishga imkon beradi. K.S.Stanislavskiyning nazariy asarlarida biz estrada artisti uchun aynan shunday imkoniyatlarni topamiz (bu ko‘pyillik amaliyotdan kelib chiqqan).

Estradada qo‘shiq yaratish davrlarida o‘quv jarayonining xususiyatlaridan gap yuritib, sifatsiz ijroning bosh sabablaridan biri bo‘lgan so‘zga munosabat bilan bog‘liq yana bir muammoga e’tibor qaratmoqchimiz.

Vokalchi uchun musiqa, ohang bosh masala, soʻz esa ikkilamchi, yordamchi ifodaviy vosita degan aqida tomoshabin-tinglovchi tomonidan matnni yaxshi tushunmasligining asosiy sababi hisoblanadi.

Koʻpgina vokalchilar kuysiz qoʻshiq matnini hikoya qilib bera olmasligi mazkur fikrni tasdiqlaydi. Ular talaffuz qilinayotgan soʻzning maʼnosini oʻylab ham koʻrmay matnni mexanik tarzda, formal yodlab oladi. Ammo soʻz bosh ifoda vositasi hisoblangan dramatik artistlar ham bu kamchilikdan holi boʻlmaydi.

Bu haqda K.S.Stanislavskiy ham shunday degan edi: “Botinan boyitilmagan va alohida olingan soʻz oʻzicha oddiy tovush, xitob hisoblanadi... Bunday xitoblardan iborat rol matni maʼnosiz tovushlar qatorini tashkil qiladi”³².

Tomoshabin “qator maʼnosiz tovushlarni” eshitib nima haqida qoʻshiq aytilayotganini tushunmagan paytda nima uchun bu xitoblar paydo boʻladi? Ehtimol aniq boʻlmagan talaffuz, nutq texnikasi muammosi buning sabablaridan biridir? Darhaqiqat, u sabablardan biri, lekin bosh sabab emas.

K.S.Stanislavskiyning fikriga koʻra, “soʻzlarni mexanik valdirash bosh sabab hisoblanadi. Aktyorlar uchun sahnada mexanik nutq odati paydo boʻladi, yaʼni ular rol uchun yod olgan soʻzlarini maʼnosiz talaffuz qilaveradi, ularning botiniy maʼnosiga eʼtibor bermaydi”³³.

Mana shuning uchun ham aktyorlik mahorati koʻnikmasini egallagan vokalchi uchun sahna obrazi yaratish muammosi, repetitsiya paytida personajning “ichki mohiyatini” va uni vokal-plastik talqini muammosi bosh sabab hisoblanadi.

Adabiyotlar royxati:

1. Sayfullayev B.S. Tomosha sanʼati tarixi va nazariysi. – T.: Fan va texnologiya, 2014. – 152 b.
2. Mullajanov D.M. 1990-yillar oʻzbek musiqiy estradasida ohang muammosi: Sanʼat. fan. nomz. ... diss. avtoref. – T., 2004. – 150 b.

³² Станиславский К.С. Собр. Соч.: В 8 т. М., 1954-1961. Т.4. - С.121.

³³ Станиславский К.С. Собр. Соч.: В 8 т. М., 1954-1961. Т.4. - С.121.

MUNDARIJA

HUSAN MIRPO'LATOV	YANGI O'ZBEKISTON VA MADANIY ISLOHOTLAR	4
ТЕМУР РАШИДОВ	СПЕЦИФИКА РАБОТЫ ЭСТРАДНОГО РЕЖИССЕРА С АРТИСТОМ-ПЕВЦОМ	9
MARINA YUSUPOVA	РАЗВИТИЕ МОТИВОВ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ У СТУДЕНТОВ ОТДЕЛЕНИЯ «РЕЖИССЁР ЭСТРАДЫ И МАССОВЫХ ПРЕДСТАВЛЕНИЙ»	14
MAHMUD RASHIDOV	ЭВОЛЮЦИЯ ЭСТРАДНОГО ЖАНРА	21
JAHONGIR MAMATQOSIMOV	DRAMATIK PARCHALAR USTIDA ISHLASH USULLARI	26
FARRUH EGAMBERDIYEV	ESTRADA SAN'ATI RIVOJLANISHINING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI	31
ISOQTOY JUMANOV	ЭСТРАДА САЊАТИДА СЎЗ ВА УНИНГ ИННОВАЦИОН ИФОДА ТИЗИМЛАРИ	38
SHOKIR YUSUPOV	СЦЕНИЧЕСКИЙ ЭТИКЕТ	42
ILHOM SODIQOV	BUGUNGI ZAMON QAXRAMONI	46
SHAVKAT RASULOV	ESTRADA AKTYORLARINI TARBIYALASHDA TASAVVUR VA FANTAZIYANING AHAMIYATI	50
NILUFAR AHMEDOVA	AMALIY MASHG'ULOTLAR ORQALI TALABALARNING KASBIY MAHORATINI OSHIRISH	54
SHAHOBIDDIN IKRAMOV	NAVRO'Z BAYRAMINING TURKIY HALQLAR HAYOTIDA TUTGAN O'RNI	58
SOHIBJON VALIYEV	YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA TEATR MA'NAVIY OMIL SIFATIDA	63
IZZATBEK KURBANOV	ESTRADA AKTYORLIGINING ZAMONAVIY SAN'ATDA TUTGAN O'RNI	68
KRISTINA SAVCHENKO	РЕЖИССЁРСКИЙ ПОИСК И ВСКРЫТИЕ ДЕЙСТВЕННЫХ	72

	ЛЕЙТМОТИВОВ В РИТМИЧЕСКОЙ ПАРТИТУРЕ ЧЕХОВСКОЙ ДРАМЫ	
OYBEK TOXIROV	SAHNA NUTQI FANINING NAZARIY ASOSLARI	80
INOYATXON NAZAROVA	ESTRADA SAN'ATI: YAKKA IJRODAGI YUTUQLAR VA KAMCHILIKLAR	85
OCHILBEK HAMIDOV	AN'ANAVIY KULGU SAN'ATI TENDENSIYALARI	89
DILYORBЕК NURXONOV	SAN'AT – YOSHLAR TARBIYASINING BADIY OMILI SIFATIDA	93
OTABEK YUSUPOV	KINO VA TELEVIDENIYE SAN'ATI VA UNING MA'NAVIY QUDRATI	97
RAMUZA QAZAQBAYEVA	MILLIY ESTRADA SAN'ATINI RIVOJLANTIRILISHIGA YANGICHA YONDASHUV	102
SUNBULA HAMITOVA	BOLALAR TEATRINING YOSHLAR DUNYOQARASHI VA MA'NAVIY TARBIYASIGA TA'SIRI	106
ADHAM FARMONOV	PARODIYA SAN'ATI HAQIDA	110
SHERBEK SHODIYEV	ZAMONAVIY KULGI ESTRADASI MILLIY O'ZBEK TEATR AN'ANALARI KESIMIDA	117
NURILLA USMONOV	ESTRADA VA OMMAVIY TOMOSHALARDA VOKAL-PLASTIK TALQINI	124

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM
VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI

MILLIY ESTRADA SAN'ATINI
RIVOJLANTIRISHDA MALAKALI KADRLAR
TAYYORLASHNING
DOLZARB MUAMMOLARI

ILMIY ANJUMAN TO‘PLAMI

(2021-yil 15-oktabr)

Toшкент- 2021